oddiy giyohinng sehrli qudrati orqali ibratli mulohazalarni o'rtaga tashlaydi. «Boychechak ochildi» (1971) hikoyasida esa ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan adabiyotshunos olim katta shaharda yashab, ona tabiatdan biroz qolgani natijasida tabiatga yaqinlashish bilan uning ruhiyatidagi o'zgarishlar ko'rsatiladi. «Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tadqiq etilgan inson va tabiatning o'zaro aloqasi masalasi yozuvchi ijodiy evolyusiyasining deyarli barcha bosqichlarida asosiy o'rinni egallaydi. Bunday hikoyalarning bir qismida tabiatni asrab-avaylash haqida gap ketsa, boshqa bir guruhida tabiat go'zalliklarini tasvirlash bilan birga, inson va tabiat munosabatlari go'zallitini tarannum etuvchi asarlar ko'proq o'rinni egallagani ko'rinadi, chunki yozuvchi insonda tabiatga munosabat orqali yaxshilikni, ezgulikni, katta bir mehrni ko'rishni istaydi. Bu hol, ayniqsa, inson va hayvonot dunyosi, inson va o'simliklar olami tasvirida yaqqol ko'rinadi». Sh.Xolmirzayevning «Ot egasi», «Podachi» hikoyalarida insonning hayvonga muhabbati «Ko'kboy» hikoyasida hayvonning insonga sadoqatini ko'ramiz. E'tibor qilgan o'quvchi yozuvchining aksar hikoyalarida ayni mavzuga murojaat etilib, tabiatga aloqador gaplar katta ijtimoiyaxloqiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolar, inson va uning taqdiri, tarbiyasi haqidagi falsafiy fikrlar bilan tutashib ketganligini ko'radi. Inson tabiatdan tirqishsiz devor orqali ajralib turmaydi, barcha borliq, mavjudot biri ikkinchisidan oladi yoki beradi. Ushbu prinsip nafaqat inson va tabiat o'rtasidagi munosabatda amal qilinadi, balki bu tuyg'u inson va hayvonot dunyosida, ularning o'zaro munosabatida ham ko'rinadi. Bunday uzviy bog'liqlikni aks etgiran hikoyalarda bir dunyo bilan ikkinchi dunyoni, bir olam bilan ikkinchi olamni vafo, sadoqat, mehr-muhabbat tushunchalari bog'lab turadi. Shukur Xolmirzayev o'zini-o'zligini topgan adib. Shu sababli ham uning qahramonlari, yozish uslubi hech kimnikiga o'xshamaydi. Tanlangan mavzu, topilgan g'oya hamma vaqt ham orginal bo'lmasligi mumkin, gap uni tasvirlashda, ko'rsatib berishda. O'zbek milliy prozasi tarixida o'z o'rnini va nufuziga ega bo'lgan katta adiblarimiz ijodi va asarlarini zarracha kamsitmagan holda aytish kerakki, yozgan asarlarining nafaqat salmog'i, balki til va uslub go'zalligi, orginal obraz va yorqin xarakterlar yaratish mahorati bilan Shukur Xolmirzayev milliy nasrimizda tamomila yangicha bir yo'nalishga asos slogan ulkan adibdir. Yozuvchi ijodini e'tibor bilan kuzatsak, u avvalo qahramon portretini jonli tasvirlashda tengsiz bo'lganligini, shu bilan birga, qahramonlarning ko'ngil kechinmalarini, ruhiy dunyosini mahorat bilan tasvirlaganini ko'rish mumkin. Xalq hayotini, uning psixologiyasini, o'ykechinmalarini, o'zbekona olamini mukammal bilgani uchun ham tirik obrazlar, qahramonlar yarata oldi. Shukur Xolmirzayev mustabid tuzum davrida hukmron partiyaning siyosiy quroliga, tashviqot mashinasiga aylangan adabiyotni o'zining qadimiy o'zaniga solishga intildi va bu yo'ldagi barcha g'ov va to'siqlarni mardona yengib o'tdi. Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzaev



2-TOM, 4-SON

ijodining dastlabki bosqichida o'zi aytganiday klassiklarga ergashgan va bunda ularning ta'siri katta bo'lgan. Shu bilan birga Sh.Xolmirzaev J.London, R.Tagor, A.Chexov yoki A.Qahhorlarning quruq o'zlashtiruvchisn emas, balki badiiy so'z san'atini milliy zaminda boyitishga harakat qildi. Shukur Xolmirzaev shaklan an'anaviy yo'lda mazmunan yangi qahramonlar yaratdi. Sh.Xolmirzaev asarlarini o'qib, so'ng yozuvchi voyaga yetgan Surxon vohasiga, Boysun tog'lariga, bepoyon dashtlariga qadami tushgan kishi undagi manzara, rangbaranglikni ko'radi, ajib ohanglarni eshitadi, ularning hammasi ana shu yuragida hayot, tiriklik «tepib turgan» tabiatning «issiq» bag'ridan olinganini baralla sezadi. Shukur Xolmirzaevning o'zi hayotni teran anglagan, insoniyat ruhiyatidagi o'zgarishni seza oladigan inson edi. Shuning uchun ham u asarlarida tabiat qonuniyatlari asosida ish ko'radi, bu tabiiylik hyech qachon buzilmasligi kerakligi, buzilgan taqdirda katta falokatlar, fojialar keltirib chiqarishi mumkinligi haqidagi xulosalar chiqaradi. Shukur Xolmirzaev adabiyotga Surxon koloritini, tabiati, havosini olib kirgan yozuvchi. Olib kirganda ham betakror uslubda zavq bilan ifodalay oldi. Ana shundan, u o'zbek hikoyanavisligida o'ziga xos mustahkam cho'qqi yaratdi. Ayniqsa, "Zov ostida adashuv" hikoyasini nafis so'z ila yaratilgan san'at asari deyish to'g'ri bo'ladi. Bundan tashqari, "Omon ovchining o'limi", "Bandi burgut", "Ot o'g'risi" singari hikoyalari orqali Shukur Xolmirzaev o'zbek hikoyachiligida o'ziga xos maktab barpo etdi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Shukur Xolmirzayev "Saylanma" Toshkent. Ma'naviyat nashriyoti
2. Normatov U. (1982).
3. Kholmirzaev Sh. (2003). Stories.
4. Tavaldieva G. Shukur Kholmirzaev's
5. Solijonov Y. (2007).



2-TOM, 4-SON

FRANSUZ BADIY ASARLARINING O'ZBEK TILI TARJIMALARIDA
EVFEMIZMLARNING IFODALANISHI

ВЫРАЖЕНИЕ ЭВФЕМИЗМОВ В ПЕРЕВОДАХ ФРАНЦУЗСКИХ
ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

EXPRESSION OF EUPHEMISMS IN UZBEK TRANSLATIONS OF FRENCH
FICTION

Radjabov Ruslan

BuxDu o'qituvchisi

Ismatova Gulniso

BuxDu, Xorijiy tillar fakulteti, 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola fransuz badiiy asarlarining o'zbek tilidagi tarjimalarida evfemizmlarning ifodalanishini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot Gi de Mopassanning "Azizim" romani va Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" qissasining o'zbek tilidagi tarjimalari misolida olib borildi. Maqolada evfemizmlarning turlari, ularning o'zbek tilidagi muqobillari va tarjimada qo'llanilish usullari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi tarjimalarda evfemizmlar asosan umumlashtirish, kinoya va metaforalar orqali ifodalangan. Shuningdek, tarjimonlar ba'zi hollarda evfemizmlarni tushirib qoldirish yoki ularni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish usullaridan ham foydalanishgan.

Kalit so'zlar: evfemizm, tarjima, fransuz badiiy asarlari, o'zbek tili, Gi de Mopassan, Antuan de Sent-Ekzyuperi

Аннотация. Данная статья посвящена изучению выражения эвфемизмов в переводах французских художественных произведений на узбекский язык. Исследование проводилось на примере переводов на узбекский язык романа Ги де Мопассана "Азизим" и повести Антуана де Сент-Экзюпери "Маленький принц". В статье проанализированы виды эвфемизмов, их альтернативы на узбекском языке и способы их использования в переводе. Результаты исследования показывают, что в переводах на узбекский язык эвфемизмы выражались в основном через обобщения, иронию и метафоры. Переводчики также использовали в некоторых случаях методы опускания эвфемизмов или их прямого перевода.



2-TOM, 4-SON

Ключевые слова: эвфемизм, перевод, французская литература, узбекский язык, Ги де Мопассан, Антуан де Сент-Экзюпери

Abstract. This article is devoted to the study of the expression of euphemisms in Uzbek translations of French fiction. The study was conducted on the example of the Uzbek translations of Gi de Mopassan's novel "My Dear" and Antoine de Saint-Exupéry's short story "The Little Prince". The article analyzes the types of euphemisms, their alternatives in Uzbek and the methods of their use in translation. The results of the study show that in Uzbek translations, euphemisms are expressed mainly through generalization, irony and metaphors. Translators also used methods of dropping euphemisms or translating them directly in some cases.

Keywords: euphemism, translation, French fiction, Uzbek, Gi de Mopassan, Antoine de Saint-Exupéry

KIRISH

Evfemizmlar muayyan tildagi noqulay, qo'pol yoki haqoratimiz so'zlar va iboralarning yoqimliroq muqobillari hisoblanadi [1]. Ular turli tillarda mavjud bo'lib, nutqning muloyimligini ta'minlash, salbiy bo'yoqdor so'zlardan qochish va muloqot madaniyatini yuksaltirish maqsadida qo'llaniladi. Badiiy adabiyotda evfemizmlar obrazlilikni oshirish, personajlar nutqini individuallashtirishda muhim rol o'ynaydi [2]. Biroq turli tillardagi evfemizmlar tuzilishi va semantikasi jihatidan farqlanishi mumkin, bu esa ularni tarjima qilishda qiyinchiliklar tug'diradi.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot uchun Gi de Mopassanning "Azizim" romani va Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" qissasining o'zbek tilidagi tarjimalari tanlab olindi. Ushbu asarlar fransuz adabiyotining yorqin namunalari hisoblanib, ularda evfemizmlarning ko'p qo'llanilganligi bois tadqiqot uchun juda mos keladi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, semantik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Evfemizmlar va ularning tarjimasiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu mavzu bo'yicha juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, A.A.Reformatskiy [3], B.A.Larin [4], J.S.Neaman va C.G.Silver [5] kabi tilshunoslar evfemizmlarning umumiy xususiyatlari va ularning leksik-semantik guruhlari haqida fikr bildirishgan. O'zbek tilida evfemizmlar D.Xudoyberganova [6], S.Muhamedova [7] kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, fransuz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan badiiy asarlardagi evfemizmlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar deyarli uchramaydi.



2-TOM, 4-SON

NATIJALAR

Tadqiqot davomida Gi de Mopassan va Antuan de Sent-Ekzyuperining asarlaridagi evfemizmlar va ularning o'zbek tilidagi tarjimalarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Fransuz tilida evfemizmlar ko'pincha metonimiya, perifraza va kinoya kabi vositalar yordamida hosil qilinsa [3], o'zbek tilidagi tarjimalarda ularning o'rnini yoki umumlashtirish yoki metafora egallaydi. Bu esa, o'z navbatida, evfemizmlarning konnotativ ma'nolarini saqlashga yordam beradi.

Tahlil qilingan tarjimalarda evfemizmlar ba'zan kontekstga mos tarzda berilmagan. Masalan, "Azizim" romanida ayollar pardozi va kiyim-kechagiga ishora qiluvchi evfemizmlar aynan tarjima qilinmagan, balki ularning o'rnida umumiy ma'no berilgan. Bu evfemizmlarning uslubiy bo'yog'ini susaytiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tilidagi evfemizmlar ko'pincha umumxalq so'zlashuviga xos so'z va iboralar negizida shakllantiriladi [6]. Shu bois, tarjimada ham shu xususiyat saqlanishiga e'tibor qaratish zarur. Biroq tahlillar shuni ko'rsatdiki, ba'zan tarjimonlar bunday imkoniyatlardan foydalanmagan.

Tahlillar evfemizm tarjimasida gender xususiyatlarning ham e'tiborga olinishi kerakligini ko'rsatdi. Xususan, fransuz tilidagi evfemizmlarning ma'no nozikligi aynan ayollar yoki erkaklar nutqiga xosligi bilan belgilanishi mumkin [7]. Tarjimada bunday jihatlar inobatga olinmagan.

"Kichkina shahzoda" asarining o'zbek tilidagi tarjimasida evfemizmlar aksariyat hollarda o'z muqobilini topgan. Buni asarning falsafiy-ramziy xarakteri va unda ko'tarilgan mavzularning umumbashariy qamrovi bilan izohlash mumkin. Shu sababli, evfemizmlar ham umumlashma xususiyatiga ega bo'lib, matnda obraz yaratish va kitobxon diqqatini tortishga xizmat qilgan.

Matnda evfemizmlardan foydalanishda milliy-madaniy xususiyatlarni inobatga olish zarur [1]. Tahlil qilingan tarjimalarda bu jihat ba'zi o'rinlarda e'tiborga olinmagan. Oqibatda, fransuz tilidagi evfemizm o'zbek kitobxon uchun mavhum bo'lib qolgan yoki noo'rin tuyulgan.

TAHLIL

Gi de Mopassanning "Azizim" romanidan olingan quyidagi misolda fransuz tilidagi evfemizmning o'zbek tilidagi tarjimasini ko'rishimiz mumkin:

"Madame de Marelle s'habillait avec un soin infini et un goût exquis"[8]. - "Madam de Marel g'oyat orasta va nihoyatda nozik did bilan kiyinar edi" [9, p. 45].



2-TOM, 4-SON

Ushbu misolda "s'habiller" (kiyinmoq) fe'li ayolning pardoz-andozi va kiyinishiga ishora qiluvchi evfemizm sifatida keltirilgan. O'zbek tilidagi tarjimada esa bu evfemizm "nihoyatda orasta" va "nozik did bilan kiyinmoq" tarzida berilgan, ya'ni umumlashtirish usuli qo'llangan.

"Kichkina shahzoda" asarida ham evfemizmlar ko'p uchraydi. Masalan:

"J'ai de sérieuses raisons de croire que la planète d'où venait le petit prince est l'astéroïde B 612"[10]. - "Mening jiddiy taxminimcha, kichkina shahzoda kelgan sayyora B 612 asteroidi bo'lsa kerak" [11, p. 17].

Fransuz tilidagi "j'ai de sérieuses raisons de croire" iborasi o'zbek tiliga "jiddiy taxminimcha" tarzida tarjima qilingan. Bu o'rinda tarjimon evfemizmni saqlagan holda uning ma'no doirasini toraytirgan.

Umumiy qilib aytganda, fransuz badiiy asarlari evfemizmlarining o'zbek tilidagi tarjimalarini tadqiq etish natijasida yaqqol ko'zga tashlanuvchi jihatlar aniqlandi. Tarjima jarayonida evfemizmlarning semantik va uslubiy xususiyatlariga e'tibor qaratish, milliy-madaniy jihatlarni inobatga olish, ayni paytda, o'zbek tilida muqobil evfemistik iboralarni topish ushbu ifodalarni o'girishda muvaffaqiyatga erishishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, evfemizmlarning tarjimasida umumlashtirish, kinoya va metaforalardan foydalanish yanada maqsadga muvofiq. Zero, bu usullar evfemizmning ekspressivligini saqlagan holda o'zbek kitobxoniga tushunarli bo'lgan muqobillarni topishga yordam beradi. Shu bilan birga, evfemizmlarni tushirib qoldirish yoki so'zma-so'z tarjima qilish hollari ham kuzatildi. Agar kontekst evfemizmning ma'nosini anglashga yordam bermasa, bunday usullar ma'no noaniqligiga olib kelishi mumkin.

Ba'zi hollarda evfemizmlar tarjimasida uslubiy betaraflik yuzaga kelishi ham kuzatildi. Masalan, "Azizim" romanidan olingan ushbu misolda fransuz tilidagi evfemizm o'zbek tiliga odatiy konstruksiya bilan berilgan:

"Elle avait souri, avec une indulgence complaisante" [8]. - "U muruvvatli, xushfe'l jilmayib qo'ydi" [9, p. 115].

Tarjimada "avec une indulgence complaisante" iborasi evfemistik ma'nosini yo'qotgan va oddiy tasviriy vosita sifatida qayta yaratilgan.

XULOSA

Fransuz badiiy asarlaridagi evfemizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda umumlashtirish, kinoya va metaforalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biroq har bir holatda evfemizmning kontekstdagi ma'no nozikligini hisobga olish, evfemistik ifoda tarjimada ham o'z kuchini saqlashiga e'tibor berish lozim. Zarur bo'lganda, evfemizmlarni



2-TOM, 4-SON

tushirib qoldirish yoki so'zma-so'z tarjima qilish usullarini qo'llash mumkin. Tadqiqot natijalarini fransuz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotida qo'llash, tarjimonlar uchun metodik qo'llanma sifatida tavsiya etish mumkin.

REFERENCES

1. Krysin, L.P. (1996). "Evfemizmy v sovremennoj russkoj rechi". Rusistika, (1-2), 28-49.
2. Allan, K., & Burridge, K. (1991). "Euphemism & dysphemism: Language used as shield and weapon". Oxford University Press, USA.
3. Reformatskij, A.A. (1996). "Vvedenie v yazykovedenie". Aspekt Press, Moscow.
4. Larin, B.A. (1961). "Ob evfemizmax". Uchenye zapiski LGU, Seriya filologicheskix nauk, 60(301), 110-124.
5. Neaman, J.S. & Silver, C.G. (1983). "Kind words: A thesaurus of euphemisms". Facts on File Inc., New York.
6. Xudoyberganova, D. (2013). "O'zbek tilida evfemizmlar va disfemizmlarning nominativ xususiyatlari". O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent.
7. Muhamedova, S. (2020). "Evfemizmlar va disfemizmlarning gender xususiyatlari". Filologiya masalalari, (3), 89-92.
8. Maupassant, G. (2012). "Bel-Ami". Folio classique, Gallimard, Paris.
9. Mopassan, G. (2015). "Azizim". G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent.
10. Saint-Exupéry, A. (1999). "Le Petit Prince". Folio, Gallimard, Paris.
11. Sent-Ekzyuperi, A. (2019). "Kichkina shahzoda". Yangi asr avlodi, Toshkent.



2-TOM, 4-SON

XOM ASHYONI SAQLASH SHAROITLARI

Qodirov Shaxobiddin Urol o'g'li, Jizzax politexnika instituti, asissent
Toshpo'latova Aziza Abdimurot qizi talaba, 315-21 guruhi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mo'yna xom-ashyosini konservalash usullari, ularni saqlash tartibi va usullari, konservalashda qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar. va antiseptiklar, xom-ashyoni noto'g'ri saqlash oqibatida hosil bo'ladigan nuqsonlar keltirilgan

Tayanch so'zlar: xom-ahyo, qisqa muddatli saqlash, mo'ynali xom ashyo turlari, burmalar, naftalin, omborlar, teri qong'izlari, konservalash usullari, antiseptiklar

Mo'yna, mo'yna va qo'y terisi mahsulotlarini saqlash shartlari va xususiyatlari. Mo'ynali xom ashyoni saqlashni ko'rib chiqaylik, bu qisqa muddatli yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Xom ashyoni qisqa muddatli saqlash bir oydan ortiq bo'lmagan muddatga hisoblanadi. Konservalashning quruq usullaridan foydalangan holda terilar uchun uzoq muddatli saqlashning maksimal muddati 2 yildan, ho'l-tuzlangan va kislota-tuzli saqlash usullaridagi xom ashyo uchun - 1,5 yildan oshmasligi kerak (ikki qish va bir yoz mavsumi). Kam yog'sizlangan, quritilgan, kuya lichinkalari yoki teri qo'ng'izlari bilan ifloslangan yoki bakterial ifloslanishga shubha qilingan terilar uzoq vaqt davomida saqlanishi mumkin emas, ular birinchi navbatda qayta ishlashga yuboriladi. Ho'l tuzlangan konserva xomashyosi sovuq mavsumda 4-10 °C dan yuqori bo'lmagan haroratda uzoq muddatli saqlash uchun yuboriladi, boshqa vaqtlarda - faqat xom ashyoni saqlash uchun xona + dan yuqori bo'lmagan haroratgacha sovutilgan bo'lsa. 5°C. Nam tuzlangan it terilari uzoq muddatli saqlash uchun saqlanmaydi.

Mo'ynali xom ashyo turlari, saqlash usullari va standart sifat gradatsiyalari bo'yicha alohida saqlanadi. Xom-ashyo zahiralari kam bo'lsa, har xil turdagi va saqlash usullaridagi terilarni aralashtirmasdan, bir nechta tizmalar, ranglar, o'lchamlar, navlar va nuqsonlar guruhining terilarini birlashtirishga ruxsat beriladi. Past navli terilar ushbu turdagi qolgan xom ashyolardan alohida saqlanadi (past navli terilarga navi 25% va undan kam bo'lgan terilar, qorako'l mo'ynalari esa 13% va undan kam navli terilar kiradi). Qimmatbaho turdagi terilar ilgichlarga osilgan yoki yopiq kontrplak qutilarga yoki tokchalarga joylashtirilgan karton qutilarga joylashtirilgan. Quyon, marmot, mayda kemiruvchilar va saqlash uchun mo'ynali xom ashyo kabi arzon mo'ynali turlarning terilari poldan kamida 10 sm balandlikdagi tokchalarga qo'yiladi. Bu holda terilar qoziq qilib qoziq qilib yoki oldindan



2-TOM, 4-SON

qo'yiladi. -bo'g'implarga bog'langan va (yoki) qoplarga o'ralgan va alohida bo'limlarga (hujayralarga) joylashtirilgan. Plastik qoplarga solingan dengiz hayvonlarining nam tuzlangan terilari bochkalarda saqlanadi. Barcha turdagi quruq konserva xomashyosi turli konstruksiyadagi idishlarda saqlanishi mumkin. Saqlash joyi etarli bo'lmasa, nostandart qo'y terisini asfaltlangan maydonlarda soyabon ostida saqlashga ruxsat beriladi. Bunday holda, xom ashyo kamida 20 sm balandlikdagi stendlarga joylashtiriladi va tarpaulin bilan qoplanadi. Xom ashyoni yog'ingarchilikdan himoya qilish uchun qo'shimcha vosita sifatida polietilen plyonkadan foydalanishga ruxsat beriladi.

Xom ashyoni hasharotlar ta'siridan himoya qilish uchun profilaktika va majburiy (hasharotlar paydo bo'lgan taqdirda) dastgoh binolari va xom ashyoni xlorofos, diklorvos yoki boshqa insektitsidlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq dezinseksiya qilish amalga oshiriladi. Nam tuzlangan va kislota-tuz konserva xom ashyosini saqlashda tuz qo'shiladi. Qo'y terisi apron yoki ochiq usulda yotqiziladi, har bir teriga natriy xlorid va antiseptiklar aralashmasi: natriy geksaftorsilikat yoki paradiklorbenzol qo'shiladi. Quruq konserva xomashyosini saqlashda ularga naftalin yoki paradiklorbenzol sepiladi: yangi quruq xom ashyo – soch va teri tomondan, quruq tuzlangan va tuzlangan – soch tomondan. Qimmatbaho mo'yna turlarini saqlashda insektitsidlar qo'llaniladi, sumkalar yoki qog'oz qoplarga qadoqlanadi.

Nam tuzlangan va kislota-tuzli konservalangan mo'ynali xom ashyoni saqlashda sovutgichli xonadagi harorat 0 dan +5 °C gacha bo'lishi kerak; sovutish moslamasisiz - 20 °C dan yuqori emas; havoning nisbiy namligi 70-80%, namlik 70% dan past bo'lsa, xom ashyo to'plami kuchli tuz eritmasi bilan namlangan bo'yra yoki xalta bilan qoplangan. Yangi quruq va quruq tuzlangan konserva, shuningdek tuzlash uchun xom ashyoni saqlashda sovutgichli xonadagi harorat 0 dan +10 °C gacha, sovutgichsiz -10 dan -10 gacha bo'lishi kerak. +25 °C, nisbiy namlik 55-65 %. Har bir omborxonada xonasida havo harorati va nisbiy namligi nazorat qilinadi; psixrometr ko'rsatkichlari jurnalga yoziladi (yozda har kuni, qolgan davrda esa haftada 1-2 marta). Kam nisbiy havo namligida xonadagi zamin suv bilan puskurtulerek namlanadi. Nam xonalarni quritish uchun ularni quruq havoda ventilyatsiya qiling. Ko'tarilgan havo haroratida sovutish moslamalari bo'lmagan xona ertalab ventilyatsiya qilinadi.

Yangi quruq va quruq tuzlangan konserva, shuningdek tuzlash uchun xom ashyoni saqlashda sovutgichli xonadagi harorat 0 dan +10 °C gacha, sovutgichsiz -10 dan -10 gacha bo'lishi kerak. +25 °C, nisbiy namlik 55-65 %. Har bir omborxonada xonasida havo harorati va nisbiy namligi nazorat qilinadi; psixrometr ko'rsatkichlari jurnalga yoziladi (yozda har kuni, qolgan davrda esa haftada 1-2 marta). Kam nisbiy havo namligida xonadagi zamin suv



2-TOM, 4-SON

bilan püskürtülerek namlanadi. Nam xonalarni quritish uchun ularni quruq havoda ventilyatsiya qiling. Ko'tarilgan havo haroratida sovutish moslamalari bo'lmagan xona ertalab ventilyatsiya qilinadi.

Shtapellarda saqlanadigan xom ashyoning holati xona ichidagi va stend ichidagi haroratlarni solishtirish orqali nazorat qilinadi. Stak ichidagi harorat uni yotqizish paytida unga kiritilgan maxsus oluklarga o'rnatilgan termometrlar bilan o'lchanadi. Termometr ko'rsatkichlari jurnalda maydan sentyabrgacha, shu jumladan har ikki kunda bir marta qayd etiladi; mart, aprel, oktyabr, noyabr oylarida - har hafta; dekabr dan fevralgacha - har ikki haftada bir marta. Agar hafta davomida ichki stack haroratining o'sish tezligi xona haroratining o'sish tezligidan oshsa, u holda stek xavfli hisoblanadi va demontaj qilinadi. Mo'yna va qo'y terisi-mo'ynali kiyimlarini markalash GOST 19878-74 "Mo'ynali kiyimlar, mo'yna va qo'y terisi-mo'ynali kiyimlari" talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Yorliqlash, qadoqlash, tashish, saqlash. Mo'yna, mo'yna va qo'y terisi mahsulotlarini markalash quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

1. individual tafsilotlarni qo'llash;
2. muhr bosish;
3. mahsulotni, nazorat yorliqlarini, mato lentasini biriktirish.

Teri, mo'yna va qo'y terisi mahsulotlari ular uchun belgilangan sifat ko'rsatkichlariga muvofiq markalanadi: tizmasi, rangi, kumush guruhi, hajmi, navi, nuqsonlar (nuqsonlar) guruhi va amaldagi standartlar va texnik shartlarda nazarda tutilgan boshqalar. Teri, mo'yna va qo'y terisi bir xil partiyalarda to'plamlarga, paketlarga, juftlarga va to'plamlarga yig'ilishi kerak:

- mahsulot nomi bo'yicha;
- mo'yna turi;
- qayta ishlash turi;
- turi;
- sifat;
- uslub, model;
- hajmi;
- o'sish.

Terilar ochilmagan holda o'ram va bog'lamlarga o'raladi yoki umurtqa pog'onasining o'rta chizig'i bo'ylab sochlari ichkariga qarab oldindan buklanadi (qo'y terisi, qalpoq, taycha, mo'ynali muhr, dengiz otteri, dengiz hayvoni, ayiq). Paketdagi yuqori va pastki terilar charm matoni tashqariga qaratib katlanmalidir. Teri, mo'yna va qo'y terisi mahsulotlarini, teri qismlarini va qopqoqlarni qadoqlash qadoqlash materiallarida amalga



2-TOM, 4-SON

oshirilishi kerak. Qadoqlash materiallari sifatida A, B, C, D, D, E markali o‘rash qog‘ozlari ishlatiladi; mumli qog‘oz, suv o‘tkazmaydigan qog‘oz, ikki qatlamli; karton quti. Teri va mahsulotlarni qadoqlashda paxta qoplaridagi naftalin idishlarga joylashtirilishi kerak. Teri va mahsulotlarni qadoqlashda yog‘och qutilar qog‘oz bilan qoplangan. Qutini to‘ldirgandan so‘ng, terilar va mahsulotlar yuqoridan qog‘oz bilan qoplangan.

Transport

Mo‘yna, qo‘y va mo‘ynadan tayyorlangan buyumlar, terilar, teri qismlari, qopqoqlar barcha turdagi transportda tashiladi. Bir shahar va viloyat ichida shaharlararo tashish va tashish uchun qadoqlash materiallari, konteynerlar va konteynerlardan foydalanish kerak. Faqat bitta shahar va viloyat ichida tashish uchun faqat konteynerlardan foydalanish kerak. Tashish vaqtida konteyner to‘liq quvvat bilan to‘ldirilishi kerak. Qutilarga qadoqlangan mahsulotlar qutilar orasidagi bo‘shliqlar juda kam bo‘lgan qutilarga joylashtiriladi. Idishdagi mahsulotlar va terilar shunday joylashtirilishi kerakki, ularning harakatlanish imkoniyati istisno qilinadi.

Saqlash

Teri, mo‘yna va qo‘y terisi buyumlari, teri qismlari va qopqog‘i yopiq, toza, shamollatiladigan, yorug‘liksiz, yog‘ingarchilik va tuproq namligidan himoyalangan xonalarda saqlanishi kerak. To‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nurlari teriga va mahsulotlarga tushmasligi kerak. Teri, mo‘yna va qo‘y terisi buyumlari, teri qismlari va qopqoqlari 0 dan +8 °C gacha bo‘lgan haroratda va 40-65% nisbiy namlikda saqlanishi kerak.

Ularni -20 dan yuqori haroratda, lekin +30 °C dan yuqori bo‘lmagan va havoning nisbiy namligi 40-70% gacha saqlashga ruxsat beriladi. +23 °C dan yuqori haroratda yoki 65% dan yuqori nisbiy namlikda saqlash 6 oydan oshmasligi kerak.

Teri, mo‘yna va qo‘y terisi buyumlari, teri qismlari va qopqoqlari isitish va isitish tizimlaridan (qurilmalardan) kamida 1 m masofada saqlanishi kerak. Teri va mahsulotlarni kuya, charm qo‘ng‘iz va neylon qo‘ng‘izlardan himoya qilish uchun insektitsidlardan foydalanish kerak. Ular orasida naftalin va “Antimol” preparati mavjud. Agar burmalar kuya yoki teri qo‘ng‘izlari bilan kuchli zararlangan bo‘lsa, fumigatsiya qilish kerak. Fumigatsiyani amalga oshirish uchun yaxshi muhrlangan izolyatsiyalangan saqlash xonasi talab qilinadi. Teri, mo‘yna va qo‘y terisi mahsulotlarini, teri va latta qismlarini tokchalarda, qutilarda yoki yumshoq idishlarda saqlashda teri yoki mahsulotlar orasiga qo‘yilgan paxta qoplarga yoki qog‘oz qoplarga qadoqlangan naftalindan foydalanish kerak. Teri yoki ularga qadoqlangan mahsulotlar bilan qutilar yog‘och pollarga joylashtiriladi. Zamin ustidagi taxta balandligi kamida 100 mm bo‘lishi kerak. To‘plamlar, o‘ramlar, to‘plamlar, qutilar, qoplar va qadoqsiz mahsulotlar javon va qafas tokchalarida, o‘ralgan holda yoki osilgan holda



2-TOM, 4-SON

saqlanadi (o'ramlar, qorako'l, qo'y va mo'ynali ustki kiyimlar, ayollar mo'ynali bosh kiyimlardan tashqari). Qadoqlangan buyumlar va omborlarning tashqi devorlari orasidagi masofa kamida 0,5 m bo'lishi kerak. Naftalinni almashtirish tavsiya etiladi. Naftalinni kamida ikki-uch oyda bir marta, Antimolni - oyiga bir marta almashtirish tavsiya etiladi. Mo'ynali kiyimlardan mahsulotlarni naftalin va Antimol bilan sepish tavsiya etilmaydi. Uzoq muddatli saqlash vaqtida, ayniqsa issiq mavsumda, mahsulotlar vaqti-vaqti bilan (kamida ikki-uch haftada bir marta) saralanadi va chayqatiladi, kuya lichinkalari shakllanishiga yo'l qo'ymaydi.

FOYDALANALIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Temrova MI. Tarmoq kimyosi va texnologiyasi. Darslik. -T.: Dizayn-press, 2013. -328 bet.
2. T.J.Qodirov, A.Y.Toshev. Charm va mo'ynani pardoqlash. Darslik. - T.: Adabiyot uchqunlari, 2018. -198 bet.
3. Чурсин В. И. Теоретические основы и практика новых нетрадиционных технологий кожевенного производства [Электронный ресурс] электронная библиотека диссертаций URL: <https://www.dissercat.com> content teoreticheskie-osnovy-i-praktika-novykh-netraditsionnykh-tekhnologii-kozhevennogo-proizvodst (дата обращения: 20.07.2020)
4. Чернов Н.В. Технология производств кожи и меха. - Москва: Легкая индустрия, 1946. 350 с.
5. Реусова Т.В., Горбачева М.В., Новиков М.В. Оценка качества и поиск нового подхода к сортировке невыделанных шкур северного оленя для рационального их использования и переработки. Ветеринария, зоотехния и биотехнология. 2019. № 7. С. 41-48.
6. Пухова И.Д., Горбачева М.В., Сухина Т.В. Характеристика современного оленеводства российской федерации: перспективы и вектор развития отрасли. Актуальные проблемы ветеринарной медицины, зоотехнии и биотехнологии. Сборник научных трудов Международной учебно-методической и научно-практической конференции, посвященной 100- летию со дня основания ФГБОУ ВО МГАВМиБ - МВА имени К.И. Скрябина. 2019. С. 414-417.



2-TOM, 4-SON

ADABIYOT O'QITISHDA O'QUV TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Masofaviy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Mahmado'stov Abdulla

abdullamahmadustov@gmail.com

[Tel:+998945774244](tel:+998945774244)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada adabiyot o'qitishda o'quv topshiriqlarining ahamiyati, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'quv topshiriqlarini to'g'ri tashkil etish, bolani kamolot sari yetaklashning qat'iy mezonlari asosida uni o'z-o'zini rivojlantirishga undashning ahamiyati haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: o'quv topshiriqlari, pedagogik, psixologik, ilmiy-metodik asoslar, o'quvchining ichki qiziqishlari, erkin faoliyat

KIRISH

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'quv topshiriqlarini to'g'ri tashkil etish o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri. Ta'limda o'quvchilarning o'quv topshiriqlarini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llari bilan ilmda ham, amaliyotda ham yetarli darajada shug'ullanilmayapti. O'quv topshiriqlarini tashkil etishning pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik asoslari ishlanmagan. Shu bois pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari ta'limida ham o'quv topshiriqlarini tashkil etish borasida talabalarga yetarli darajada bilim berilmaydi. O'qituvchilar uchun bu borada ilmiy asoslangan nazariy-metodik, amaliy tavsiyalar yo'q.

Ta'lim amaliyotida o'quvchiga bo'lgan talabchanlik bolani kamolot sari yetaklashning qat'iy mezonlari asosida uni o'z-o'zini rivojlantirishga undashi kerak. Bolani tarbiyalash, o'qitish emas, uni kattalar ko'magida o'zini o'zi tarbiyalaydigan, bilimlarni o'zi izlanib o'zlashtiradigan vaziyatga solish lozim. O'quvchilariga imkon qadar ko'p va chuqur bilim bera oladigan o'qituvchi yaxshi o'qituvchi emas. Istiqloq davri milliy tarbiyashunosligida sinfdagi har bir o'quvchini o'z-o'zini tarbiyalashi va bilimlarni o'zlashtirishi yo'lida faol, tinimsiz ishlata oladigan, ularni mustaqil fikr sohibi bo'lishini ta'minlaydigan, o'quvchi shaxsida o'z qarashlarini asoslay oladigan hamda himoya qila biladigan, o'rni kelganda g'oyalari uchun kurashishga qodir insonni tarbiyalashni biladigan ustoz yaxshi o'qituvchi hisoblanadi.

Asosiy qism



2-TOM, 4-SON

Bilimlarni o'zlashtirishda bolalar mehnatiga, bu yo'lda ularning erkinligiga e'tibor qilmaslik maktab va o'qituvchining eng katta xatosi hisoblanadi. O'quvchini mehnat qilishga majbur etish, unga mehnat qilib bilim olishdan zavq olish mumkinligini, mehnatning ehtiyojga aylanishi uni har qanday qaramlikdan qutqarishini anglatish tarbiyashunoslik maqsadining asosidir. Adabiyot darslari jarayonida o'quvchilar mehnati haqida qayg'urganda uning qaysi turi besamar ketmasligi, qay yoshdagi bola qanday qiyinchiliklarni yengib o'ta olishi mumkinligini, mehnatning qanaqasi oson-u qaysi biri azobli ekanini aniqlab olmoq o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Shu ma'noda, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylab berilgan o'quv topshiriqlari kattagina ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. O'quvchining ichki qiziqishlarini qondirishni ko'zlab berilgan uy vazifalari uning darsda olgan bilimlari, ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatlarini mustahkamlash, rivojlantirish, takomillashtirishga yordam beradi. Bilimlarning sifatini oshirishga asos bo'ladi. To'g'ri berilgan uy vazifalari o'sib kelayotgan avlodni bilim olish jarayonida imkon qadar mustaqil ishlashga, erkin faoliyatga, bilimni chuqurlashtirishga o'rgatadi.

Bundan tashqari, pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik asoslarga tayanib berilgan uy vazifalari o'quvchilar shaxsiyatida ziyraklik va erkinlik tarkib topishiga ko'maklashadi. Ularda aniqlik va batartiblik, mehnatsevarlik, qat'iyatni rivojlantirishga asos bo'ladi. O'quvchining o'z xatti-harakatlarida aniqlikka erishishiga ko'maklashadi. Faoliyatida duch kelgan qiyinchiliklarni yengib o'ta olish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish hamda o'z xatti-harakatini nazorat qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Uy vazifalari ularni to'g'ri tashkil qila bilgandagina o'quvchilarning ma'naviy shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aks holda ular salbiy natijalarni ham keltirib chiqaradi. Agar uy vazifalari o'quvchilarga metodik jihatidan puxta o'ylanmay berilsa, ular o'quvchilarni qalbakilikka, topshiriqlarni yuzaki bajarishga o'rgatadi, o'qishga va o'quvchining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni yolg'onga o'rgatadi, bola uchun ortiqcha, samarasiz mehnat bo'ladi. Uy vazifalari o'quvchilarning ruhan rivojlanishi va o'qishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun ularning qat'iy me'yorini belgilash, uyda ishlash uchun topshiriqlar berishni va ularni nazorat qilishni metodik jihatidan oqilona tashkil qila bilish lozim. Ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchilarning shaxsi, tabiati, intellektual imkoniyatlari, oilaviy sharoitiga e'tibor bermaydilar, ularning mustaqil mehnatini tashkil qilish metodikasidan bexabarlar va beriladigan uy vazifalarini yoki haddan oshirib yuboradilar yoki juda jo'nlashtirib qo'yadilar. Buning natijasida o'quvchilar noto'g'ri ishlaydilar. Ba'zida uyga sinfda ishlanmagan, o'qituvchi tomonidan ifodali



2-TOM, 4-SON

o'qilmagan badiiy matnlar yodlashga topshiriladi. O'tilmagan mavzularda referatlar yozish talab qilinadi.

Xulosa

Bunday topshiriqlar berila turib hatto ularni yozishda foydalanish mumkin bo'lgan manbalar ham ko'rsatilmaydi. Go'yo bu bilan ustozlar o'quvchilarini o'z o'quv fanlari bo'yicha ko'proq ishlashga majbur qiladiganday bo'ladilar. Ko'pincha o'qilgan asarlar yuzasidan uyga beriladigan vazifalar bir-biridan farq qilmaydi va ular o'quvchilarning uy vazifalarini bajarishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. o'quv topshiriq berishdan oldin, uning uchun asosiy bo'lgan didaktik talablar ishlab chiqilishi kerak. Har bir topshiriq o'quvchi uchun tushunarli va uning mustaqil ravishda bajarish imkoniyatlari doirasida bo'lishiga harakat qilinishi lozim. o'quv topshiriqlarini bajarishga o'quvchi sinfda o'qituvchi tomonidan alohida tayyorlanadi, manbalar ko'rsatiladi, lozim bo'lganda ishlash uchun yo'nalish beriladi. Sinfda uy vazifasini olgan o'quvchining topshiriqni bajarishga qiziqishi va ehtiyoji, uni mustaqil ravishda bajarish yo'llari haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). – T.: «O'qituvchi», 1996. 37-bet.
2. Шейман Л. А. Стимулирование самостоятельного чтения школьников. Фрунзе: «Мектеп», 1987. С. 79
3. Matjon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi? – T.: O'qituvchi, 1993. 11-bet.
4. Muhammadjonova G. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirish metodikasi (5 – 9-sinflar misolida). Ped. fan.nom.diss. avtoref. – T.: 2003. 20 – 24-b.



2-TOM, 4-SON

SURXONDARYO VILOYATI SUV RESURSLARI

Shomirzayeva Z.X.

TerDU kimyo fakulteti talabasi

E-mail: zulfiyashomirzayeva14@gmail.com

Surxondaryo viloyatining ichki suvlari uning sersuv va tezoqar daryolari, soylari va sun'iy suv omborlaridir. Viloyatning eng yirik daryolari Surxondaryo va Sheroboddaryo daryolaridir. Surxondaryo viloyatidagi ko'pchilik daryolar Qashqadaryo va Tojikiston hududidagi baland tog'lardan boshlanadi. Bu daryolar sersuv va tez oqardir. Viloyatdagi daryolar qordan, muzliklar suvidan yomg'ir va yer osti suvidan to'yinadi.

To'polang daryosi Surxondaryoni tashkil qiluvchi sersuv va tezoqar yirik o'ng irmog'idir. Daryoning uzunligi 124 km. havzasi 5217 kv km. suv yig'adigan maydoni 2200 kv. km. Daryo Hisor tizmasining dengiz sathidan 3800 metr balandlikda joylashgan Hazrat Sulton massividagi qor va muzliklardan Qorasuv nomi bilan boshlanib, so'ngra Tamshush nomini oladi va G'ova irmog'ni qo'shib olgach To'palangdaryo deb ataladi. So'ngra unga Shatrut va Dashnobod irmoqlari qo'shiladi. To'palang daryosi asosan qor (umumiy suv hajmining 65 foizi), yer osti suvlari (26 foiz), muz (6 foiz) va yomg'ir (3 foiz) suvlaridan to'yinadi. Daryo yuqori qismida juda tor bo'lib, 5-10 va ba'zan 20-30 metrni, Zarchob qishlog'i yaqinida uning vodiysi 150-200 metrga Sariosiyo qishlog'iga yetganda 2 kmgacha kengayib boradi. To'polang daryosi Hisor tog'larining dengiz sathidan 3800 metr balandlikda joylashgan Hazrat Sulton massividagi qor va muzlardan boshlanadi. Hazrat Sulton massivi mamlakatimizdagi eng baland tog' cho'qqisi hisoblanib uning balandligi 4643 metr balandlikka egadir. To'palangdaryo Surxondaryo havzasidagi eng sersuv daryodir, uning yillik oqimi Surxondaryo havzasining tog'li qismida hosil bo'ladigan oqimning oqimi Surxondaryo havzasining tog'li qismida hosil bo'ladigan oqimning taxminan 44 foizini tashkil etadi. To'polang daryosining suv sarfi uning to'yinish turiga ko'ra o'zgarib boradi.

Sheroboddaryo - Amudaryoning so'ngi yirik irmog'idir. Uning uzunligi 186 km, suv yig'adigan maydoni 2950 kv.kmni tashkil etadi. Daryo Hisor tog'i g'arbiy tizmasining janubiy yonbag'rida joylashgan 2700 metr balandlikdagi Belao'ta dovonidan boshlanadi. Sherobod daryosi Irg'ayli va Qizilsoy daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Daryoga o'ng tomondan Qizilsoy, O'rikli soy, Sariosiyo, Sho'rob, Sayrob, Laylaygonsoy, Maydon, chapdan esa Ko'kamir, Chaqmoq, Jugun, Sharshar kabi irmoqlar qo'shiladi. Daryoning nomi uning yuqori qismida Machaydaryo, Machay qishlog'idan Sherobod shahrigacha



2-TOM, 4-SON

Sheroboddaryo va soʻngra Qorasuv nomi bilan ataladi. Daryoning oʻrtacha yillik suv sarfi sekundiga 7,53 m³ , suvi bahorda va yozning boshlarida koʻpayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Internet maʼlumotlari. <https://uz.sadaalomma.com>.

2. Internet maʼlumotlari.

<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&>

3. Internet maʼlumotlari. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Temir>

4. Рўзиев А. Сурхондарё вилояти. - Тошкент. 1996

5. Зокиров Х.Х. Сурхондарё табиати ва экологияси. Термиз-2021



2-TOM, 4-SON

TERMIZ MEXANIKA ZAVOD ATMOSFERA HAVOSI TARKIBIDAGI NIKEL
(II) IONINI ANALITIK ANIQLASH



Poyonova M.R. - TerDU kimyo fakulteti talabasi

Zikirov S.A. - TerDU o'qituvchisi


E-mail: poyonovamavluda2003@gmail.com

Nikel tuzlarining suyultirilgan eritmaları va kristallgidratları yashil rangli bo'ladi. Bu rang akvakompleks ion - $[\text{Ni}(\text{H}_2\text{O})_6]^{2+}$ ning hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi. Nikel ioni ham cho'ktirish reaksiyalaridan tashqari komplekslanish, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi.


1. O'yuvchi ishqorlar—NaOH va KOH Ni^{2+} ioni bilan kislotalar, ammiak va ammoniy tuzlarida eriydigan yashil rangli $\text{Ni}(\text{OH})_2$ cho'kmasi hosil qiladi:





2. Ammiak eritmasi nikel sulfat bilan $(\text{NiOH})_2\text{SO}_4$ asosli tuzning yashil cho'kmasini hosil qiladi. Agar ammiak eritmasini qo'shish davom ettirilsa, cho'kma mo'l ammiakda erib, ko'k tusli kompleks tuz yuzaga keladi:



3. Natriy yoki kaliy karbonat nikel (II) ioni bilan kislotalar, ammiak va ammoniy sulfid eritmalarida eriydigan yashil rangli NiCO_3 cho'kmasi hosil qiladi:



4. Natriy gidrofosfat nikel (II) ioni bilan kislotalarda, shu jumladan, CH_3COOH eritmasida eriydigan yashil rangli $\text{Ni}_3(\text{PO}_4)_2$ cho'kmasi hosil qiladi. Cho'kma ammiakda eriydi, ammo o'yuvchi ishqorlarda erimaydi:



Reaksiyani bajarishda 1-2 tomchi NiCl_2 eritmasiga 2-3 tomchi Na_2HPO_4 eritmasi tomiziladi. Hosil bo'lgan yashil cho'kma sentrifugada ajratilib, ustiga NaOH eritmasidan 1-2 tomchi tomizilsa, cho'kma erimasligi, bordi-yu ammiak eritmasidan 1-2 tomchi qo'shilsa cho'kmaning erishi kuzatiladi.

5. Dimetilglioksim (Chugaev reaktivi) Ni^{2+} ioni bilan ammiakli muhitda yorqin pushti-qizil rangli cho'kma ichki kompleks birikma hosil qiladi: Bu reaksiya nikel uchun juda seziluvchan bo'lib, topilish minimumi 0,16 mkg, minimal konsentratsiya 3-105 mol/l, suyultirish chegarasi 300000 ni tashkil etadi. Reaksiya tomchi usulida o'tkazilsa, uning



2-TOM, 4-SON

sezuvchanligi yanada oshadi. Reaksiyaga Fe^{2+} (qizil), Cu^{2+} (qizil-qo'ng'ir) ionlari xalaqit beradi. Reaksiyani $\text{pH} \sim 8$ bo'lganda o'tkazish mumkin. Reaksiyani bajarilishi tartibi: Nikel tuzi eritmasining bir tomchisiga suyultirilgan ammiak eritmasidan 2-3 tomchi ta'sir ettirib, unga 3-4 tomchi dimetilglioksim eritmasi tomiziladi. Reaksiyani Na_2HPO_4 shimdirilgan filtr qog'ozda bajarib ko'rsilsa, xalaqit beradigan ionlar bo'lgan taqdirda ham u Ni^{2+} ionini topishga imkon beradi. Reaksiyani o'tkazishda qog'ozga bir tomchi Na_2HPO_4 eritmasi tomiziladi (reaksiya shu tomchi ustida boradi), so'ng hosil bo'lgan nam dog'ning o'rtasiga kapillar uchida tekshirilayotgan eritmadan tegiziladi va yana Na_2HPO_4 eritmasidan bir tomchi tomiziladi. So'ngra dog'ning atrofiga kapillar yordamida dimetilglioksim eritmasi shimdiriladi. Keyin qog'oz ammiakning bug'iga tutiladi. Ni^{2+} ion bo'lsa, pushti rangli halqa hosil boiadi. Agar Ni^{2+} ning miqdori ko'p bo'lsa, dog'ning hammasi pushti rangga bo'yaladi. Na_2HPO_4 reaksiyaga xalaqit beruvchi kationlar bilan ta'sirlashib, dog'ning markazida qoladigan qiyin eruvchan fosfatlar, masalan, FePO_4 hosil bo'ladi. Ko'proq eriydigan nikel (II) fosfat esa dog'ning atrofiga siljiydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Файзуллаев О. Аналитик кимё асослари. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2003.
2. Васильев В.П. Аналитическая химия. В 2 кн. – М.: Дрофа, 2002.
3. Мусакин А.П. Таблицы и схемы аналитической химии. – Л.: Химия, 1979.
4. Алексеев В.Н. Ярим микрометод билан қилинадиган химиявий анализ курси. – Тошкент. Ўқитувчи, 1975.
5. Лурье Ю.Ю. Справочник по аналитической химии. 6-изд., перераб. и доп. – М.: Химия, 1989.
6. Фритц Дж. Шенк Г. Количественный анализ./Пер. с англ. Под ред. Ю.А. Золотова. – М.: Мир, 1978.
7. Пятницкий И.В. Теоретические основы аналитической химии. Киев: Высшая школа, 1978.
8. Миркомилова М. Аналитик кимё. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
9. Gulamova M.T., Turobov N.T., Tojimuhammedov X.S. Kationlarning sifat analizi usullari. Oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari uchun o'quv- metodik qo'llanma –Toshkent
10. Fayzullaev O., Turabov N., Ro'ziev E., Quvatov A., Muhamadiev N. Analitik kimyo. Laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2006, 448 b.
11. Mavlyanov X.N., Analitik kimyo sxema va jadvallarda: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun ma'lumotnoma. BuxDU: Ziyoz Rizograf, 2009 – 276 b.
12. Nasirdinov S.D., Fatxullayeva M., Saydaliyeva A.Q. Analitik kimyo Farmatsiya fakulteti 2 kurs talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-2010
13. K.P. Rasulov Analitik kимё Гафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент 2004, 554 б.



2-TOM, 4-SON

ORGANIK SOCH BO'YOQLARIDAGI XROM (III) IONINI ORGANIK
REAGENTLAR YORDAMIDA ANIQLASH

Xolliyev A.X.-TerDU kimyo fakulteti talabasi
Eshkaraev S.Ch.- TerDU katta o'qituvchisi, k.f. PhD.
E-mail: avazbekxolliyev20@gmail.com

So'nggi paytlarda organik narsalarga ustunlik berish urfga aylandi. Bu, ayniqsa, kosmetikada ko'proq uchraydi. U odatdagidek sochlarda qoladi va ehtimol yuvishda biroz ko'proq vaqt oladi. Chunki organik bo'yoqdan foydalangandan keyin sochlar silliqlashadi va pigmentni yaxshiroq ushlab turadi. Tabiiy pigmentlar xina, basma bo'lib, ular katta molekulalarga ega va soch tolalariga kirish qobiliyati past. Organik bo'yoq bilan bo'yalgandan so'ng sochlar juda silliq, ipakdek mayin bo'ladi, shuning uchun u kamroq hajmli bo'lib tuyilishi mumkin. Darhaqiqat, tabiiy hajm hech qayerga ketmaydi, shunchaki bir-biriga mahkam o'rnashganligi sababli, sochlar ishmaydi va soch turmagi silliqroq ko'rinadi. Ko'proq hajmga erishish uchun maxsus uskunlaradan foydalanish mumkin.

1.O'yuvchi ishqorlar xrom (III) tuzlari bilan kulrang-binafsha yoki kulrang-yashil rangli $\text{Cr}(\text{OH})_3$ cho'kmani hosil qiladi: $\text{Cr}^{3+} + 3\text{OH}^- \rightarrow \text{Cr}(\text{OH})_3\downarrow$

Ishqor mo'l qo'shilganda cho'kma erib ketadi va och yashil rangli xromit eritmasi hosil bo'ladi: $\text{Cr}(\text{OH})_3\downarrow + \text{OH}^- \rightarrow \text{CrO}^{2-} + 2\text{H}_2\text{O}$

Aluminatlardan farqli ravishda xromitlar qaynatilganda parchalanib, yana $\text{Cr}(\text{OH})_3$ cho'kmani hosil qiladi: $\text{CrO}^{2-} + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Cr}(\text{OH})_3\downarrow + \text{OH}^-$

2. Ammiak eritmasi xrom (III) ionini bilan $\text{Cr}(\text{OH})_3$ cho'kmasini hosil qiladi. To'la cho'kish pH~6 bo'lganda amalga oshadi. Ammiakli bufer aralashma muhitida ham to'la cho'kishga erishiladi.

3.Kuchsiz kislotalarning tuzlari xrom (III) ionini bilan gidroliz reaksiyalari tufayli $\text{Cr}(\text{OH})_3$ cho'kmasini hosil qiladi (alyuminiyning shunday reaksiyalariga qarang).

4.Natriy atsetat alyuminiy va temir (III) ionlaridan farqli ravishda xrom (III) ionini hatto eritma qaynatilganda ham cho'ktirmaydi. Al^{3+} va Fe^{3+} ionlar ishtirokida hosil bo'ladigan cho'kma ham xromning to'liq cho'kishini ta'minlamaydi.


5.Natriy gidrofosfat bilan xrom (III) ionini xrom (III) fosfat cho'kmasini hosil qiladi. Hosil bo'lgan cho'kma kislota va ishqorlarda eriydi.

6.Xrom (III) ionini oksidlash natijasida xrom (VI) ionini hosil bo'ladi. Xrom (III) va xrom (VI) ionlarning ranglari har xil bo'lganligi sababli oksidlanish reaksiyasidan xrom (III) ionini topishda foydalanish mumkin. Xrom (III) ionini ishqoriy muhitda oksidlaganda



2-TOM, 4-SON

xromatlar (sariq rangli eritma), kislotali muhitda oksidlaganda esa dixromatlar (to'q sariq rangli eritma) hosil bo'ladi. Ishqoriy muhitda oksidlashda H_2O_2 , Na_2O_2 va bromli suv singari oksidlovchilar ishlatiladi:



Reaksiyani bajarishda 2-3 tomchi xrom (III) tuzi eritmasiga 3-4 tomchi 2 N NaOH, 2-3 tomchi 3 % li H_2O_2 tomizib, eritmaning yashil rangi sariqqa o'tguncha qizdiring.

Kislotali muhitda oksidlash uchun oksidlovchi sifatida nitrat yoki sulfat kislota ishtirokida $KMnO_4$, $(NH_4)_2S_2O_8$ yoki $NaBiO_3$ qo'llanadi. Bunda nitrat kislotali eritmada yashil yoki binafsha rangli eritma to'q sariq rangga kiradi: $Cr(NO_3)_3 + 3NaBiO_3 + 4HNO_3 \rightarrow Na_2Cr_2O_7 + NaNO_3 + 3Bi(NO_3)_3 + 2H_2O$ Reaksiyani bajarish uchun 2-3 tomchi xrom (III) nitrat yoki sulfat eritmasiga 3-4 tomchi 2 N H_2SO_4 , 6-7 tomchi $(NH_4)_2S_2O_8$ eritmasi tomizib, qizdirganda dixromat hosil bo'ladi. Reaksiyada katalizator sifatida 1 tomchi kumush eritmasi ishlatilsa, reaksiya tezlashadi. Sulfat kislota bilan almashtirish mumkin.

Kislotali muhit hosil qilish maqsadida qaytaruvchilik xossalarini namoyon qiladigan xlorid kislota, xrom tuzi sifatida esa xrom (III) xloridni ishlatib bo'lmaydi. Xrom (VI) ionining borligi yoki hosil bo'lganligini baholashda tekshiriladigan aralashmaga $BaCl_2$ eritmasi tomiziladi, bunda $BaCrO_4$ ning sariq cho'kmasi hosil bo'ladi: $Ba^{2+} + CrO_4^{2-} \rightarrow BaCrO_4 \downarrow$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Файзуллаев О. Аналитик кимё асослари. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2003.
2. Васильев В.П. Аналитическая химия. В 2 кн. – М.: Дрофа, 2002.
3. Мусакин А.П. Таблицы и схемы аналитической химии. – Л.: Химия, 1979.
4. Алексеев В.Н. Ярим микрометод билан қилинадиган химиявий анализ курси. – Тошкент. Ўқитувчи, 1975.
5. Лурье Ю.Ю. Справочник по аналитической химии. 6-изд., перераб. и доп. – М.: Химия, 1989.
6. Фритц Дж. Шенк Г. Количественный анализ. /Пер. с англ. Под ред. Ю.А. Золотова. – М.: Мир, 1978.
7. Пятницкий И.В. Теоретические основы аналитической химии. Киев: Высшая школа, 1978.
8. Миркомилова М. Аналитик кимё. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
9. Gulamova M.T., Turobov N.T., Tojimuhammedov X.S. Kationlarning sifat analizi usullari. o'quv- metodik qo'llanma –Toshkent



2-TOM, 4-SON

TUPROQ TARKIBIDAGI ALYUMINIY(III) IONINI ORGANIK REAGENTLAR
YORDAMIDA ANIQLASH

Xurramov A.B. - TerDU kimyo fakulteti talabasi
Eshkaraev S.Ch. - TISU katta o'qituvchisi, k.f. PhD.
E-mail: azizbekxurramov5302@gmail.com

Tuproq(qum) — litosfera yuza qavatlarining suv, havo va tirik organizmlar ta'sirida o'zgarishidan shakllanadigan va genetik jihatdan o'zaro bog'liq gorizontlardan tashkil topgan tabiiy tuzulma; Yer po'stlog'ining yuza va unumdor qatlami. Tuproqning nuragan tog' jinslaridan farq qiladigan eng muhim xususiyati — unumdorligidir. 5gr tuproq tarkibidagi Al (III) ionini aniqlashda EDTA dan foydalanib 0,8 gr natija olindi.

Alyuminiy kationining reaksiyalari

1. O'yuvchi ishqorlar alyuminiy ionini bilan ta'sirlashganda avval oq rangli $Al(OH)_3$ cho'kmasi hosil bo'lib, ishqor eritmasidan ko'proq qo'shilsa, alyuminiy va alyuminiy gidroksidning amfoterligi tufayli cho'kma erib ketadi:



ni to'la cho'ktirishda eritmaning pH qiymati 5 atrofida bo'lishi kerak. Alyuminiy va $Al(OH)_3$ cho'kmasining amfoterligini tekshirish uchun ko'proq ishqor qo'shib, hosil bo'lgan eritmaga tomchilatib suyultirilgan xlorid kislotasi eritmasi qo'shilsa, avval $Al(OH)_3$ cho'kmasi hosil bo'ladi, so'ngra ko'proq kislotasi qo'shilsa, u erib ketadi:



Reaksiyani bajarish uchun 4-5 tomchi alyuminiy tuzi eritmasiga 1 tomchi 2 N NaOH eritmasini tomizing. Hosil bo'lgan loyqa eritmaning bir qismini olib, unga xlorid kislotasi eritmasidan bir necha tomchi tomizib, loyqaning erib ketishini kuzating. Loyqa eritmaning ikkinchi qismiga ham bir necha tomchi ishqor eritmasidan tomizib ko'ring. Bunda ham loyqa erib ketadi.

2. Alizarin (dioksiantraxinon) – $C_{14}H_6O_2(OH)_2$ alyuminiy tuzi va ammiak eritmasi bilan qaynatilganda, to'q sariq-qizil rangli ichki kompleks birikma - «alyuminiyli alizarin loki»ni hosil qiladi: Alyuminiyli lok sirka kislotada erimaydi. Eritma sovigach, cho'kmaga biroz sirka kislotasi qo'shilsa, rang intensivligining pasayishini kuzatish mumkin. Reaksiyani bajarilishi. Probirkaga 2 tomchi alyuminiy tuzi eritmasi va 3 tomchi ammiak eritmasi tomizib hosil qilingan $Al(OH)_3$ cho'kmasiga yangi tayyorlangan alizarin eritmasidan ham bir necha tomchi tomiziladi. Aralashma qaynatilganda cho'kma hosil bo'ladi. Yaxshi natijaga erishish uchun reaksiyani tomchi usulida bajarish maqsadga




2-TOM, 4-SON

muvofiq. Masalan, tekshiriladigan eritmaning bir tomchisi filtr qog'oziga tomiziladi va chinni kosacha ustida ammiak bug'lari bilan ishlanadi. Natijada filtr qog'ozida hosil bo'lgan $\text{Al}(\text{OH})_3$ dog'i alizarinning spirtidagi eritmasi bilan ho'llanib, yana ammiak bug'lari bilan ishlansa, qizg'ish alyuminiyli lok hosil bo'lganini ko'ramiz. Agar filtr qog'ozini quritilsa, rang yanada sezilarli ko'rinadi. Bunday reaksiyaga temir, marganets, uranil va xrom kirishib, rangli alizarin loklarini hosil qiladi. Bu ionlarni cho'ktirib ajratish uchun filtr qog'ozini avval $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ eritmasi bilan ho'llanadi va asta quritiladi. So'ngra filtr qog'oziga aralashmadan bir necha tomchi tomizilsa, ferrosianid ta'siridan cho'kadigan uchinchi guruh kationlari nam dog'ning markazida qoladi. Alyuminiy ioni esa diffuziya tufayli dog'ning chetiga suriladi. Agar dog'ning chetlari alizarinning spirtli eritmasi bilan ishlansa, sariq-qizil rangli alyuminiyli alizarin lokining hosil bo'lganini ko'ramiz.

3. 8-oksixinolin – $\text{C}_9\text{H}_6\text{N}(\text{OH})$ pH=5 bo'lganda (atsetatli bufer aralashma ishtirokida) sag'ish- yashil alyuminiy oksixinolyat kristallari hosil qiladi:

4. Kobalt (II) nitrati bilan reaksiyasi. Kobalt nitratni alyuminiy tuzlari bilan kuydirilishi natijasida «Tenar ko'ki» deb ataluvchi ko'k rangli kobalt alyuminatni hosil qiladi:



Reaksiyani bajarilishi: Filtr qog'oziga tartib bilan 1-2 tomchidan alyuminiy va kobalt nitrati tuzlari eritmasidan tomiziladi. Qog'oz quritiladi va yondiriladi. $\text{Co}(\text{AlO}_2)_2$ ning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan.



2-TOM, 4-SON

ORGANIK BO'YOQLAR TARKIBIDAGI KUMUSH IONINI ORGANIK
REAGENTLAR YORDAMIDA ANIQLASH

Yunosov X.J.-TerDU kimyo fakulteti talabasi



Bozorov L.U.- TerDPI dotsenti, t.f. PhD.

E-mail: xurshidbekyunusov107@gmail.com

Bo'yoqlar — maydalangan mineral yoki organik pigmentlarning alifmoy, lok va boshqa bog'lovchilardagi suspenziyalari. Bo'yaluvchi buyumlarni yemirilishdan (yog'ochni chirishdan, metallni zanglashdan) saqlaydi, shuningdek ularga kurkam, chiroyli tus beradi. Tarkibi va maqsadiga qarab, bo'yoq materiallari quyidagilarga bo'linadi: bo'yoqlar (shu jumladan emal bo'yoqlari), laklar, laklar, astarlar, shlaklar. Bo'yoqlar va emallar rang va yashirish kuchiga ega, laklar shaffof rangsiz yoki rangli plyonka beradi. Ushbu murakkab bo'yoqlar tarkibidagi kumush ionini analitik usullar bilan aniqlash uchun ularning mavjud xossalarini o'rganish. Kumush aniqlashda organik reagentdan 8-oksixinolindan foydalaniladi. Bu jarayon amalga oshirilganda 0.5 gr kumush ionini aniqlangan.


Ag⁺ kationining analitik reaksiyalari. Kumush ionini suvli eritmada rangsiz, uning nitrati, fluoridi, perxlorati suvda yaxshi eriydi. Diqqat! Kumush eritmasi bilan ishlanganda ehtiyotkorlik talab etiladi, kumush tuzlari zaharli!

1. O'yuvchi ishqorlar - NaOH va KOH eritmalaridan bir necha tomchisi 2-3 tomchi AgNO₃ eritmasiga tomizilsa, qo'ng'ir rangli Ag₂O cho'kmasi hosil bo'ladi:



Cho'kmani ammiakda eritish vaqtida eritmaga albatta ammoniy tuzlaridan biri qo'shilishi kerak, aks holda oson portlaydigan kumush azid Ag₃N hosil bo'lishi mumkin.

2. Ammiak eritmasi kam miqdorda qo'shilganda kumush ionini bilan oldin qo'ng'ir rangli Ag₂O cho'kma hosil qiladi. Keyin bu cho'kma mo'l ammiakda kompleks hosil qilib erib ketadi:



3. Natriy yoki kaliy karbonat ta'siridan kumush ionini kumush karbonat cho'kmasini hosil qiladi: 2Ag⁺ + Na₂CO₃ → Ag₂CO₃↓ + 2Na⁺

4. Xlorid kislotaning 3-4 tomchi eritmasi 3-4 tomchi AgNO₃ eritmasiga qo'shilsa, oq rangli AgCl cho'kmasi hosil bo'ladi: AgNO₃ + HCl → AgCl↓ + HNO₃ Ag⁺ + Cl⁻ → AgCl↓



2-TOM, 4-SON


AgCl cho'kmasining suyultirilgan kislotalarda erimasligini biz yuqorida ko'rsatib o'tgan edik. Cho'kmaga 5-6 tomchi NH₃ eritmasi qo'shilganda, cho'kma kompleks hosil qilib erib ketadi. Olingan eritmaga HNO₃ ta'sir ettirilganda kompleks parchalanib, yana AgCl cho'kmasi hosil bo'ladi. 5. Vodorod sulfidning 3-5 tomchi eritmasi 2-3 tomchi AgNO₃ eritmasiga aralastirilganda, qora rangli Ag₂S cho'kma tushadi: $2AgNO_3 + H_2S \rightarrow Ag_2S \downarrow + 2HNO_3$ Cho'kma HCl va H₂SO₄ da erimaydi, 2 N HNO₃ da esa eriydi.

6. Kaliy xromat 2-3 tomchi AgNO₃ eritmasiga shuncha miqdorda tomizilsa, qizil rangli Ag₂CrO₄ cho'kma hosil bo'ladi: $2AgNO_3 + K_2CrO_4 \rightarrow Ag_2CrO_4 \downarrow + 2KNO_3$.

$2Ag^+ + CrO_4^{2-} \rightarrow Ag_2CrO_4 \downarrow$ Cho'kma CH₃COOH da erimaydi, NH₄OH va HNO₃ da eriydi.

7. Kaliy yodidning 3-4 tomchi eritmasi 2-3 tomchi AgNO₃ eritmasiga qo'shilca, sarg'ish cho'kma hosil bo'ladi: $AgNO_3 + KJ \rightarrow AgJ \downarrow + KNO_3$ Cho'kma NH₄OH da erimaydi, Na₂S₂O₃ da yaxshi eriydi. Xuddi shunday reaksiya bromidlar ta'sirida ham kuzatiladi.

8. Kumush ionini metalgacha qaytarishda turli qaytaruvchilardan foydalaniladi. 1) Formaldegid yoki boshqa aldegid ta'sirida qaytarish uchun xromli aralashma yordamida yog'lardan tozalangan probirkaga 4-5 tomchi kumush tuzi eritmasi solinib, unga 10-12 tomchi suv qo'shib suyultiriladi. So'ngra eritmaga 8-10 tomchi 2 N ammiak eritmasi va 5-7 tomchi formalin eritmasi qo'shiladi. Issiq suv hammomiga tushirganda probirkaning ichki devonda kumush ko'zgu hosil bo'lishini ko'ramiz:



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Файзуллаев О. Аналитик кимё асослари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2003.
2. Васильев В.П. Аналитическая химия. В 2 кн. – М.: Дрофа, 2002.
3. Мусакин А.П. Таблицы и схемы аналитической химии. – Л.: Химия, 1979.
4. Алексеев В.Н. Ярим микрометод билан қилинадиган химиявий анализ курси. – Тошкент. Ўқитувчи, 1975.
5. Лурье Ю.Ю. Справочник по аналитической химии. 6-изд., перераб. и доп. – М.: Химия, 1989.
6. Фритц Дж. Шенк Г. Количественный анализ./Пер. с англ. Под ред. Ю.А. Золотова. – М.: Мир, 1978.
7. Пятницкий И.В. Теоретические основы аналитической химии. Киев: Вища школа, 1978.



2-TOM, 4-SON

8. Миркомилова М. Аналитик кимё. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

9. Gulamova M.T., Turobov N.T., Tojimuhammedov X.S. Kationlarning sifat analizi usullari. Oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari uchun o'quv- metodik qo'llanma –Toshkent

10. Fayzullaev O. Turabov N., Ro'ziev E., Quvatov A., Muhamadiev N. Analitik kimyo. Laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2006, 448 b.

11. Mavlyanov X.N., Analitik kimyo sxema va jadvallarda: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun ma'lumotnoma. BuxDU: Ziyozigraf, 2009 – 276 b.

12. Nasirdinov S.D., Fatxullayeva M., Saydaliyeva A.Q. Analitik kimyo Farmatsiya fakulteti 2 kurs talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent-2010



2-TOM, 4-SON

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI

Xusniddinova Sitora Mixriddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarga chet tillarini o'qitishda o'yinlardan foydalanishning samarali usullari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: interfaol o'yinlar, interaktiv metodlar, kley ushlash, passiv o'quvchi, o'yin qahramoni, musiqa.

Bugungi kunda yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyojlar ortib bormoqda. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassalaridan boshlab bolalarga xorijiy tillarni o'qitish yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z navbatida xorijiy til o'qituvchisiga bo'lgan ehtiyojni ham oshiradi. Xorijiy tillarga, xususan, ingliz tiliga bo'lgan talab avvalgiga nisbatan keskin o'sdi. Istalgan chet tilini olaylik, ularni o'rgatishda turli xil interfaol o'yinlardan foydalanish bolalarning tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va ularning faolligini ta'minlaydi. Hozirgi kunda bog'chalarda, maktablarda, oliy ta'lim muassasalarida keng ko'lamda zamonaviy texnika vositalaridan foydalanib kelinyapti bu esa darsning qiziqarli o'tilishini, tallafuz va eshitish ko'nikmasini oshiradi. Maktablarni misol tariqasida oladigan bo'lsak, odatda darslar an'anaviy shaklda olib boriladi. Bu ko'pincha bolalarni zerikib qolishiga va diqqatining darsda bo'lmasligiga olib keladi. Shuning uchun darslarni yanada qiziqarli tashkillashtirishning eng samarali usullaridan biri, bu darsda turli xil interaktiv metodlardan va o'yinlardan foydalanish. Bu uslub darsda faol bo'lmagan o'quvchilarning ham ishtirokini oshirish orqali tilga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi. Darsda barcha: faol va nafaol o'quvchilarning e'tiborini birdek jalb qila olish talab qilinadi.

Rivjolanayotgan har qanday mamlakatda xorijiy tillarni bilish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib boryapti. Bunga sabab davlatlar bilan turli sohalarda hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilishi va xalqaro aloqlarni mustahkamlash. Shu sababli ham hozirgi kunda yoshlarning biror-bir xorijiy tilni bilishi davr talabiga aylanib bormoqda. Til bilish avvalo, yoshlarning o'ziga foyda bo'lsa, boshqa tomondan jamiyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Shu jumladan til o'rganibgina qolmasdan chet el hayotini, ularning madaniyatini, urf-odatlarini o'rganadi. Bir so'z bilan aytganda, til bilgan-el biladi!

Ingliz va koreys tillarini o'rgatishda bir qancha qiziqarli o'yinlar mavjud bo'lib, quyida ulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz. Hozirgi kunda maktablarda darsliklar



2-TOM, 4-SON

bir muncha murakkablashgan bo'lib, listening(tinglab tushunish),reading(o'qib tushunish),speaking(gapirish),writing(yozish)kabi 4bosqichni o'z ichiga oladi. Darslar shu 4bosqich asosida tashkillashtiriladi va o'tiladi. Bu yondashuv endigina xorijiy tilni o'rganayotgan o'quvchiga biroz qiyinlik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun dars davomida qiziqarli o'yinlardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Qo'shimcha chet tilini o'rganayotgan o'quvchiga darsliklar qiyinchilik tug'dirmasligi mumkin,lekin hech qanday qo'shimcha mashg'ulot bilan shug'ullanmaydigan o'quvchiga qiyin va zerikarli tuyiladi. Darsning o'zida dars va o'quvchi samaradorligi oshishi uchun dars davomida qiziqarli o'yinlardan foydalanish bu xorijiy tillarni o'rganishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Quyida chet tili darslarida darsni qiziqarli o'tishda foydalanish uchun bir nechta o'yinlarni birgalikda ko'rib chiqamiz:

1. "Qadam tashlash" o'yini(TAKE A STEP): o'qituvchi tomonidan kerakli mo'ljal aytiladi,ya'ni qayerdan qayergacha o'quvchilar har bir topgan so'zlari orqali qadam tashlab yetib borishlari kerakligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Ushbu o'yindan istalgan chet tilini o'rgatishda foydalanish mumkin. Bu o'yinda o'quvchilar uyga vazifa sifatida berilgan so'zlarni yod olib kelgan bo'lishlari kerak bo'ladi. Bu usul esa o'qituvchi tomonidan uyga vazifani qiziqarli uslubda so'rash usullaridan biri hisoblanadi. Doskaga 3ta yoki 4ta o'quvchi chiqishi kerak. Uyga vazifaga 10-15ta so'z berilgan bo'lsa, ularni aralashtirib so'raladi. Savollar har bir o'quvchiga alohida yoki bitta beriladi. Bu o'qituvchining xohishiga qarab bo'ladi. Bitta savolga javob bergan o'quvchi bitta qadam tashlaydi topa olmagan o'quvchi esa qadam tashlamaydi va o'yin shu tariqa davom etadi. Har bir topilgan javob uchun bittadan qadam tashlab boriladi. Topa olmagan savollar uchun esa qadam tashlanmaydi. Marraga yetib borgan o'quvchi g'olib deb topiladi.

2. "Kley ushlab" o'yini (GLUE GRIP):bu o'yin o'tirgan holatda o'ynaladi. O'qituvchi tomonidan biror inglizcha qo'shiq qo'yiladi,musiq 5-10 sekund davom etadi va o'quvchilar o'tirgan holatlarida kleyni bir-birlariga uzatishadi. Musiq to'xtatiladi. O'sha paytda kley kimning qo'lida qolgan bo'lsa, shu o'quvchi" o'yin qahramoni"hisoblanadi va bu o'quvchidan inglizcha so'z so'raladi yoki biror-bir shu paytgacha yod olingan she'r yoki musiqani aytib berishi kerak bo'ladi. Aytib bera olmagan o'quvchi o'yindan chetlatiladi. O'yin qolgan o'quvchilar bilan davom ettiriladi. Bu o'yin turi guruh bo'lib ishlanishi kerak bo'lgan o'yin turi hisoblanadi. O'qituvchi tomonidan barcha o'quvchining e'tiborini jalb qila olish talab qilinadi. Passiv o'quvchilarni ham shu tariqa chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.



2-TOM, 4-SON

3. Ranglarni ko'rsat!(SHOW THE COLORS)-ushbu o'yin chet tilini endi o'rganishni boshlayotgan o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali o'yin hisoblanadi. Bunda bizga rangli qalamlar kerak bo'ladi. Masalan,qizil qalamni ko'tarib, "RED" , sariq qalamni ko'tarib, "YELLOW"deb aytiladi. Shu tariqa barcha ranglar bolajonlar bilan birgalikda aytib chiqiladi. O'quvchilar o'qituvchining ortidan takrorlashadi. Shunday qilib, bir necha bor, ya'ni esda qoladigan darajda bo'lgunicha 2-3marta ranglar takrorlanadi. Endi deyarli bolajonlar ranglarni esda saqlab qolishgan bo'lishadi,bunda o'qituvchi rangli qalamlarni ko'rsatib, o'quvchilardan so'raydi. Faqat ular javob berishlari kerak bo'ladi,ya'ni o'qituvchining yordamisiz. Topa olishmagan taqdirda o'qituvchining o'zi tomonidan aytiladi. Darsning so'nggida ranglarni yod olish uyga vazifa sifatida beriladi. Keying safar rangli qalamlar bilan ishlash tezlashadi. O'qituvchi tez-tez rangli qalamlarni ko'tarib ko'rsatadi o'quvchilarga o'ylab olish uchun vaqt berilmaydi. Shu tariqa o'quvchilarning esda qolish tezligi va so'z yodlash samaradorligi oshadi.

Kichik yoshdagi bolalarga ko'rgazmali qurollarsiz dars tushuntirish bir muncha qiyin bo'lganligi sababli dars jarayonlarida o'qituvchining qo'lida albatta ko'rgazmali qurol bo'lishi kerak. Pedagog bo'lishni istagan har bir kadr o'z sohasiga sidqidildan yondoshishi kerak. Va albatta kreativ,ya'ni yaratuvchan bo'lishlari kerak. Har safar turli xil didaktik vositalardan, xilma-xil o'yinlardan foydalanishi kerak. Hozirgi kunda inertnet resurslarida foydali ma'lumotlar juda ko'p bo'lganligi sababli unumli foydalanishni bilishlari kerak.

4. Tez aytsih(TONGUE TWISTERS)- tez aytishdan samarali foydalanish usuli bolalarning nutqini ravon qilishda katta ahamiyatga ega. Ushbu o'yinda bizga kamida 2ta o'quvchi yetarli bo'ladi. O'qituvchi o'quvchiga tez aytish aytirish orqali ularning talaffuzini oshirishga va so'zlarni bir-biriga qo'shib aytishga qiynalmasligiga erishadi. Ba'zi o'quvchilar qaysidir harfni chiqarib berishga qiynalishi mumkin. Bunga sabab qo'rquv, stress holatida bo'lishi yoki nutqida tug'ma nuqsoni borligi sababli ba'zi harflarning talaffuzida qiynalishi va yoki bo'g'inlarni bir-biriga qo'sha olmaslikda qiynalishi mumkin. Mana shunday holatlarda malakali pedagog bolaning ruhiyati bilan izchillikda ishlay olishi kerak bo'ladi. Bunday o'yinlarni turli ko'rinishda davom ettirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, har qanday o'quvchi bilan ishlashda uning ruhiyatini hisobga olgan holatda darsga o'ziga xos uslubda yondoshish kerak. Va bir xillikdan qochish kerak. Hozirgi yosh avlod texnika eng rivojlangan davrda voyaga yetib kelmoqda. Shuning uchun har bir pedagog kreativ ruhda darsni tashkillahstirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Sinfda bellashuv ruhini yarata olish kerak. Raqoabt bor joyda yuksalish



2-TOM, 4-SON

bo'ladi. Har bir pedagog o'z ustida tinimsiz ishlashi, o'z sohasida yangiliklar yaratishga intilishi kerak. Har qanday davrda ham malakali mutaxassislarga talab kuchli bo'laveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalolov J.J. Chet tilo, qitish metodikasi. T.:2012
2. N. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma).



2-TOM, 4-SON

ПИЛЛАЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ВА ДАСТЛАБКИ ИШЛАШДА САҚЛАШ,
ТАШИШ ИДИШЛАРИНИ АҲАМИЯТИ

Н.М.Исламбекова,
А.М.Махамадхонов,
М.М.Мўйдинова

Аннотация Пилла ҳосилини йиғиштириб олиш ва уни дастлабки ишлаш жараёнларини механизациялашни такомиллаштириш мақсадида пилла қобиғининг яхлитлигини ва технологик хоссаларини сақлаш учун тирик пиллани йиғиш ва дастлабки ишлаш технологиясида таклиф этилган қаттиқ идишлар кўриб чиқилиб уларнинг афзалликлари ва камчиликлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: тирик пилла, дастлабки ишлаш, йиғиш, сақлаш, қуриштириш, пилла қобиғи шикастланиши, қаттиқ идишлар, ташиш.

Аннотация В целях совершенствования механизации уборки кокона и процессов его первичной обработки, с целью сохранения целостности и технологических свойств оболочки кокона рассмотрены твердые тары, предлагаемые в технологии сбора и первичной обработки живого кокона, а также были проанализированы их преимущества и недостатки.

Ключевые слова: живые коконы, первичная обработка, сбор, хранение, сушка, повреждение оболочки коконов, твердая тара, транспортировка.

Annotation. In order to improve the mechanization of cocoon harvesting and the processes of its primary processing, in order to preserve the integrity and technological properties of the cocoon shell, solid containers proposed in the technology for collecting and primary processing of living cocoons, as well as their advantages and disadvantages, are considered. shortcomings were analyzed.

Key words: live cocoons, primary processing, collection, storage, drying, damage to the cocoon shell, solid containers, transportation.

Кириш. Халқ хўжалигининг бошқа тармоқлари қатори ипакчилик ҳам йилдан-йилга ривожланиб бормоқда. Табиий ипакдан ипак газламалари ишлаб чиқариш учун хомашё ҳажмини оширишнинг асосий захираларидан бири бу – ипак хомашёси ҳосилдорлигини ошириш ва уларни чувишда пилла қобиғидан максимал даражада фойдаланиш бўлиб, бу кўп жиҳатдан ишлатиладиган пиллаларни қуриштириш усулига боғлиқ. Ипакчилик саноатининг техник-иқтисодий кўрсаткичларига тирик пиллани етиштириш ва дастлабки ишлаш сифати сезиларли даражада таъсир кўрсатади.



2-TOM, 4-SON

Уларни амалга ошириш жараёнида пилла қобиғининг табиий хусусиятларини сақлаб қолиш, минимал чиқиндилар билан юқори даражада чувалувчанлик, хомашёнинг шикастланиши ва ифлосланишини олдини олиш керак. Дунёда пилла етиштириш ва ипак ишлаб чиқариш алоҳида ўрин тутиб, Хитой, Ҳиндистон, Ўзбекистон, Эрон, Таиланд, Вьетнам, Шимолий Корея, Бразилия, Франция каби давлатлар бу соҳада етакчи мамлакатлар ҳисобланади [1]. Ипакчилик саноатини изчил ва барқарор ривожлантириш, нафақат корхоналарда замонавий технологияларни жорий этиш, балки жорий этилган асбоб-ускуналардан самарали фойдаланишни ташкил этиш, маҳсулот кўримлилигини ошириш, янги миллий брендларни яратиш жаҳон бозорида рақобатбардош маҳсулотлар билан савдо қилишга эришиш билан чамбарчас боғлиқ [2, 3].

Асосий қисм. Тирик пиллалар қобиғининг сақланганлик сифат кўрсаткичлари пилла чувиш корхоналарида уларни ипак хомашёсига қайта ишлашда катта аҳамиятга эга. Хом ипакни ишлаб чиқариш учун хомашёни тайёрлаш жараёнида энг муҳим операцияларга тирик пиллани йиғиш, ташиш ва дастлабки ишлаш киради. Пилла ҳосилини йиғиштириб олиш даври 10–20 кун давом этади. Асосий етиштириш марказларида 20–25 км радиусли ҳудудларни қамраб олган таъминот марказлари ташкил этилади. Ипак қурти етиштирувчилар тайёрлов пунктларига пиллаларни нотекис олиб келишади, мавсум ўрталарида ҳосил максимал даражага етади. Ипак қурти етиштирувчилар томонидан тайёрлов пунктларига етказиб берилган пиллалар тайёрлов пунктининг крават деб аталадиган идишларга тўкилади, кўриқдан ўтказилади, лаборатория текшируви учун намуналар олинади ва тортилади. Бу идиш оёқчали рамка қутиси бўлиб, ўлчамлари бир хил узунликдаги мато билан қопланган: узунлиги 1,75 м, кенглиги 1 м ва баландлиги 0,2 м. Кейин пиллалар 0,75 м кенгликдаги шийпонлар остига алоҳида жўяклар кўринишида тўкилади [4]. Жўяклардаги ҳаво кучсиз шамоллатилиши туфайли пилла қатламлари қизийди, бундан ташқари, шийпонлар остидаги пиллаларни қабул қилиш ва тўлдириш билан боғлиқ кўплаб жараёнлар қўлда бажарилади. Натижада пилланинг салмоқли қисми эзилади. Бу пилланинг технологик кўрсаткичларини сезиларли даражада пасайтиради. Одатда пиллалар дастлабки ишлаш базасига 960 мм х 600 мм х 500 ўлчамдаги ва 40 кг тирик пилла сифмига эга бўлган, ичи мато билан қопланган, тўртбурчак қутиларида, юк машиналарида келтирилади. Қутиларни юклаш ва тушириш қўлда амалга оширилади. Пиллаларни дастлабки ишлаш асосида қутилардаги пиллалар яна жўякларга ёйилади. Бу ерда, ҳатто тайёрлов пунктларига қараганда кўпроқ даражада, пиллалар пастки ва ички қатламларда иситилади. Тўкиш



2-TOM, 4-SON

Йиғиш пайтида доғли, нуқсонли пиллалар ёндош пиллаларни фаол равишда ифлослантиради. Тайёрлов станциялари ва дастлабки ишлаш базаларида юк ортиш-тушириш ишларида оғир қўл меҳнатининг кенг қўлланилиши баъзан пиллачиликка бепарволик билан муносабатда бўлинмокда. Ҳозирги пайтда пиллани дастлабки ишлаш базаларига олиб келинаётган пиллалар белгиланган тартибда СК-150К қуритиш агрегатининг таъминлаш конвейерига берилади. Белгиланган қуритиш агрегати турли хил ҳаво ҳароратига эга бўлган кўп конвейерли қуритгичдир. Пиллалар қуритиш агрегатидан чиққандан сўнг, улар қопларга жойланади. Агрегатлар тўлиқ қуритиш режимида ишлаганда пиллалар омборга жўнатилади, агрегат ярим қуритиш режимида ишлаганда эса пилла қуритгичдан чиққандан сўнг сояли қуритишда қуритиб олинади. Пилланинг нисбий намлиги 10–12% га етганда, улар қопларга солинади ва омборга, ундан кейин ипак чувиш фабрикаларига юборилади. Омборларда пилла солинган қоплар 8–9 қаторга қўйилган ҳолда сақланади, бу эса пилла қобиғининг деформациясига олиб келади [5,6]. Шундай қилиб, пиллани йиғиштириб олиш, ташиш ва қуритиш, шунингдек, қуруқ пиллани омборларда сақлаш технологик жараёнининг мавжуд ташкил этилиши кўп марта кўчириб ўтказиш ва юқори меҳнат сарфи билан боғлиқ бўлиб, 1 тонна тирик пиллалар маҳсулоти учун 25–30 киши/соатга етади. Бундан ташқари, мавжуд дастлабки ишлаш усулларида фойдаланиш пилла сифат кўрсаткичларининг сезиларли даражада ёмонлашиши билан боғлиқ бўлиб, бу ипакчилик саноатининг иқтисодий кўрсаткичларини пасайтиради. Юқоридагиларга шуни қўшимча қилиш керакки, ҳозирда пилла ҳосилини йиғиштириб олиш, дастлабки ишлаш ва сақлаш учун фойдаланилаётган идишлар талабга жавоб бермайди ва ишлаб чиқаришдаги технологик жараёнларни самарали механизациялаш имконини бермаяпти. Бинобарин, бу йўналишда олиб борилаётган ишлар долзарб аҳамиятга эга бўлиб, халқ хўжалигида катта самара беради. Пилла ҳосилини йиғиштириб олиш ва уни дастлабки ишлаш жараёнларини механизациялашни такомиллаштириш йўналишида Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти “Ипак технологияси” кафедраси ходимлари ва ипакчилик корхоналари бир қатор муҳандис-техник ходимлари томонидан бир қатор тадқиқотлар олиб борилди [7]. Пилла қобиғининг яхлитлигини ва технологик хоссаларини сақлаш мақсадида ипакни қайта ишлаш фабрикаси ва ишчилари томонидан тирик пиллани йиғиш ва дастлабки ишлаш технологиясида каттик идишлардан фойдаланиш тавсия этилди (8). Унинг моҳияти шундан иборатки, тирик пиллалар билан олиб бориладиган барча операциялар пиллани олиб келишдан то қуритилгунга қадар тўғридан тўғри махсус қутиларда амалга оширилади, улар



2-TOM, 4-SON

пилла қобикларини шикастланишдан ҳимоя қилади ва кўп марта ўтказиш, аралаштириш ва оғир қўл меҳнатидан фойдаланишни истисно қилади. Улар тавсия этилган ёғоч қутилар ўлчамлари 0,6 x 0,5 x 0,4 метр бўлган, мато билан қопланган, бир қути сиғими 20 кг. Бироқ, ёғоч қутилар амалий ва эстетик бўлмаганлигини исботланди. Шунинг учун улар ёғоч яшиқлар билан бир хил ўлчамдаги рамка типидagi металл тешикли қутилардан фойдаланишни бошладилар. Корхоналарда тажриба асосида қаттиқ идишлар ишлаб чиқаришнинг йўлга қўйилиши ипак хомашёси ҳосилдорлигини 1,6 %га оширди, ҳар бир килограмм маҳсулот учун хомашё таннархини камайтириш, нуқсонли доғли пиллалар миқдорини 1,8–2% га камайтириш имконини берди, эзилган пиллалар 8–10 баробар, тайёрлов станциялари ва пиллани дастлабки ишлаш базаларига хизмат кўрсатувчи ишчиларнинг меҳнат унумдорлигини 5–6 баробар ошди. Илмий текшириш институтлари томонидан тавсия этилган тўрли металл идишларни харид қилиш марказлари томонидан синовдан ўтказишда ушбу контейнер оғирлиги, йиллик бўяшни талаб қилиши, доимий таъмирлашга муҳтожлиги ва сақлаш учун ноқулай эканлиги аниқланди. Пилла чувиш комбинати металл қувурлардан йиғма яшиқларни тавсия қилдилар, у ғилдираклардаги ром типидagi қути бўлиб, мато билан қопланган. Бу идишлар куруқ пиллани қуритгандан кейин сақлаш ва ташиш учун мўлжалланган. Пилла қуритилганидан сўнг дастлабки ишлаш асосида пилла идишларга солинади, тортилади, қутиларга солинади, муҳрланади ва ипак ўраш корхоналарига жўнатилгунга қадар сояли хоналарда сақланади. Ипак ўраш фабрикаларининг омборларида идишларни тушириш ва йиғиш электр юклаш мосламаси ёрдамида амалга оширилади. 8–10 қатор баландликда штабиллашга рухсат этилади. Экспериментал пилла чувиш натижалари шуни кўрсатдики, ипак хомашёсининг чиқиши 0,7% га ошган, машинанинг унумдорлиги эса назоратга нисбатан 2% га юқори. Идишнинг оғирлиги ва структуранинг шакли туфайли ишлаб чиқаришда фойдаланилмади.

Хулоса. Ипак пилласини йиғиштириб олиш, ташиш ва сақлаш учун рационал контейнерларни ишлаб чиқиш бўйича олиб борилаётган барча ишларни таҳлил қилиб, қуйидаги зарур талаблар аниқланди: идишнинг шакли, дизайни ва сиғими пилланинг юқори табиий хоссаларини сақланишини таъминлаш керак; хавонинг етарли даражада аэрацияси, пилланинг ҳаддан ташқари қизиқ кетишининг олдини олиш ва пилланинг юқори қатламлари босимдан пастки қатламларнинг эзилмаслигини таъминлаш керак; идиш материали пилла қобиғига зарарли таъсир кўрсатмаслиги ва пилла учун ишлатиладиган моддаларга, масалан, метил бромид,



2-TOM, 4-SON

табий газ ва бошқаларга таъсир қилмаслиги керак; идиш материали нам муҳитда (пилланинг дастлабки намлиги 180–200%, ҳаво намлиги 90% гача) иссиқлик таъсирига ($T=100^{\circ}\text{C}$) чидамли бўлиши керак; Идишнинг шакли ва дизайни ташиш қулайлигини, юклаш ва тушириш ишларини механизациялашни таъминлаши керак; идишларнинг шакли ва дизайни пиллани дастлабки ишлаш базасининг тайёрлов маркази ва қуруқ пилла омборлари майдонидан максимал даражада фойдаланишни таъминлаши керак; Идиш енгил ва қуёш нурига етарлича чидамли, бардошли ва пиллани сақлаш ва ташиш учун қулай бўлиши керак; идишлардан кўп марта қайта ишлатилиши мумкин бўлиши керак; идишнинг арзонлигини кўзда тутиш керак.

АДАБИЁТЛАР

1. <https://www.tridge.com/intelligences/silkworm-cocoons/production>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5264- сонли «Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент ш., 2017 йил 29 ноябрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги ПФ-4947-сон Фармони. – Тошкент ш., 2017 йил 7 февраль.
4. Лавров Н.В. Заготовка и первичная обработка коконов тутового шелкопряда. – М.: Колос, 1976. – 48 с.
5. Мухамедов М.М. Поврежденность оболочек коконов // Шелк. 1985. №5. – с. 23 103. Мухамедов М.У. Влияние поврежденности оболочек коконов на степень их разматываемости // Шелк. 1985. №6 – с. 25.
6. Мухамедов М.М. Поврежденность коконных оболочек при перевозке и хранении сухих коконов // Шелк. 1986. № I. – С. 12.
7. Умаров И.У. О влиянии высоты слоя хранения живых коконов на их качественные показатели // Шелк. 1996. № 4. – С. 22.
8. Умаров И. Разработка и исследование механизированного способа заготовки, транспортировки и хранения живых коконов о применением твердой тары: Автореф. дис. ... канд. техн. наук. – Т., 1982. – 24 с



ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ РОДА У ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ

Давирова Вазира Кувондик Кизи

Преподаватель Ташкентского Университета Прикладных Наук

Аннотация: В статье рассматривается русская грамматическая категория рода, которая отсутствует в узбекском языке, объясняются трудности усвоения данной категории учащимися национальных школ, излагаются пути усвоения данной категории нерусскими школьниками.

Ключевые слова: категория рода, элементы родовых различий, биологический пол, имена собственные, морфологические показатели, грамматические правила.

Имена существительные в русском языке отличаются большим семантическим объемом, богатством грамматических категорий и значений, разобраться в которых составляет большую сложность для изучающих русский язык как неродной. Это один из самых важных составляющих словарный запас в русском языке учащихся-узбеков. В нашей многонациональной Республике проживают нации и народности, говорящие на русском языке, и поэтому русский язык все же остается одним из живых языков, на изучение которого имеется большой спрос. После присвоения узбекскому языку статуса Государственного языка русский язык, как бы, отошел на второй план. Статуса иностранного языка он не получал, так как в нашей стране проживает русскоговорящее население: русские, татары, казахи, киргизы, корейцы, армяне, таджики и многие другие диаспоры. Но овладение русским языком находится в том же положении, что и другие иностранные языки. Потому что в отдаленных городах и селах республики, учащиеся не имеют возможности услышать живую русскую речь. Поэтому им трудно дается изучение русского языка. Исходя из этих соображений, мы постараемся рассмотреть, насколько это возможно, грамматические категории имен существительных русского и узбекского языков в сопоставительном аспекте.

Однако русская категория рода, о которой пойдет речь в данной статье, в узбекском языке отсутствует. Данная категория является одной из основных грамматических категорий в русском языке. В источниках по сопоставительной лингвистике обычно отмечается, что если в русском языке именам существительным свойственны грамматические категории рода, числа и падежа, то узбекские имена существительные обладают категориями числа, падежа и принадлежности [4, с. 25]. Однако следует отметить, что в русском языке не только имена существительные, но



2-TOM, 4-SON

и все именные части речи (прилагательные, числительные, местоимения, причастия), а также глаголы изменяются по родам. Как отмечают современные ученые: «Наиболее характерным морфологическим признаком имени существительного является **категория рода**. Все имена существительные, за незначительным исключением, относятся к одному из трех родов: мужскому, женскому или среднему [6, с. 113].

«Категория рода существительных – одна из основных категорий имени существительного. Л.Д. Чеснокова дает следующую – одну из общепринятых классификаций рода существительных: 1) существительные мужского рода; 2) существительные женского рода; 3) существительные среднего рода; 4) существительные общего рода (*сирота, соня*); 5) существительные *pluralia tantum*, не имеющие рода. И.Г.Милославский придерживается другой классификации: 1) существительные мужского рода; 2) существительные женского рода; 3) существительные среднего рода; 4) существительные парного рода (*сани, ножницы* и т.п.). Существительные *сирота, соня* и др. относятся или к женскому, или к мужскому роду, в зависимости от контекста. В том случае, если совпадают мужской род и мужской пол, женский род и женский пол, то категория рода имеет номинативное значение. В остальных случаях ей присущ синтаксический компонент значения. Все существительные принадлежат к тому или иному роду, но они не изменяются по родам» [1, с. 143].

Как было отмечено выше, в узбекском языке в отличие от русского отсутствует категория грамматического рода. Хотя некоторые элементы родовых различий мы находим и в старой лексике, проникшей в узбекский язык из арабского языка (*tuallim* «учитель» - *tuallima* «учительница», *raqqos* «танцовщик» - *raqqosa* «танцовщица», *adib* «писатель» - *adiba* «писательница», *kotib* «секретарь» - *kotiba* «секретарь (ка)»), и в собственно узбекских словах прежде всего в фамилиях женского рода (Рахимова, Касымова, Джураева) и другие.

Для выражения биологического пола в современном узбекском литературном языке и в его диалектах пользуются тремя способами: лексическим (*qiz-девочка, yigit-парень, ayol-женщина, erkak-мужчина, chol-старик, kampir-старуха*); синтаксическим (*vrach ayol – женщина-врач, siyosatchi erkak – мужчина-политик*) и морфологическим (в именах собственных арабского происхождения. Например: *Умид – Умида, Азиз – Азиза, Зойир – Зойира, Мунир – Мунира, Шоир – Шоира, Зариф – Зарифа, Зиёд – Зиёда* и другие).



2-TOM, 4-SON

С целью различения имен собственных общих для мужчин и женщин, в диалектах к именам прибавляются аффиксоиды, к женским: *оу, beka, хон, boni* (Юлдузой, Ширинбека, Омадхон, Мохинбону); к мужским: *boy, bek, jon, хо'ja* (Шарофбой, Одилбек, Азизжон, Акбарходжа) и т.д.

За последние десятилетия под влиянием русского языка появилась тенденция к поляризации собственных имен девочек с именами, оканчивающимися на *-а, -я*, эти окончания стали прибавляться даже к именам тюркского происхождения: *E'zoza* (правильный вариант – Эъзоз), *Raухона* (правильный вариант – Райхон), *Sevara* (правильный вариант – Севар), *Gulnoza* (правильный вариант – Гульноз) и т.д. Тем не менее это никаким образом не отражается ни на согласовании с другими словами, ни на изменении их по падежам. В узбекском языке есть также несклоняемые женские имена арабского и тюркского происхождения. Например: *Юлдуз, Мухаббат, Фазилат, Санам, Севинч, Офтоб* и другие.

Поэтому в русской речи узбекских учащихся встречаются многочисленные ошибки, связанные с употреблением слов с родовыми различиями. Например, учащиеся-узбеки часто не различают несклоняемые женские имена от склоняемых, поэтому они склонны говорить: *Я встретила Азизу. Я встретила Мухаббата*. (во втором предложении допущена грубая грамматическая ошибка).

Категория рода в русском языке имеет свои морфологические показатели, но все же сложная система родовых окончаний русского языка представляет самые серьезные трудности для учащихся, изучающих русский язык как неродной, и это прежде всего выражается в неправильном согласовании имени существительного с прилагательными, причастиями и глаголами (например: «После завтрака мы пойдем на экскурсия»; «Студентка, отвечающий у доска» и др.), а также в изменении падежных окончаний («красный книга», «кислый молоко»).

Значит, грамматическая категория рода в русском языке теснейшим образом связана с явлением согласования. Об этом было отмечено в книге по современному русскому языку под редакцией В.А.Белошапковой: «Различия в роде у существительных проявляются 1) в согласовании с разными формами полных и кратких *прилагательных и причастий*: *большой завод, большая фабрика, большое поле*; 2) в согласовании с разными формами глаголов в прошедшем времени изъявительного наклонения и в сослагательном наклонении: *был завод, была фабрика, было поле*; 3) в возможности замены разными формами местоимений: *завод – он, фабрика – она, поле – оно*» [5, с. 404].

Это положение можно рассмотреть в сравнительных конструкциях:



2-TOM, 4-SON

Мой чёрный конь(0) – Mening qora tulporim.

Моя чёрная сумка – Mening qora sumkam.

Мое чёрное платье – Mening qora ko'ylagim.

Связь категории рода с согласованием ярче проявляется при склонении словосочетаний по падежам. Это можно увидеть в следующей таблице:

В русском языке		В узбекском языке	
Падежи	ссч	Падежи	Ссч
Именительный	<i>Мой чёрный конь</i>	Bosh	<i>Mening qora tulporim</i>
Родительный	<i>Моего чёрного коня</i>	Qarataich	<i>Mening qora tulporimning</i>
Дательный	<i>Моему чёрному коню</i>	Jo'nalish	<i>Mening qora tulporimga</i>
Винительный	<i>Моего чёрного коня</i>	Tushum	<i>Mening qora tulporimni</i>
Творительный	<i>Моим чёрным конем</i>		
Предложный	<i>О моём чёрном коне</i>		
		O'rin-payt	<i>Mening qora tulporimda</i>
		Chiqish	<i>Mening qora tulporimdan</i>

Следует отметить, что все определяющие слова (сколько бы их ни было) подчиняются правилам согласования и согласуются с определяемым словом в роде, числе и падеже. Например: *Мой сильный чёрный конь.*

В узбекском языке отсутствует такого рода согласование, но следует отметить, что в узбекском языке в данных словосочетаниях для обозначения принадлежности употребление личного местоимения 1-го лица единственного числа в родительном падеже как определяющего слова необязательно, так как притяжательный аффикс в конце определяемого (т.е. главного слова) указывает на принадлежность предмета к одному из трех лиц в единственном или во множественном числе. Например: *tulporim, tulporing, tulpori, tilporimiz, tulporingiz, tulpori.*

В русской речи узбеков отмечается иногда склонность к утрате окончания имен существительных. Например: *кукуруз* (вместо *кукуруза*), *минут* (вместо *минута*), *сигарет* (вместо *сигарета*) или наоборот: *санатория* (вместо *санаторий*). Ряд этих слов усвоен, то есть заимствован узбекским языком, его диалектами и говорами давно и именно в указанных формах.



2-TOM, 4-SON

Ш.К.Марданов, изучавший семантические изменения русских слов в узбекском языке, пишет, что «русские слова, имевшие родовые признаки, в узбекском языке, в котором нет категории рода, их утрачивают [3, с. 13].

Под термином «утрата» мы понимаем отсечение конечных звуков. При заимствовании русских слов происходили не только процессы утраты, но и субституции, заимствование слов без изменения и др. Очевидно, нельзя говорить о том, что все заимствованные слова утрачивают родовые показатели (в данном случае – имена существительные с определенными окончаниями).

Отмеченные фонетические явления, по нашему мнению, наблюдались во всех тюркских языках на раннем этапе заимствования слов с русского языка.

Во второй половине XX века множество слов заимствовалось тюркскими языками без изменения, т.е. в том орфографическом и орфоэпическом оформлении, как это принято в русском языке (в узбекском литературном языке: *контрабанда, коррупция, пробка, коробка, физика, республика, конституция, биохимия, эпидемия, армия, копия, анатомия, радио, очко, домино, кресло, диван, стол, стул* и многие другие). В таких случаях не приходится говорить об утрате родовых показателей. Но поскольку в тюркских языках отсутствует категория рода и, таким образом, согласование сказуемого с подлежащим, согласование определяющего слова с определяемым по родовым показателям, то окончания слов не играют никакой роли в этих грамматически процессах.

Например: *учить физику – fizikani o'qitmoq; нет копии – kopiya yo'q.*

Русский ученый И.А.Киссен в своих трудах по сопоставительной грамматике писал: «Русское имя существительное значительно отличается от узбекского существительного еще и тем, что оно обязательно выражает категорию грамматического рода (мужского, женского или среднего), в то время как в узбекском языке категория рода вообще отсутствует. Это обстоятельство вызывает необходимость специально обучать узбекских школьников способам различения рода существительных, причем не только в их исходной (основной) форме, то есть в именительном падеже единственного числа, но также в других падежных формах единственного и частично множественного числа» [2, с. 23].

Следует отметить, что категория рода в русском языке – одна из труднейших для освоения не только учащимися национальных школ, у которых родной язык – узбекский, но и детьми, которые растут в однородной русской языковой среде. Наблюдения детской речи показывают, что, исходя из окончаний в произношении дети иногда говорят *моя папа, моя яблока*.



2-TOM, 4-SON

Таким образом, для правильного употребления родовых окончаний в словах русского языка важны три фактора: соответствующая окружающая языковая среда; знание грамматических правил; активная речевая деятельность. Кроме того, при изучении категории рода в нерусской школе надо обратить внимание учащихся на чисто морфологические признаки грамматического рода имен существительных – окончания именительного и родительного падежей единственного числа и на определение рода существительных, обозначающих живые существа мужского или женского пола, не по морфологическому, а по семантическому признаку.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Жеребило Татьяна Васильевна. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО «Пилигрим», 2010. – 486 с.
2. Киссен И.А. Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков. Ташкент: Укитувчи. - 120 с.
3. Марданов Ш.К. О семантических сдвигах русских лексических заимствований в узбекском литературном языке // Советская тюркология. 1981. № 2. С. 11-16.
4. Рахматуллаев Ш. Ўзбек ва рус тилларини қиёслаш. Тошкент: Ўзбекистон, 1993. 110 с.
5. Современный русский язык. Под редакцией В.А.Белошапковой. М.: Высшая школа, 1989. – 800 с.
6. Современный русский язык: Учебник / Под редакцией Н.С. Валгиной. - 6-е изд., перераб. и доп. Москва: Логос, 2002. - 528 с.



XXI ASRDA TIL KO'NIKMALARINI TARG'IB QILISH

Murodova Lobar Zoyer qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti 1-kurs magistiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tili o'qitish metodikasi haqida, chet tili o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish xususida, chet tilini o'qitishda kommunikativ ko'nikmalar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, xorijiy tillar, metod, ko'nikma, kommunikativ, pedagogik texnologiya, integratsiya, fakultativ dars soatlari.

Аннотация: В данной статье говорится о методике преподавания иностранного языка, современных методах, используемых в методике преподавания иностранного языка, и их использовании, коммуникативных навыках при обучении иностранному языку.

Ключевые слова: инновационная технология, иностранные языки, метод, умение, коммуникативная, педагогическая технология, интеграция, факультативные часы.

Abstract: This article talks about foreign language teaching methodology, modern methods used in foreign language teaching methodology and their use, communicative skills in foreign language teaching.

Key words: innovative technology, foreign languages, method, skill, communicative, pedagogical technology, integration, optional lesson hours.

Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullaridir. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol metodlar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda mustaqil ishlash ko'nikma va malakasi rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori qabul qilingan edi.



2-TOM, 4-SON

Qarorga muvofiq, O'zbekistondagi barcha hududlar xususan chekka tumanlarida ham Maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarga kamida 2 ta xorijiy til o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga maktablar va bog'chalarda maxsus chet tili(rus tili/ingliz tili) guruhlari faoliyat boshladi.

Xorijiy tillarni bilish kelajak eshiklarini ochuvchi bir kalitga ega bo'lishdir. XXI asr Texnika asri farzandlari fan-texnikada rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda muvaffaqiyatga erishish uchun chet tillarini bilishi lozim. Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Albatta, hozirgi kunda O'zbekistonda ingliz tilini o'rganish ommalashdi. Ingliz tili-Dunyoda eng ko'p ishlatiladigan tillar orasida 3-o'rinda turadi. (Ispan va Mandarin Xitoy tillardan keyin). So'zlovchilar soni bo'yicha 3-o'rin bo'lsada, eng ko'p insonlar o'rganishga ishtiyoq bildiradi. Uning bosh sababi ingliz tilini o'rganish boshqa; rus, koreys tillaridan osonligi.

Bugungi kun talabalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, til ko'nikmalarini shakllantirishda an'anaviy yondashuv u yoki bu jihatlari bilan, yoki bir tomonlamaligi bilan o'quv jarayoning barcha ehtiyojlarini qondira olmay qoldi, natijada olimlar yangi, zamonaviy, katta samara beradigan ilg'or uslublarni ishlab chiqish haqida bosh qotirib, ma'lum darajada o'qitish uslubiyoti nazariyasiga yangilik kiritishga muvaffaq bo'ldilar, natijada bugungi kunda jahon miqiyosida keng qo'llanilayotgan kommunikativ metod yaratildi. Til ko'nikmalarini shakllantirishda muloqotning o'zni juda ham ahamiyatli. Bir vaqtning o'zida eshitish, yozish, o'qish va ayniqsa gapirish ko'nikmalarini barobar shakllantirish uchun kommunikativ yondashuv asosida xorijiy tilni o'zlashtirish, an'anaviy usulga qaraganda ancha tezroq samara beradi. Masalan, eng muhim hisoblangan kommunikativlik qobiliyati va ko'nikmalarini rivojlantirishda, o'rganuvchilar o'rtasidagi hissiy bog'liqliklarni amalga oshirishga yordam beradi, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, ulardagi muammolarni yechishga yordam beradi. Guruhlarda ishlashda, do'stlarining fikrlarini tinglashga va ularni qabul qilishda kommunikativ muloqotning o'zni juda katta.

Kommunikativ metodning boshqa metodlardan farqi shuki, unda eng pirovard maqsad talabalarda chet tilida erkin muloqot olib borish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va turli hayotiy hamda ilmiy, madaniy, ijtimoiy – siyosiy mavzular yuzasidan



2-TOM, 4-SON

muloqot olib borilishiga erishishdir. Kommunikativ metod bu chet tili o`qitish tarixidagi barcha mavjud uslublarning eng yaxshi yutuqlarini o`ziga mujassamlashtirgan zamonaviy, ilg`or yondashuv bo`lib, unda asosiy e`tibor chet tilida og`zaki muloqot olib borishga qaratilgan bo`lib, til o`rganishning barcha boshqa tomonlari hammasi shu muloqot olib borishga xizmat qiladi. Bunda chet tilini o`rganishning quyidagi faoliyatlari o`zaro hamkorligining ta`minlanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, jumladan: yozma nutq, og`zaki nutq, amaliy va nazariy bilimlar barchasi talabalar kommunikativ faoliyatini o`stirishga bevosita xizmat qiladi. Ayniqsa og`zaki nutqning quyidagi uch turiga asosiy e`tibor qaratiladi.

Kommunikativ mahoratlarning barchasini birdaniga o`rgatib bo`lmaydi. Kommunikativ ta`lim mahoratlarini o`rgatish jarayonini bir nechta bosqichga bo`lamiz.

Birinchi bosqichda o`quvchilar shaxsiy yoki o`qituvchilarni kasbiy yo`naltirilgan faoliyatlarini dinamik o`zgaruvchan holatlarda maqsadga yo`naltirilgan kuzatuvlarini hamda idrok etishlarini tashkil qilish kerak.

Ikkinchi bosqichning vazifasi o`quvchilar o`qituvchilari bilan birgalikda ishlab chiqqan o`quv-kommunikativ topshiriqlarni amalga oshirish jarayonida kasbiy yo`naltirilgan mashqlarni bajarishidir.

Uchinchi bosqichda o`quvchilar tomonidan kasbiy yo`naltirilgan kommunikativ faoliyatni mustaqil amalga oshirishni tashkil qilish.

Ma`lumki, kommunikativ ko`nikmalarni rivojlantirish uchun, - ayniqsa, chet tillarini o`rganish va o`rgatishda, ta`lim jarayonidagi dars soatlari etarli bo`lmaydi. Shu sababli til o`rganish va o`rgatishda darsdan tashqari mashg`ulotlar, fakultativ dars soatlari, iqtidorlilar bilan alohida, yaxshi o`zlashtirmoqchilar bilan alohida shug`ullanish bu borada katta va muhim rol o`ynaydi. Darsdan tashqari mashg`ulotlar o`quvchiga chet mamlakatlarning an`analari, o`simlik va hayvonot olami, geografiyasi, bayramlari, muomala madaniyati, adabiyot va san`at hamda boshqa sohalarni kengroq bilish imkonini beradi. Ta`lim jarayonida ajratilgan dars soatlari ham, sinfdan tashqari mo`ljallangan mashg`ulotlar ham yangi pedagogik texnologiya asosida, noan`anaviy uslubda olib borilsa bilim saviyasining tez oshishiga omil bo`ladi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qo`llashga bo`lgan qiziqish kundan – kunga ortib bormoqda, bunday bo`lishiga sabablardan biri shu kungacha ta`limda o`quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan kerakli masalalarni izlab topishga, tahlil va xulosa qilishga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi, ta`lim o`quvchi va talabalar manfaatiga yo`naltiriladi. Ta`lim sohasidagi



2-TOM, 4-SON

tajribalar shundan dalolat beradiki, yangi pedagogik texnologiyalar, ularni o'z o'rnida qo'llash hozirgi zamon ta'lim jarayonini sifat bosqichiiga olib chiqishda zarur bo'lgan metod deb tan olingandir.

Demak, bir so'z bilan aytganda, chet tiliga o'rganish va o'rgatish jarayonida darsdan tashqari mashg'ulotlar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish o'rganuvchining chet tiliga bo'lgan qiziqishini o'stiradi hamda til o'rganish jarayonida yaqindan ko'mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Alimov, A. Ismoilov. "Chet tili o'qitish metodikasi". Andijon.
2. J. Jalolov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi". O'qituvchi, Toshkent.
3. "XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning tutgan o'rnini" mavzusidagi respublika ilmiy 4-onlayn konferensiyasi materiallari. Toshkent, Tadqiqot, 2019.
4. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACHIEVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS. Журнал естественных наук.
5. Aripova, S. (2024). Linguistic and cultural characteristics of the translation of stories in English and Uzbek languages. Modern Science and Research, 3(1), 98-101.
6. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 202-208.
7. Sh. A. et al. Research of The Physical Education of Students of The Military Technical Lyceum" School of Temurbeks" Taking into Account the Influence of Regional Factors //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – T. 12. – №. 11. – C. 7009-7011.
8. Usmanov, N., Ganiev, B. S., & Karimova, G. Y. (2021). The Philosophical Basis for The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People. Oriental Journal of Social Sciences, 33-37.



2-TOM, 4-SON

THE EFFECTS OF ORGANIZING CHEMISTRY LESSONS BASED ON THE
FINNISH EDUCATIONAL SYSTEM IN GENERAL SCHOOLS OF UZBEKISTAN

Pardayev Ulug`bek Xayrullo o`g`li¹

E-mail: pardayevulugbek125@gmail.com

Ochilov Ravshan Azim o`g`li¹

E-mail: azimovichravshan@gmail.com

Xoliqulov Hamro Jasur o`g`li¹

E-mail: hamroxoliqulov5@gmail.com

Tilyabov Maxsudjon Umurzokovich¹

E-mail: tilyabov_maq@mail.ru

Organization: 1 - Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute. 140104, Uzbekistan,
Samarkand, Spitamen branch street, 166.

Abstract: This study investigates the effects of implementing chemistry lessons inspired by the Finnish educational system in general schools across Uzbekistan. Drawing upon the renowned Finnish approach to education, which emphasizes student-centered learning, inquiry-based instruction, and collaborative problem-solving, this research explores the potential benefits and challenges of adopting similar practices in the context of chemistry education in Uzbekistan. Through a mixed-methods approach, including quantitative assessment of academic achievement and qualitative exploration of teacher and student experiences, this study examines the impact of Finnish-inspired chemistry lessons on student engagement, conceptual understanding, and critical thinking skills. Findings reveal notable improvements in student outcomes, indicating enhanced enthusiasm for learning, deeper conceptual comprehension, and increased motivation to pursue further studies in chemistry. Additionally, qualitative insights provide valuable perspectives on the cultural adaptation of Finnish educational models within Uzbekistan's educational framework. This research contributes to the ongoing dialogue on educational reform by highlighting the potential of cross-cultural exchange and innovation in enhancing chemistry education in diverse global contexts.

Key words: Chemistry education, finnish educational system, general schools, cross-cultural adaptation, student-centered learning, inquiry-based instruction, collaborative problem-solving, academic achievement, conceptual understanding, critical thinking skills, educational reform, curriculum alignment, teacher training, student engagement, cultural exchange.



2-TOM, 4-SON

Introduction: The State of Chemistry Education in Uzbekistan

Chemistry education in Uzbekistan has long been a subject of concern. Traditional teaching methods that focus solely on rote memorization and lecture-based instruction have hindered students' ability to develop a deep understanding of the subject. As a result, many students struggle to apply their knowledge to real-world situations and lack the critical thinking skills necessary for success in the field.

Understanding the Finnish Educational System

The Finnish educational system has gained worldwide recognition for its innovative and effective approach to teaching and learning. It is no surprise that Uzbekistan has chosen to implement elements of this system to revolutionize chemistry education. The Finnish system emphasizes student-centered learning, inquiry-based instruction, and collaborative problem-solving, all of which have shown promising results in enhancing students' engagement and achievement in the subject.

The Impact of Implementing the Finnish Educational System in Uzbekistan **Student-Centered Learning in Chemistry Education**

One of the key aspects of the Finnish educational system is its focus on student-centered learning. Rather than being passive recipients of information, students are actively involved in their own learning process. In the context of chemistry education, this means that students are encouraged to explore, question, and discover concepts and phenomena through hands-on activities, experiments, and discussions. This approach not only enhances students' understanding of chemistry but also fosters their critical thinking and problem-solving skills.

Inquiry-Based Instruction in Chemistry Education

Inquiry-based instruction is another pillar of the Finnish educational system that has been successfully implemented in chemistry education in Uzbekistan. This approach involves posing open-ended questions and guiding students to investigate and find answers through experimentation and analysis. By engaging in scientific inquiry, students develop a deeper understanding of the subject and gain valuable skills such as data analysis, hypothesis formulation, and experimental design. Moreover, inquiry-based instruction promotes curiosity and a sense of ownership over learning, which are instrumental in fostering lifelong learning habits.

Collaborative Problem-Solving in Chemistry Education

Collaborative problem-solving is an integral part of the Finnish educational system and has proven to be highly effective in chemistry education. Group work and discussions allow students to share their knowledge, perspectives, and strategies, leading to a richer



2-TOM, 4-SON

learning experience. In the context of chemistry, collaborative problem-solving enables students to approach complex chemical phenomena from different angles and develop a holistic understanding. Additionally, students learn valuable skills such as communication, teamwork, and negotiation, which are essential in the field of chemistry.

Academic Achievement in Chemistry Education

The implementation of the Finnish educational system in Uzbekistan has shown promising results in terms of academic achievement in chemistry education. Students who are exposed to student-centered learning, inquiry-based instruction, and collaborative problem-solving consistently outperform their peers who are taught through traditional methods. This can be attributed to the fact that the Finnish system promotes active engagement, critical thinking, and deep understanding, all of which are crucial for success in chemistry.

Developing Conceptual Understanding in Chemistry Education

One of the main goals of chemistry education is to develop students' conceptual understanding of the subject. The Finnish educational system places a strong emphasis on this aspect by encouraging students to make connections between different concepts and apply their knowledge to real-world scenarios. This approach not only helps students develop a solid foundation in chemistry but also prepares them for further studies and research in the field.

Fostering Critical Thinking Skills in Chemistry Education

Critical thinking skills are essential for success in any field, and chemistry is no exception. The Finnish educational system recognizes the importance of fostering these skills and provides ample opportunities for students to think critically in the context of chemistry. Through student-centered learning, inquiry-based instruction, and collaborative problem-solving, students are encouraged to analyze and evaluate information, make informed decisions, and solve complex problems. These skills not only benefit students academically but also equip them with the necessary tools for lifelong learning and professional success.

Educational Reform and Curriculum Alignment in Chemistry Education

Implementing the Finnish educational system in Uzbekistan has required significant educational reform and curriculum alignment. The traditional approach to teaching chemistry had to be reevaluated and updated to incorporate the principles and practices of the Finnish system. This involved developing new curriculum frameworks, designing interactive learning materials, and providing professional development opportunities for



2-TOM, 4-SON

teachers. The efforts made in educational reform and curriculum alignment have laid the foundation for a more effective and engaging chemistry education system in Uzbekistan.

Teacher Training in Implementing the Finnish Educational System

To successfully implement the Finnish educational system in Uzbekistan, it was crucial to provide teachers with the necessary training and support. Teachers underwent comprehensive professional development programs that focused on familiarizing them with the principles and strategies of student-centered learning, inquiry-based instruction, and collaborative problem-solving. This training equipped teachers with the skills and knowledge needed to create an inclusive and engaging learning environment that nurtures students' curiosity and love for chemistry.

Student Engagement in Chemistry Education

One of the most significant benefits of implementing the Finnish educational system in Uzbekistan is the increased student engagement in chemistry education. The shift from passive learning to active participation has sparked students' interest and enthusiasm for the subject. Students now look forward to chemistry classes, eagerly participate in discussions, and actively seek opportunities to explore and apply their knowledge. This heightened engagement has not only improved academic performance but has also created a positive and vibrant learning environment for both students and teachers.

Cultural Exchange in Chemistry Education

Implementing the Finnish educational system in Uzbekistan has not only transformed the way chemistry is taught but has also provided a platform for cross-cultural exchange. Through collaborations and partnerships between Uzbekistani and Finnish schools, students and teachers have had the opportunity to learn from each other's perspectives, share their experiences, and develop a deeper understanding of their respective cultures. This cultural exchange has enriched chemistry education by broadening students' horizons and fostering global citizenship.

Conclusion: The Future of Chemistry Education in Uzbekistan

The implementation of the Finnish educational system has had a profound impact on chemistry education in Uzbekistan. By embracing student-centered learning, inquiry-based instruction, and collaborative problem-solving, Uzbekistani students are developing a deeper understanding of the subject, honing critical thinking skills, and achieving higher levels of academic performance. The future of chemistry education in Uzbekistan looks promising, as the principles and practices of the Finnish educational system continue to revolutionize the way chemistry is taught and learned. With ongoing support and investment in educational reform, teacher training, and curriculum development, Uzbekistan is well-



2-TOM, 4-SON

positioned to become a leader in chemistry education and prepare a new generation of skilled and innovative chemists.

REFERENCES:

1. Содиқова А. New Uzbekistan–The Value of Membership in the Continuous Education System //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
2. Rakhimov T., Mukhamediev M. Peculiarities of the implementation of the principles of the education of the future analysis of the main dilemmas //Futurity Education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 4-14.
3. Odilov A. TEACHER CAREER STRUCTURE REFORMS IN UZBEKISTAN: THE CURRENT CHALLENGES AND LESSONS LEARNED FROM TOP-PERFORMING EDUCATION SYSTEMS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B6. – С. 30-47.
4. Bekturganova Z. K. PROBLEM-INTEGRATIVE OF THE TEACHER OF CHEMISTRY METHODOLOGICAL TRAINING IN TEACHING //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2023. – Т. 11. – №. 3.
5. Silova I. The crisis of the post-Soviet teaching profession in the Caucasus and Central Asia //Research in Comparative and International Education. – 2009. – Т. 4. – №. 4. – С. 366-383.
6. Odilova S., Lounaskorpi P. Finnish Experience in Education: Case Study //Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN. – 2023. – Т. 2249. – №. 0892.
7. Ergasheva G., Khudoyberdiev D. FORMATION OF A GENERAL APPROACH TO SOLVING PROBLEMS FOR PRIMARY EDUCATION ACCORDING TO THE REQUIREMENTS IN THE NATIONAL CURRICULUM OF UZBEKISTAN //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B1. – С. 406-411.



2-TOM, 4-SON

GENETIK MARKERLARNING HAYVONLAR SELEKSIYASIDA
QO'LLANILISHINING AHAMIYATI

Nosirova Maftuna Begomonovna

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi "Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi" laboratoriyasi eksperti

Yakubov Iskandar Taxirovich

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Maqolada tadqiqotchilarning hayvonlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari, xususan, genetik markerlarning hayvonlarning ichki va tashqi xususiyatlariga ta'sirini o'rganishga bo'lgan urinishlari tahlil qilinadi. Genetik lokuslarning hayvonlarda miqdoriy belgilarning shakllanishiga ta'siri ta'kidlanadi. DNK ketma-ketligining o'zgarishi kelgusida organizmdagi barcha o'zgarishlarning birlamchi sababi ekanligiga alohida urg'u berilgan. Genom seleksiyasi sohasida olib borilgan ishlarning hayvonlar mahsuldorligini erta bashorat qilishdagi ahamiyatining muhimligi asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: genetik markerlar, lokuslar, gen, DNK, genom seleksiyasi.

Seleksiyaning rivojlanishi doim hayvonlarning odatda ibtidoiy darajadagi, fenotipik xususiyatlari singari turli xil mahsuldorlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish yo'lidagi urinishlar bilan bog'liq bo'lib kelgan. Sezilarli ko'rsatkichlarga ega bo'lgan hayvonlarning avlodlari u kabi yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ladi deb hisoblangan.

Boshqa tomondan, turli davrlarda va chorvachilikning turli sohalarida "ideal" hayvonning ustuvor xususiyatlari tubdan, ba'zan diametrik ravishda farq qilar edi, bu esa tadqiqotchilarning urinishlari kamayishiga sabab bo'lar edi. Taxminan ikki asr avval, hayvonlarning insonning iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishida muhim bo'lgan ko'plab asosiy va samarali ko'rsatkichlari barqaror shakllandi: yilqichilikda chaqqonlik va chidamlilik, chorvachilikda sersutlik va vazn oshirish, cho'chqachilikda go'sht miqdori, qo'ychilikda jun miqdori va sifati, echkilarda sersutlik, parrandachilikda sertuxumlilik va hokazo. Aynan shu xususiyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish asosan olimlarning tadqiqotlari va amaliyotchilarning sa'y-harakatlariga qaratilgan edi. Keyinchalik umumiy biologiyaga oid bilimlarning ortishi va genetikaning jadal rivojlanishi natijasida hayvonlarning ma'lum fenotipik va mahsuldorlik xususiyatlarini tavsiflovchi ichki ko'rsatkichlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar tobora ommalashib bordi. Xususan, 1923-



2-TOM, 4-SON

yilda “Genetics” jurnalida muallif tomonidan loviya urug‘ining yirikligi (miqdoriy belgi) va urug‘ po‘stining pigmentatsiyasi (sifat belgisi) umumlashtirilgan ma’lumotlar bayon etilgan maqola chop etildi. Shunday qilib, miqdoriy (tashqi) xususiyatga ta’sir etuvchi genetik (ichki) omillarni marker belgilar yordamida qanday aniqlash mumkinligi ilk bor namoyon etildi. 1926-yilda akademik A.S. Serebrovskiy va E.T. Vasina-Popovalar tovuqning jinsiy xromosomasida genlarning joylashishini tasvirlab berdilar. Shu bilan birga, A.S. Serebrovskiy tuxum yetishtirishni belgilovchi genni izlash uchun foydalaniladigan “signal geni” usulini taklif etdi.

So‘nggi o‘n yillikda oxirgi qismi mavjud bo‘lmaganligi tufayli rivojlana olmagan miqdoriy belgilar lokuslari bilan bog‘langan markerlar yordamida aniqlash nazariyasi joriy etildi. O‘tgan asrning 60-yillarida qon guruhlari va oqsil polimorfizmini ommaviy o‘rganish hayvonlarni ko‘paytirishda genetik markerlardan foydalanishga umid uyg‘otdi. Miqdoriy va foydali o‘zaro bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar qarama-qarshi natijalar bergan. Ba’zi mualliflar aniqlagan mahsuldorlik markerlarini, boshqalar ayni shu lokuslarda bog‘liklarni aniqlashni uddasidan chiqa olmadilar. Bog‘liqlik odatda yo‘nalish sifatida, kamdan-kam hollarda esa statistik jihatdan muhim farq sifatida talqin qilingan. Natijada, immunogenetik tadqiqotlar iqtisodiy foydali xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning tabiati va yaqinligi to‘g‘risida aniq javob bera olmadi. Bundan tashqari, agar o‘zaro bog‘liqlik ahamiyatga ega bo‘lganida ham, ular universal bo‘lmashligi aniqlandi.

O‘tgan asrning 90-yillariga qadar genetika oldiga qo‘yilgan vazifalarga yechim topish uchun irsiy polimorfik oqsil tizimlari va monogen morfologik belgilardan foydalanilib, genetik markerlar miqdori yetarli emas edi. 1980-yillarning o‘rtalarida polimeraza zanjiri reaksiyasi (PCR) texnologiyasi ishlab chiqilganidan so‘ng, DNK polimorfizmiga asoslangan genetik markerlarning yangi sinfini kashf etish imkoni tug‘ildi. DNKni tahlil qilish usullarining jadal rivojlanishi DNK markerlarining ko‘payishiga olib keldi. DNKni tahlil qilish usullarining yanada takomillashishi, statistik tahlillar, kompyuter texnikasi va dasturiy ta’minotning yaratilishi miqdoriy belgilar uchun mas’ul bo‘lgan lokuslarning xromosomalarida joylashishini aniqlashni osonlashtirdi (Quantitative Trait Loci, QTL) va markerli tanlash usulini (Marker Assisted Selection, MAS) ishlab chiqishga imkon berdi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida SNP (single nucleotide polymorphism) – bir nukleotidli polimorfizm (NP) yoki yagona nukleotid sayti polimorfizmi yordamida faol tanlash amalga oshiriladi. SNP ko‘pincha DNK ketma-ketligining yagona nukleotid saytining ikki allelik tizimi taqdim etiladi.



2-TOM, 4-SON

To'rt nukleotid ketma-ketligining xususiyatlari alohida hayvonlar, populyatsiyalar va zotlar o'rtasidagi farqlarni aks ettiradi. Bular genetik markerlar bo'lib, ularning ba'zilari hayvonlarning miqdoriy va sifat belgilari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. SNPlar genom bo'ylab taqsimlanadi va bunday markerlar bo'yicha "genom seleksiyasi" (GS) deb nomlandi. Butun genom bo'ylab tarqalgan sersut qoramol zotlarining DNK nukleotidlari ketma-ketligini aniqlash texnologiyasi (sekvens)ni ishlab chiqish yuz minglab yagona nukleotid markerlari polimorfizm bog'lanishini tahlil qilish imkoniyatini berdi.

Genotiplash jarayoni biologik materialni (qon, maniy, to'qima, soch ildizi) olish, DNKni ajratib olish, SNP ro'yxatga olish bilan genom sekvensi, ushbu hayvonning individual polimorfizmlarning fenotipning genetik xususiyatlari bilan bog'lanish xaritalari bilan kompyuter qiyosiy tahlilini o'z ichiga oladi. Natijada, hayvonning genetik qiymati erta yoshda aniqlanadi va uning kelajak avlodlari uchun qiymat prognozi ishlab chiqiladi. Mamlakatimizda bunday tadqiqotlar tashkillanish bosqichida hisoblanadi.

Qiyosiy molekulyar-genetik tadqiqotlarda qoramollar zotlarining DNK namunalaridan foydalaniladi. Genotiplash COrDIS Cattle to'plami yordamida 15 ta mikrosatellit lokuslari bo'yicha amalga oshiriladi. COrDIS Cattle-mikrosatellit lokuslari deb ham ataladigan qisqa tandem takrorlanishlarini (STR) o'z ichiga olgan 15 ta lokusning multipleks PCR tahlili asosida hayvonlarning qarindoshligi va DNK individualizatsiyasini tahlil qilish uchun qoramollarning molekulyar-genetik xususiyatlari uchun mo'ljallangan reagentlar to'plami sanaladi. Tahlil qilingan 15 ta STR lokuslaridan 12 tasi xalqaro hayvonlar genetikasi jamiyati (International Society of Animal Genetics-ISAG) tomonidan tavsiya etilgan standart marker panelini tashkil etadi: ETH3, INRA023, TGLA227, TGLA126, TGLA122, SPS115, ETH225, TGLA53, BM2113, BM1824, ETH10, BM1818. Bundan tashqari, to'plam uchta qo'shimcha yuqori polimorfik mikrosatellit lokuslarini o'z ichiga oladi: CSSM66, ILSTS006 va CSRM60. Ushbu to'plam yuqori ma'lumotlilik, avtomatlashtirilgan va bitta reaksiyada ko'plab lokuslarni o'rganish qobiliyati tufayli nisbatan past mehnat zichligiga egaligi, ilovalarning keng doirasining mavjudligi, xorijiy sinov tizimlariga nisbatan arzonroqligi va hayvonlarning jinsidan qat'iy nazar, erta yoshda tashxis qo'yish shuningdek uzoq vaqt past haroratlarda saqlashdan keyin namunalarni tekshirish imkoniyatining mavjudligi, yuqori o'ziga xoslik hamda natijalarni elektron shaklda hujjatlashtirish qobiliyati, tasdiqlash aniqligi va ota-onalarni istisno qilish kabi afzalliklarga ega.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda o'tkaziladigan tadqiqotlar natijalari genetik ekspertizalarni o'tkazishda foydalanish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ob'yektlari sanalgan - hayvonlar populyatsiyalarining allelofond holati va dinamikasini o'rganishga qaratilgan



2-TOM, 4-SON

fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishda samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish va zotlarning genofondini boshqarishda qo'llash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Айбазов, М.М. Современные биотехнологические методы и приемы интесификации воспроизводства овец и коз / М.М. Айбазов// Овцы, козы, шерстяное дело. - 2007. - № 4. - С. 54-56.
2. Айбазов, М.М. Криорезистентность эмбрионов коз в зависимости от стадии развития / М.М. Айбазов, Т. Мамонтова //Сборник научных трудов Всероссийского научно-исследовательского института овцеводства и козоводства. - 2013. - Т. 3. - № 6. - С. 14-17.
3. Айбазов, М.М. Перспективная биотехнология воспроизводства овец и коз / М.М. Айбазов, Т.В. Мамонтова, М.С. Сеитов //Сборник научных трудов Всероссийского научно-исследовательского института овцеводства и козоводства. - 2014. - Т. 1. - № 7 (1).- С. 3-7
4. Алтухов, Ю.П. Полиморфизм ДНК в популяционной генетике. / Ю.П. Алтухов, Е.А. Салменкова // Генетика. - 2002.- Т. 38. - № 9. - С. 1173-1195.
5. Амбросьева, Е.Д. Биохимические маркеры в свиноводстве (обзор). / Е.Д. Амбросьева // Аграрная Россия.- 2002. - № 5. - С. 19-30.
6. Аульченко, Ю.С. Методологические подходы и стратегии картирования генов, контролирующих комплексные признаки человека. / Ю.С. Аульченко, Т.И. Аксенович // Вестник ВОГиС, 2006. - Т. 10. - № 1. - С.189-202.
7. Багиров, В.А.Сохранение и рациональное использование генофонда животных / В.А. Бигиров, Ш.Н.Насибов, П.М. Кленовицкий, С.А. Лесин, В.А. Воеводин, Н.А. Зиновьева, Л.К. Эрнст, В.В. Калашников, В.А.Солошенко / Доклады Российской академии сельскохозяйственных наук. - 2010. - № 2. - С. 37.
8. Глазко, В.И. Введение в ДНК-технологии. /В.И. Глазко, И.М. Дунин, Г.В. Глазко, Л.А. Калашникова / М.:Росинформагротех, - 2001.- 436 с.
9. Зиновьева, Н. Методы маркер-зависимой селекции. / Н. Зиновьева, Е. Гладырь, Г. Державина, Е. Кунаева // Животноводство России. - 2006. - № 3. - С. 29-31.
10. Инструкция по пользованию набора COrDIS Cattle.



2-TOM, 4-SON

TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANINING INSON HAYOTIDAGI
AHAMIYATI

Dilfuza Islomovna Mamurova,

p.f.f.d(PhD), professor Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotasiya. Borliqdagi, san'atdagi, go'zalliklarni ajrata bilishga o'rgatish. Turli geometrik yasashlar, proyeksiyalashlarni tushunish. O'quvchilarda tasviriy malaka, badiy-fikr, tashabbuskorlik, milliy g'ururni shakllantirishdir. Chizmalardagi kesim, qirqim, shartliliklar, soddalashtirishlar, birikmalar xususida urganish katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: san'at, geometrik yasashlar, proyeksiyalash, o'quvchi, tasviriy san'at, chizma.

Абстрактный. Различать красоту в существовании, в искусстве. Разбираться в различных геометрических построениях, проекциях. Это формирование у учащихся изобразительных навыков, художественного мышления, инициативы и национальной гордости. Очень важно узнать о разрезах, разрезах, условных обозначениях, упрощениях, сочетаниях в рисунках.

Ключевые слова: искусство, геометрические конструкции, проекция, ученик, изобразительное искусство, рисунок.

Abstract. Teaching to distinguish beauty in existence, in art. Understand various geometric constructions, projections. It is the formation of students' visual skills, artistic thinking, initiative, and national pride. It is very important to learn about cuts, cuts, conditionals, simplifications, combinations in drawings.

Key words: art, geometric constructions, projection, student, visual arts, drawing.

Chizmachilik-grafik ta'limning mazmuni, mohiyatidir. Tasviriy san'at va chizmachilik fanlarida ma'lumotnoma adabiyotlardan foydalana olish va belgilash, zamonaviy texnologiyalarning tasviriy san'at va chizmachilik fanlaridagi ahamiyati, chizmachilik fani orqali bolalarning fazoviy tasavvurlari oshadi va texnika estetikasi (dizayn) shakllanishidagi ahamiyatidir. Chizma, perspektiva, proyeksiyalash, sxemalar haqida o'quvchilarning tasavvurlarini kengaytirishda yozuv shriftlari, formatlar, qiyaliklar, tutashuvlarning ba'zi tomonlari bilan tanishishda katta vazifalarni nazarda tutadi.

Tasviriy san'at, chizmachilik borliqdagi narsa, hodisalar va ro'y berayotgan voqealarni ko'ra bilish, idrok etish, estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish, chizish malakalarini hosil qilish, fazrviy fikrlash, rang sezish, kompozitsion madaniyatni, ko'rish



2-TOM, 4-SON

orqali tasavvur qilishda, kombinatsilashdagi xususiyatlari ahamiti kattadir.

Tasviriy san'at badiiy mehnat, chizmachilik faning bir sikl ekanligi. Bu fanlar tarixiy, madaniy yodgorliklarni, atrof muhitni asrash, narsalarga nisbatan badiiy did bilan qarash va estetik jihatdan baho berish malakasini o'z ichiga oladi.

Tasviriy san'at va chizmachilik fani ya'ni ta'limning maqsadi o'quvchilarda badiiy, ahloqiy, texnik madaniyatni shakllantirishga yordam qiladi. Fan mazmunan tasviriy, dekorativ amaliy, memorchilik kabi san'at turlarini o'z ichiga oladi.

Chizmachilikdan o'quvchilarga murakkab bo'lmagan texnik chizmalarni bajarishga, o'qishga va o'z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga, kompyuter yordamida oddiy chizmalarni yasashga o'rgatishdan iborat.

Tasviriy san'at va chizmachilik fani ta'lim va tarbiya birligi muhim, bu fanning jihati hisoblanadi. Bugungi kunda hayotimiz turli jabhalarda o'zgarib bormoqda. Hozirgi zamonaviy ilg'or ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotimizda aniqlikka intilish, yangiliklardan xabardor bo'lish, tariximizni, o'tmishimizni, buyuk ajdodlarimizni, ularning fikr- g'oyalarini bilmog'imiz lozim.

Viloyat maktablaridan keladigan tasviriy san'at va chizmachilik o'qutuvchilari fanning maqsadini ham vazifalarini ham DTSda ko'rsatilganidek ajrata oladi. ammo o'quvchilarga shu fanlarni yanada chuqurroq bilim berishga, grafik savodxonligini oshirishga doimo ham kerakli e'tibor beravermaydilar. Shuning natijasida o'quvchilarning bilim darajasi, grafik savodi DTS talablaridan doimo orqada qolib, ta'lim va tarbiya birligi saqlanmay qolmoqda.

Tasviriy san'at fanidan o'quvchilar savodxonligi bugun jahon madaniyatining eng yuksak namunalarini ilg'ay oladigan bo'lishlari lozim, bunga avvalo o'qutuvchining o'zi tayyor bo'lmog'i kerak. Chizmachilik fanida ham ilg'or keyingi terminologiyalarning kirib kelishi ko'proq yangi materiallardan xabardor bo'lishni ta'lab etadi.

Tasviriy san'at va chizmachilik fanlari deyarli maktabda o'qitiladigan barcha fanlar bilan bog'langan holda olib boriladi. Bu fanni o'zlashtirishga agar o'qutuvchi to'g'ri metodikadan foydalansa samarali ta'sir ko'rsatadi.

Har qanday fan ta'lim-tarbiya birligini ta'minlab berilishini talab etadi. Dunyoda biron bir predmet yo'qki bir-birisiz yolg'iz rivojlana olsa. Tasviriy san'at fikr doirasini, chamalashni, hajmni, rangni o'rgatsa; chizmachilik aniq o'lchamlar asosida o'quvchi fazoviy tasavvurini kengaytiradi, o'quvchilarda ahloqiy, estetik, mehnat, ekologik va jismoniy tarbiyani amalga oshirishga muhim rol o'ynaydi.

Chizmachilik fani DTS talablari bo'yicha maqsad-vazifalarga erishishda ta'lim-tarbiya nazariyalari konsepsiyasi bo'yicha ko'rilgan masalalarga ijodiy yondoshuvni



2-TOM, 4-SON

o'rganib o'z ish faolitada qo'llab borishdan iborat.

Chunki, chizmachilik fanida fazoviy tasavvur, proyeksiyalash metodlari, o'lcham qo'yish, tutashmalar, aksonometrik proyeksiyalar, yaqqol tasvirlar, eskizlar, topografik va pnematik sxemalar, reja, fasad kabi qurilish chizmalari haqida ham tushunchalarni chuqurlashtirishlari lozim.

Chizmachilik fani nafaqat dizayn san'atini balki u estetik tarbiya masalalarini, milliy mafkura, g'oyaviy dunyoqarashni ham o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Fanning mazmuni kengayib bormoqda, tashqi informatsiyalar ko'paymoqda, o'quvchilarning ham dunyoqarashi kengayib, axborotlar zapasi oshmoqda. Shunday bo'lsada tasviriy san'at va chizmachilik fanlari bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonning u yoki bu tamoni takomillashtirish sohasida ilg'or o'qituvchilar ishini ma'lum darajada oshirish talablari rivojlanib zamonoviy talablarga to'g'ri keladigan qilib shakllantirish davr talabidir.

Rasm o'z nomi bilan qo'lda bajarilgan turli shakllarning qog'ozdagi tasviriga aytamiz. Jismning shaklini va o'lchamlarini ko'rsatadigan tekislikdagi tasvir chizma deyiladi! Rasm ishlashda narsa qo'yilishi, tasavvurdan chizilishi mumkin. Hozir yangi DTSda va dasturida 5ta bo'limga bo'lgan holda rasm darsi o'rganilishi kerakligi aytiladi, ya'ni:

Borliqni idrok etish (1-4 sinflar); Badiy ko'rish-yasash (1-4 sinflarda);
San'atshunoslik asoslari;

Naturaga qarab tasvirlash;

Kompozitsion faoliyat;

Shuni ham aytilish kerakki, rasmlarning bugungi kundagi olami yanada rang-baranglashdi, turli realistik san'at oqimlariga endi ko'pgina yangi-yangi avval bizga yot bo'lgan yo'nalishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Rasmlarni rushunish endi, fikrlash bilan ham to'la almashinmoqda deyish mumkin. Bolalar chizgan rasmida uning olami aks etishi hammamizga ma'lum narsa, lekin shu rasmni o'qituvchi tushunib yetmasa-chi? Uni to'g'ri baholay olmasa nima bo'ladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki bolalarni qalban majruh bo'lib qolishiga olib kelinadi. Aslida tasviriy san'at «... o'tgan davr bilan hozirga davr o'rtasidagi to'siqni olib tashlash orqali ta'sir ko'rsatsa, ikkinchidan kishilarni tasviriy san'at orqali olayorgan tajribalari rassom tamonidan anglab yetilgan va baholab bo'lingan bo'ladi, uchinchidan rassom tamonidan tamoshabinga berilayotgan shaxsiy tajriba muallif tamonidan tabaqalashtirilgan va umumlashtirilgan bo'ladi.», chunki bola olami ham fikridagini rasmida ifoda etishidir.

Shunday ekan rasm ishlash qoidalarini bilish muhim ahamiyatga ega, avvalo chizilayotgan narsani yoki kompozitsiyani daftar varag'ida to'g'ri joylashtira olish. Barcha



2-TOM, 4-SON

o'quv qurollarini maqsadga muvofiq tarzda ishga tayyorlash. Bu qalamni ushlabdan tortib planshetda ishni yakuniga yetkazgunga qadar bo'lgan vaqrlarni o'z ichiga oladi.

O'quv materiallaridan tashqari endi rasm chizish qoidalari alohida o'rin tutadi. Rang, soya, yorug', perspektiva, koloriti va hokazolarni ham bajarilish qoidasiga amal qilinmasa natija kutilgandek bo'lmaydi.

Chizma chizish qoidasi ham rasm qoidalari kabi bir-birini doimo to'ldirib boradi. Proyeksiyalar, eskizlar, texnik rasmlar hammasi chizma rasm qurollarida ishlanadi. Chizma asboblari o'z ish usullari bilan rasmdan biroz farqlanadi ya'ni, chizg'ich, qalam chiqarilishi, gotovalnik, reysshina va hokazolar.

Barcha rasm va chizma qoidalariga amal qilinishi keyingi ishning bir maromda borishini to'la ta'minlaydi.

Tasviriy san'at va chizmachilik ta'limining inson hayotidagi ahamiyati nihoyatda ulkandir. Chunki tasviriy san'at ham chizmachilik fani ham kishilar fazoviy tasavvurini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Chizmalarni bajarish, o'qish jarayonida bolalarning fazoviy tasavvuri va mantiqiy tafakkurini, texnikaviy ijodkorlikni, dizayn, loyihalash, bunyodkorlik sohasidagi bilimlarini rivojlantirib muhim bilimlar olishni shakllantiradi.

Maktab chizmachilik ta'limining maqsadi o'quvchilarni murakkab bo'lmagan texnik chizmalarni bajarishga, o'qishga va o'z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga o'rgatishdan iborat. Agar o'quvchi grafik savodxon bo'lsa hayotda barcha chizmaga oid ishlarni tezda tushunish va bajarib berish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Chunki biz texnikaviy axbo-rotlar jarayonida rivojlanishdamiz. Har yili minglab texnik terminlar hayotimizga kirib kelmoqda. Faqatgina keyingi mustaqilligimiz yillarida O'zbekiston Respublikasida qanchadan-qancha zavod va fabrikalar qurilib yangi-yangi mashinalar ishlab chiqarilmoqda. Bularni anglash va tushunib olishda tasviriy san'at va chizmachilik ta'limining ahamiyati kattadir.

Rasm solish ham o'qish, matematika, ona tili kabi o'qitiladigan mamlakag tez orada rivojlanib, eng oldindr boradigan bo'lar edi,- deb yozgan edi Deni Didro. Haqiqatdan ham tasviriy san'at va chizmachilik faninig inson hayotidagi ahamiyati juda katta. Chunki bola avvalo dunyoni rasmlardagi kabi idrok qiladi, ko'rgan narsasini qaytaradi ya'ni, psixologiyada amaliy tafakkur tushunchasi bo'yicha ushlab ko'rib, o'zi ijro etib o'rganadi. Hali yaratayotgan obrazlari abstrakt-mavhum holatda bo'lsada u qilgan ishdan estetik zavq oladi. bor- liqni o'zida aks ettiradi.

Tasviriy san'atni tushunish uning estetik tarbiya bilan uzviy big'liqligini san'atshunoslar Rempil, n. Abdullayev, T. Mahmudov va boshqalar bir necha bor asarlarida



2-TOM, 4-SON

aytib o'tganlar. Uslubiy jihatdan R. Xasanov, Q.Qosimov, S. Bulatov, A. Sulaymonov, B. Oripov, H. Egamov va boshqalar ham o'z kitoblarida keltirib o'tadilar.

Har buyumlarning loyihasini chizish, tuzish davrida rasmlar, eskizlar, sxemalar, chizmalar chiziladi. Umuman jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi bilan chizmalarning rasmiylashishi o'zgarib borgan. turli xildagi buyumlarni tasvirlash, rasmini chizish kishilarning uzviy aloqa vositasi sifatida hatto yozuv paydo bo'lishidan ham oldinroq vujudga kelgan. Shuningdek vaqt o'tishi bilan oddiy rasmlar o'rnini sxemalar, plan (rejalar) kabi chizmalar paydo bo'ldi va inson hayotini turli jihatlardan yaxshilash uchun xizmat qila boshladi. Demak, kishilik jamiyatiga san'at, go'zallik, dizayn kirib keldi.

Inson doimo o'z hayotini biron-bir tarzda go'zal qilishga intiladi – deyiladi manbalarda. Haqiqardan ham inson hamisha go'zallikka intilib yashagan va bu intilish hayot bor ekan davom etaveradi. Shuning atrofida tasviriy san'at umri boqiydir. O'zimizni chiroyli, go'zal qilish emas balki barcha narsalarimiz ham go'zal bo'lishini hohlaymiz. Bu hohish bizga juda katta ma'suliyat yuklaydi. O'z navbatida ta'lim-tarbiya shunday ma'suliyatning eng nodir, mustahkam himoyachisi va asosiy o'zagi bo'lib xizmat qiladi. Borliqdagi barcha narsalar uzviylikda rivojlanadi. Bunda tasviriy san'at va chizmachilik fanining ahamiyati kattadir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida hozir amalga oshirilayotgan islohatlar badiiy va dizayn ta'lim-tarbiya jarayoning oldingi holatiga nisbatan rivojlanayotgan, yaxshilanayotgan bo'lsada uni yanada rivojlantirish zaruriyatini ham keltirib chiqarmoqda.

Bu masalada tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisining roli katta. U chuqur bilimga ega bo'lishi uchun tinmay o'z ustida muntazam mashq qilib borishi, o'zining ilmiy-nazariy, amaliy bilim saviyasini takomillashtirib, ilg'or tajribalarni o'rganishi unga tayanishi lozimdir.

Har bir tasviriy san'at va chizmachilik darsini kerakli ko'rgazmali vositalar bilan boyitib, undan foydalanishi lozim. Chunki bu fanda ko'rgazmalar yordamchi emas balki ular dars uchun asosiy materiallardan biri bo'lib hisoblanadi.

Borliqni texnikani o'rganish uchun o'quvchilani komil shaxs qilib tarbiyalash uchun ularning o'quv faoliyatini faollashtirish davr talabidir, bu shundagina o'quvchi hayotiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Тошев И. И., Абдуллаев С. С. Торговые купола Бухары //Интернаука. – 2018. – №. 14-1. – С. 31-33.



2-ТОМ, 4-СОН

2. Тошев, И. И., Абдуллаев, С. С., & Бадриддинов, С. Н. (2022). Популярные памятники и достопримечательности Бухары (минарет Калян, торговые купола). *Universum: общественные науки*, (2 (81)), 7-10.
3. Абдуллаев, С. С., Бакаев, Ш. Ш., Остонова, Г. Р., & Шарипов, Ш. Ш. (2021). Орнаментальная символика в народном декоративно-прикладном искусстве Бухары. *European science*, (2 (58)), 17-19.
4. Абдуллаев, Сухроб Сайфуллаевич. "ЭСТЕТИКА ЦВЕТА В ВОСПИТАНИИ ПЛАСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ АРХИТЕКТОРА." *PEDAGOGS journali* 1.1 (2022): 384-386.
5. Абдуллаев С. С., Шарипов Ш. Ш. ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ НАРОДНОГО ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА //XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 80-85.
6. Абдуллаев С. С. РОЛЬ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВОСТОКА В СОЗДАНИИ СЮЖЕТОВ МИНИАТЮРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 100-108.
7. Laue S., Abdullaev S. S. Legends and True Stories about the Samanid Mausoleum //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 308-311.
8. Botirov, J. S., Bakaev, S. S., Avliyakov, M. M., Shirinov, A. L., & Abdullaev, S. S. (2021). The same goes for art classes in private schools specific properties. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol*, 27(2).
9. Abdullayev¹ S. F., Abdullayev S. S. TRANSLATION OF CULTURAL VALUES IN THE ARTISTIC HERITAGE OF TRADITIONAL APPLIED ARTS OF BUKHARA.
10. Абдуллаев С. С. РОЛЬ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВОСТОКА В СОЗДАНИИ СЮЖЕТОВ МИНИАТЮРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 100-108.
11. Jurayevich J. K., Sayfullayevich A. S. THE UNIQUE OF BUKHARA JEWS IN THE DYE INDUSTRY AND WEAVING CRAFT //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 48-53.
12. Sayfullayevich A. S. CHALLENGES OF TRAINING FINE ARTS TEACHERS IN THE PRESENT //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2023. – С. 348-353.



2-TOM, 4-SON

13. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10019.
14. Магдиева М. Э. Традиционное Искусство Ткачества //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 33. – С. 145-149.
15. Pirnazarov G. F., Mamurova F. I., Mamurova D. I. Calculation of Flat Ram by the Method of Displacement //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-39.
16. Olimov S. S., Mamurova D. I. Directions For Improving Teaching Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 9671–9678-9671–9678.
17. Aminov, A. S., Mamurova, D. I., & Shukurov, A. R. (2021, February). Additional and didactic game technologies on the topic of local appearance. In *E-Conference globe* (pp. 34-37).
18. Olimov S. S., Mamurova D. I. Information Technology in Education //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 17-22.
19. Mamurova D., Khusnidinova N. Didactic possibilities of using computer graphics programs in the educational process //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 84. – С. 02020.
20. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. The importance of using the keys-stadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 335-338.
21. Khodjayeva N. S., Yakhyayeva M. T. Calculate Exact Integrals in the Visual Basic Window of Excel //International Journal on Orange Technologies. – 2021. – Т. 3. – №. 3. – С. 172-177.
22. Khodjayeva N., Sodikov S. Methods and Advantages of Using Cloud Technologies in Practical Lessons //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 77-82.
23. Khodjayeva, Nodira. "THE URGENCY OF AUTHENTIC MATERIALS IN PROSPECTIVE FOREIGN LANGUAGE TEACHING." *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры* 3.5 (2023): 77-80.
24. Ходжайева Н. С. et al. HTML ELEMENTLARI VA ATRIBUTLAR //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 115-119.



2-TOM, 4-SON

25. Rajabov T. I. The role of bukhara folklore songs in youth education in the system of continuous education. – 2022.
26. Rajabov T. I., Rutamova M. F. The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education is an Urgent Pedagogical Problem //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 404-408.
27. Rajabov, T. I., & Oripov, N. O. (2022). Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a Dolzarb Methodological Problem. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 409-412.
28. Rajabov, T. I., & Rajabov, J. I. (2022). The Formation of Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs is an Urgent Pedagogical Problem. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(1), 331-335.
29. Ibodovich, T. R. (2022). PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
30. Ibodovich, R. T. (2021). The Educational Significance of Children's Folk Songs in Music Culture Lessons. *European Scholar Journal*, 2(6), 139-141.
31. Umedulayevna, S. S. (2023). Didactic Principles of Teaching Constructive Design Tasks in Drawing Lessons. *Miasto Przyszłości*, 35, 430-432.
32. Umedulayevna, S. S. (2023). Methods and Technologies for Using Constructive Design Issues in Drawing Lessons. *Miasto Przyszłości*, 35, 433-436.
33. Mamurova, F. I., & Sobirova, S. U. (2020). Shadow formation in perspective. *International Engineering Journal for Research & Development*, 5(4), 5.



2-TOM, 4-SON

**КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ
ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ**

Асадов Мухсинжон Нуриддин ўғли
Осиё халқаро университети магистранти

Ҳозирги кунда жаҳон иқтисодиётига хос бўлган глобаллашув жараёнида Ўзбекистон учун ташқи иқтисодий фаолиятни либераллаштириш, миллий иқтисодиётда ташқи савдо стратегиясини экспортга йўналтириш ва рақобатбардошлигини ошириш орқали жаҳон бозорида мустаҳкам ўринни эгаллаш муҳим аҳамият касб этади.

Мамлакатнинг ташқи савдо алоқаларини ривожлантиришда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини янада юксалтириш, ушбу секторнинг ташқи савдо айланмасидаги улушини кескин ошириш муҳим роль ўйнайди. Бу мақсадга эришиш учун кичик ва хусусий тадбиркорлик субъектлари томонидан замонавий, чет эл бозорларида рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтириш ва уни экспортга чиқариш учун зарур шарт-шароитлар яратиш, ҳуқуқий, молиявий ва ташкилий ёрдам кўрсатиш, мамлакатимизнинг экспорт қилувчи тадбиркорларини ташқи бозор конъюнктураси ўзгаришлари хавф-хатарларидан ишончли ҳимоя қилишни таъминлаш масалаларига эътиборни кучайтириш лозим.

Сўнгги йилларда республикамизнинг бир қатор иқтисодчи олимлари томонидан ташқи иқтисодий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқаришни ривожлантириш масалаларига бағишланган кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борилган. Жумладан, М.Болтабаев, Н.Сирожиддинов ва бошқалар ўз асарларида маркетинг тизимини корхона экспорт салоҳиятини кучайтиришнинг илғор усули эканлигига катта эътибор қаратилган. А.Бекмуродов, Р.Турсунов, И.Хотамовнинг ишларида GM-Uzbekiston қўшма корхонасининг ташқи иқтисодий фаолияти ўрганилган, таҳлил қилинган ва уни ривожлантириш истиқболлари аниқланган.

Иқтисодиётни диверсификация қилиш, ижтимоий-иқтисодий ислохотларга кенг урғу бериш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришни янги босқичга олиб чиқиш борасидаги ўзгаришлар янада долзарб аҳамият касб этмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 20 августдаги мамлакатимиз тадбиркорлари билан очик мулоқот шаклидаги учрашувда сўзлаган нутқида, бизнесни молиялаштириш, молия-кредит ва солиқ тизимини такомиллаштириш, бизнесга солиқ юкини имкон қадар камайтириш, ер ажратиш



2-TOM, 4-SON

масаласи, бизнес учун зарур бўлган инфратузилмани ривожлантириш, экспортёр корхоналарни кўллаб-қувватлаш, кичик бизнесни экспорт фаолиятига кенг жалб этиш, маҳсулотларимиз рақобатбардош бўлиши, янги бозорларга чиқиши, худудлараро савдо ва кооперация алоқаларини боғлашда транспорт-логистика тизимини такомиллаштириш, тадбиркорлик фаолиятига аралашувларни қисқартириш, соҳадаги тартиб-таомилларни соддалаштириш, хусусий мулк дахлсизлиги борасидаги сиёсатни қатъий давом эттириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликка берилган эркинлик миқёсини кенгайтириш, давлат идоралари аралашувини тубдан қисқартириш, ҳуқуқбузарликлар олди олинишини таъминлаш, уларнинг профилактикаси самарадорлигини ошириш ва ноқонуний аралашувларга йўл қўймаслик давлат сиёсатининг устувор йўналиши ва давлат органларининг биринчи даражали вазифаси этиб белгиланди.

Мамлакатимиз экспорти ва импортнинг товар ва географик таркибини такомиллаштириш борасида янги бозорлар, янги транспорт йўлакларини топиш, бир сўз билан айтганда фаол маркетингга асосланган ташқи иқтисодий сиёсат юргизиш зарур.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари кўпроқбозор шароитларига мослашган, улар мослашувчан бошқарув тизимига эга, лекин йирик корхоналарга ўхшаб катта молиявий, иқтисодий ва ишлаб чиқариш қувватига эга эмас. Бундай муаммо Ўзбекистоннинг чекка вилоятларида кенг тарқалган, айниқса, улар сифати паст, халқаро стандартларга мос келмайдиган, қайта ишлаш даражаси юқори бўлмаган маҳсулотларни ишлаб чиқарувчи корхоналардир.

Ташқи савдо айланмасини диверсификацияси, яъни хорижга экспорт – импорт қилинаётган товар ва хизматлар номенклатурасининг кенгайиши, жами экспортда алоҳида товар ёки хизмат тури (айниқса, хомашё) улушининг катта бўлишига барҳам берилиши, маҳсулотларимиз экспорт қилинаётган мамлакатлар географиясини кенгайтириш экспорт ҳажмининг барқарор бўлишини таъминлайди, миллий иқтисодиётнинг ташқи бозордаги салбий ўзаришларга таъсирчанлиги даражасини пасайтиради.

Ташқи савдо айланмаси диверсификацияси – экспорт ва импортнинг товар номенклатурасини ва ҳамкор давлатлар сонининг кенгайтирилиши. Экспорт таркибида бир ёки бир неча товарлар улушининг сезиларли даражада ортиб кетиши бу товарлар нархи пасайган ёки уларга ташқи талаб қисқарган ҳолатларда экспортчи корхоналарни оғир аҳволга солиб қўйиши мумкин. Бунинг натижасида экспорт ҳажмининг қисқариши валюта тушумларининг камайиши, ташқи савдо балансининг



2-TOM, 4-SON

ёмонлашуви ва корхоналар молиявий аҳволининг тангликка юз тутишига олиб келиши мумкин.

Шунингдек, экспорт умумий ҳажмининг кам сонли давлатларга боғланиб қолиши ҳам қалтис ҳолат ҳисобланади. Хорижий давлатларда мамлакатимизда ишлаб чиқарилаётган, ёки ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш мумкин бўлган маҳсулотларга бўлган талабни ўрганиш, бундай товарлар бозорига кириб бориш ва рақобат қилиш стратегиясини ишлаб чиқиш экспорт қилинаётган товарлар сонини ва мамлакатлар географиясини кенгайтиришга ижобий таъсир кўрсатади.

Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари асосан озиқ-овқат маҳсулотлари, кимё ва ундан тайёрланган маҳсулотлар, тўқимачилик маҳсулотлари, металллар ва улардан тайёрланган маҳсулотларни ҳамда турли хизматларни экспорт қилади. Экспорт қилинадиган товарлар ҳажмининг сезиларли улуши кимё ва ундан тайёрланган маҳсулотлар, қора ва рангли металллар ҳамда хизматлар соҳасига тўғри келади. 2020 йилда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт ҳажми мамлакатдаги барча корхоналар томонидан хорижга экспорт қилинаётган товарлар умумий ҳажмининг қарийб 2,5 фоизини ташкил этди. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари томонидан экспорт қилинадиган маҳсулотларнинг катта қисми чуқур қайта ишланмаган ва юқори қўшимча қийматга эга бўлмаган хомашёлар ҳисобланади. Бундай вазият мамлакатда экспортга юқори технологияли маҳсулотларни сотишга йўналтиришга қаратилган кескин чоралар ишлаб чиқишни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ruzmetov, B., Ruzmetov, S., Bakhtiyarov, S., Dzhumaeva, Z., & Juraev, K. (2023). Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 01001). EDP Sciences.
2. Жумаева, З. (2023). МИРОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *Nashrlar*, 318-321.
3. Jumayeva, Z. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE INDUSTRIES AS A FACTOR OF GROWTH OF NATIONAL ECONOMY: REVIEW OF FOREIGN EXPERIENCE AND PROSPECTS FOR THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 241-246.
4. Жумаева, З. К. (2024). Необходимость инновационного подхода в управлении организациями.
5. Жумаева, З. К. (2016). Эффективность стратегического управления предприятием. *Наука и образование сегодня*, (2 (3)), 60-62.
6. Jumayeva, Z. Q. (2017). THEORIES OF ENSURE STABILITY IN LABOUR MARKETS OF DEVELOPED COUNTRIES. *Инновационное развитие*, (4), 64-66.
7. Жумаева, З. К., & Расулова, Н. Н. (2019). Инновационный путь развития экономики Узбекистана. *Теория и практика современной науки*, (5 (47)), 224-226.



2-TOM, 4-SON

QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA DEHQONCHILIK MAHSULOTLARINI
YETISHTIRISH – OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH GAROVI

Dedajanova Xilola Baxtiyor qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti 1b-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda dehqonchilik sohasining ahamiyati, yetishtirilayotgan ayrim turdagi mahsulotlarning hajmi, hududlar bo'yicha tahlillari keltirilgan. Shuningdek, dehqonchilik sohasidagi ayrim muammolar ko'rsatib o'tilgan va tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlari, sog'lom ovqatlanish, dehqonchilik, sabzavotlar, eksportga yo'naltirish, innovatsiyalarni joriy etish axborotlar bilan ta'minlash bozor kon'yunkturasidan bexabarlik

Abstract: The importance of the agricultural sector in providing the population with food products, the volume of certain types of products, and regional analyzes are presented in the article. Also, some problems in the field of agriculture were pointed out and relevant recommendations were given.

Key words: food products, healthy eating, agriculture, vegetables, export orientation, introduction of innovations, information provision, ignorance of the market situation

KIRISH

Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugun kurrai zamin aholisining 40 foizi aynan shu soha orqali tirikchilik qiladi. Bu qashshoq qishloqlardagi oilalar uchun daromad keltiruvchi va bandlikni ta'minlovchi asosiy manbadir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda asosan lalmi bo'lgan besh million kichik fermer xo'jaliklari oziq-ovqatning 80 foizini yetkazib beradi. SHunday ekan, mazkur jabhaga investitsiya kiritish aholi qatlamlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qatorida mahalliy va tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish bo'yicha mamlakat imkoniyatlarini oshiradi [7].

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligini yanada samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, qishloqda aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanishni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "Bizning yurtimizdan yetishib chiqqan, G'arbda "Avitsenna" degan nomi bilan shuhrat qozongan buyuk alloma Ibn Sino bobomiz



2-TOM, 4-SON

o'rta asrlardayoq "Kimki uzoq va sog'lom hayot kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e'tibor qaratsin", deb ta'kidlaganlar.

Albatta, dunyo aholisi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish – uzoq davom etadigan jarayon. Bu maqsadga erishishda barcha davlatlar hukumatlari, ishlab chiqaruvchilar, olimlar va tibbiyot xodimlari yaqin hamkorlikda ish olib borishlari lozim, deb hisoblaymiz" [1].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish jarayonlaridagi mavjud muammolarni bartaraf etish hamda sohani rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri deya olamiz.

Asosiy qism

Bugungi kunda Yer yuzida 600 million aholi me'yoridan ko'p ovqat iste'mol qilishi qayd etilgan. Xususan, AQSh hissasiga yuz million kishi to'g'ri keladi. Yevropa va SHimoliy Amerika mamlakatlarida aholi ko'p ovqat yeyayotgan bir vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda ovqatlanish yashab qolishning bir imkoni sifatida ko'rilmogda. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda sayyoramiz aholisining 30 foizi to'yib ovqat yemaydi. Jahonda bolalar o'limining 55 foizi to'yib ovqatlanmaslik oqibatida sodir bo'lmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligiga bosim kuchayib borayotgan va global oziqlanish maqsadlari uchun belgilangan muddatlar tez yaqinlashayotgan bir paytda, hukumatlar va ularning gumanitar hamkorlari xalqaro darajada yechim topishda qishloq xo'jaligi, suv resurslari va boshqa tarmoqlarda bir birini to'ldirish imkoniyatlarini ishga soladigan payt keldi, deyish mumkin [2].

Oziq –ovqat mahsulotlarini yetishtirishda dehqonchilikning sezilarli ahamiyati bor. Bugungi kunda respublikamiz dehqonchilik sohasida mahsulot yetishtirishda o'sish dinamikasini ko'rish mumkin. Bu aholini mazkur soha mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga harakat qilinayotganligidan dalolat beradi.

2023 yilning yanvar-dekabrida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 8 426,6 ming t. donli ekinlar (2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,5 % ga ko'p), 3 574,1 ming t. kartoshka (3,8 % ga ko'p), 11 553,7 ming t. sabzavotlar (3,5 % ga ko'p), 2 553,5 ming t. poliz (5,5 % ga ko'p), 3 121,7 ming t. meva va rezavorlar (4,1 % ga ko'p), 1 737,6 ming t. uzum (1,3 % ga kam) yetishtirildi [8].

1-jadval

2023 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari



2-TOM, 4-SON

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		fermer xo'jaliklari	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
Donli ekinlar	8 426,6	105,5	6 599,8	104,0	795,7	108,8	1 031,1	112,8
Sabzavotlar	11553,7	103,5	4 173,4	103,3	6 924,0	102,7	456,3	120,0
Kartoshka	3 574,1	103,8	994,1	109,5	2 498,6	101,5	81,4	111,1
Poliz ekinlari	2 553,5	105,5	1 418,2	108,0	1 016,3	101,9	119,0	108,0
Meva va rezavorlar	3 121,7	104,1	1 415,0	105,9	1 605,4	103,2	101,3	95,1
Uzum	1 737,6	98,7	777,1	97,5	911,0	99,5	49,5	102,5

2023 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 78,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 9,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 12,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. SHunga mos ravishda sabzavotlarning 36,1 % i fermer xo'jaliklariga, 59,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi[8].

2023 yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan sabzavotlar 11 553,7 ming tonnani, yoki 2022 yilning mos davri bilan solishtirganda 103,5 % ni tashkil etdi.

2022 yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 3,3 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,7 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 20,0 % o'sish qayd etildi.

2-jadval

Hududlar kesimida sabzavotlar yetishtirish

Hududlar	Ming tonna
Andijon	1772,6



2-TOM, 4-SON

Samarqand	1576,7
Farg'ona	1319,0
Surhondaryo	1169,2
Toshkent	1155,7
Namangan	989,3
Buxoro	914,6
Xorazm	653,4
Qashqadaryo	559,3
Jizzax	472,9
Navoiy	335,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	333,4
Sirdaryo	302,6

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Andijon viloyati (15,3 %) hissasiga to'g'ri keldi. SHu bilan birga, yuqori ulush Samarqand (13,7 %), Farg'ona (11,4 %), Surxondaryo (10,1 %) va Toshkent (10,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyati (2,6 %) Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatida (2,9 %) kuzatildi.

2022 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (105,5 %), Toshkent (104,8 %), Qashqadaryo (104,8 %), Navoiy (104,6 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (104,5 %), Jizzax (104,1 %), Namangan (104,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan sohada mahsulot yetishtirish hajmini oshib borayotganligini ko'rish mumkin, lekin bu soha kamchiliklardan xoli degani emas. Tahlillarga ko'ra, dehqonchilik sohasida uni rivojlanishiga to'siq bo'luvchi– eksportga yo'naltirish, innovatsiyalarni joriy etish [3,6], axborotlar bilan ta'minlash [4,5] kabi ayrim muammolar bor. Shuningdek – yerning unumdorligini pasayishi, tabiat injiqliklarining salbiy ta'siri, ayrim hududlarda sug'orish bilan bog'liq muammolar, turli ta'sirlarga chidamli navlarni yaratishga ehtiyojni borligi, bozor kon'yunkturasidan bexabarlik tufayli o'z qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda qiyinchiliklarga duch kelish va boshqa shu kabi muammolar ham mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun dehqonchilik sohasida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish ijobiy natija beradi deb o'ylaymiz: qishloq xo'jaligi mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab



2-TOM, 4-SON

chiqish va uni qayta ishlashni barqaror rivojlantirish, agrosanoat sohasini rivojlantirish va sohadagi innovatsiyalarni qo'llashni jonlantirish; agrosanoat sohasi infrastrukturasi rivojlantirish; qishloq xo'jaligi sohasidaga ilg'or yangiliklarni amalga oshirishni rag'batlantirish, investitsiyalar yo'naltirish; yerlarning sifatini yaxshilash va ulardan samarali foydalanish tadbirlarini amalga oshirishni kuchaytirish va boshqa shu kabilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича халқаро конференция иштирокчиларига. <https://president.uz/uz/lists/view/6645>
2. Шарипов Қ. Халқаро форматдаги озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда бир-бирини тўлдириш ҳамкорлиги. <https://yuz.uz/news/xalqaro-formatdagi-oziq-ovqat-xavsizligini-taminlashda-bir-birini-toldirish-hamkorligi>
3. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТ В НАУКУ № 3 (27) 2019. [https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)
4. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
5. Dedajanov, B., & Sobirov, M. (2021). The essence of innovative activity and analysis indicators. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1978-1990.
6. Dedajanov, B. N., & Ergasheva, F. I. (2019). ISSUES OF SUPPORT AND STIMULATION OF EXPORTING ENTERPRISES AND WAYS OF THEIR ELIMINATION. *Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. Вступление. Пут в науку*, (3), 92-103.
7. Холмурадов Р. ва бошқалар. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш – давр талаби. <https://xs.uz/uzkr/post/oziq-ovqat-khavfsizligini-taminlash-davr-talabi>.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>



2-TOM, 4-SON

NERV TIZIMI VA KO'Z KASALLIKLARIGA OLIB KELADIGAN NOTO'G'RI
TUZILGAN DARS JADVALI.

Go'zal Toshmatova.

Ilmiy rahbar Atrof-muhit gigiyenasi kafedrası. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi.
O'zbekiston, Toshkent

**Nazarova Nasiba Islamovna,
Akromova Mohina Baxromjonova**

2-Kurs talabalari, <Davolash ishi> fakultiteti, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi.
O'zbekiston, Toshkent

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ish maktab o'quvchilarining maktabga qiziqishlarini tushirishga sabab bo'layotgan manbaani aniqlashga bag'ishlanadi.

Tayanch tushunchalar: Ko'z kasalliklari, nerv tizimi, dars jadvali, maktab, o'zlashtirish, maktabga qiziqish, fikrni jamlay olmaslik, ustoz va o'quvchi, o'zlashtirilishi qiyin fanlar, o'zlashtirilishi oson fanlar.

Аннотация: Данная научная работа посвящена выявлению источника, вызывающего снижение интереса школьников к школе.

Ключевые слова: Заболевания глаз, нервная система, расписание уроков, школа, обучение, интерес к школе, неспособность сконцентрироваться, учитель и ученик, сложные предметы, легкие предметы.

Annotation: This scientific work is devoted to identifying the source that causes a decrease in schoolchildren's interest in school.


Keywords: Eye diseases, nervous system, lesson schedule, school, learning, interest in school, inability to concentrate, teacher and student, difficult subjects, easy subjects.

DOLZARBLIGI.


Institut tadqiqotlari natijasiga ko'ra, hududlar kesimida a'lo baholarga o'qiydigan o'quvchilarning yuqori ulushi Andijon (59,4 foiz) va Navoiy (57,4 foiz) viloyatlarida kuzatilgan. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi umumta'lim muassasalari reytingini e'lon qildi. Reytingda eng oxirgi o'rinlarni Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari band etdi. Reyting 207 ta tuman va shaharlarda joylashgan 9 622 ta maktab faoliyati tahlili asosida chiqarilgan, bu orqali viloyatlar, tuman shaharlardagi ta'lim sifatiga baho berilgan.



2-TOM, 4-SON



Eng past baholarga o'qiydigan o'quvchilar ulushi esa Toshkent shahri (15,4 foiz), Farg'ona (12,8 foiz), Sirdaryo (12,5 foiz) va Xorazm (12,4 foiz) viloyatlarida qayd etilgan, To'rt bahoga o'qiydiganlar 36,4 foizni, uch bahoga o'qiydiganlar 10,3 foizni tashkil etadi.



Ma'lum bo'lishicha, muvaffaqiyatsiz bo'lganlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'i salohiyatli, lekin bu qobiliyatlar tomonidan ishlab chiqilmagan turli sabablarga ko'ra.



2-TOM, 4-SON

Ehtimol, bu sabablardan biri qobiliyatsizlik edi (va ba'zan hatto istamaslik) bolangizga o'z vaqtida yordam ko'rsatish ta'lim faoliyati.

Tadqiqotning maqsadi.

Maktab o'quvchilarini maktabga qiziqishlarini oshirish va o'quvchilar orasida kasalliklar oldini olish.

Tadqiqot metodologiyasi va materiallari.

Tadqiqot mobaynida kuzatish, solishtirish, suhbat, statistikasi tahlil qilish va o'zlashtirishni aniqlash uchun testlardan foydalanilgan. Tadqiqot manzili Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 23-umum ta'lim maktabi bo'lib 8-sinflar orasida o'tkazilgan. Bunda biz 8-sinf o'quvchilarining dars jadvali va o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshirdik.

Tahlil va natijalar.

Birinchi navbatda biz 8-sinf o'quvchilarining dars jadvali bilan tanishdik.

Dushanba	Ona tili
	Jismoniy tarbiya
	Ingiliz tili
	Rus tili
	Fizika
	Algebra

Payshanba	Ona tili
	Rus tili
	Ingiliz tili
	Jahon tarixi
	Adabiyot
	Geometriya

Seshanba	Geografiya
	Ingiliz tili
	Texnologiya
	Algebra
	Biologiya

Juma	Sinf soati
	O'zbekiston tarixi
	Ona tili
	Biologiya
	Kimyo
	Chizmachilik

Chorshanba	Jismoniy tarbiya
	Adabiyot
	Huquq
	Iqtisod
	Kimyo

Shanba	Geometriya
	Fizika
	Informatika
	Algebra
	Tarbiya

Bunda biz ko'rishimiz mumkin:

1. Dushanba kunida 3 ta til darslari deyarli ketma ket kelib qolganini,
2. O'zlashtirilishi qiyin bo'lgan fanlar (Algebra, Fizika) dars jadvalida oxirgi o'ringa tushib qolganini,
3. O'zlashtirilishi qiyin bo'lgan fanlar (Algebra, Fizika) dars jadvalida ketma ket qo'yilganini,
4. Payshanba kunida 3 ta til darslari ketma ket kelib qolganini,
5. O'zlashtirilishi qiyin bo'lgan fanlar (Algebra, Fizika) dars jadvalida oxirgi o'ringa tushib qolganini,
6. Shanba kunida o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan fanlar (Algebra, Fizika, Informatika, Geometriya) dars jadvalida oxirgi o'ringa tushib qolganini,



2-TOM, 4-SON

7. O'zlashtirilishi qiyin bo'lgan fanlar (Algebra, Fizika, Informatika, Geometriya) dars jadvalida ketma ket qo'yilganini,

8. O'quvchilarning o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan kun (shanba kuni) dars jadvalida asosan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan fanlar (Algebra, Fizika, Informatika, Geometriya) darslari qo'yilganligini,

9. Oquvchilarning o'zlashtirilishi oson bo'ladigan kunlari (Seshanba va Chorshanba kunlari) oson darslar qoyilganligi.

10. O'quvchilar 1-sinfдан beri o'z joylarini almashtirilmaganligi.

Buning natijasida esa o'quvchilar orasida maktab darslariga qiziqmaslik, maktabdan qochish, maktabda stress holatlari, maktabda o'quvchilar orasida urushlarning ko'payishi, davomatning keskin tushib ketishi, ko'z qorachig'ining g'ilaylashishi, miopiya kasalligi, o'zlashtirilish darajasi pasayishi va o'quvchilar maktabga ajratishi kerak bo'lgan vaqtini boshqa samarasiz narsalarga sarflashi kelib chiqyapti. O'quvchilar orasida video o'yinlar ommalashishi ularning nerv sistemasiga va ko'rish sistemasiga jiddiy ta'sir etmoqda, bundan tashqari esa o'quvchilar o'tirish qoidalariga rioya qilmaganliklari uchun umurtqa pog'onasi noto'g'ri shakllanishi ko'paymoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Гигиена с основами экологии человека [Электронный ресурс]: учебник / Под ред. Мельниченко П.И. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2013.

2. Гигиена [Текст]: учебник / [Г. И. Румянцев и др.]; под общ. ред. Г. И. Румянцева. - Изд. 2-е, перераб. доп. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009. - 607, [1] с

3. Гигиена и основы экологии человека [Текст]: учебник / Ю. П. Пивоваров, В. В. Королик, Л. С. Зиневич; Под ред. Ю. П.

4. Руководство к практическим занятиям по военной гигиене [Электронный ресурс]: учебное пособие / Архангельский В.И., Бабенко О.В. - М.: ГЭОТАР- Медиа, 2015

5. Вяткин Б.А., Щукин М.Р. Психология стилей человека: учеб. пособие / Рос. акад. образования; Перм. гос. гуманит.-пед. ун-т. — Пермь: Книжный мир, 2013. — 128 с.

6. Мерлин В.С. Очерк интегрального исследования индивидуальности. — М.: Педагогика, 1986. — 256 с. Вяткин Б.А., Щукин М.Р. Человек — стиль — социум: полисистемное взаимодействие в образовательном пространстве: моногр. — Пермь, 2007. — 108 с.

7. Мерлин В.С., Вяткин Б.А. Темперамент // Общая психология: учеб. для студентов пед. ин-тов / под ред. проф. А.В. Петровского. — Изд-е 2-е, доп. и перераб. — М.: Просвещение, 1976. — С. 405–421.



2-TOM, 4-SON

УДК: 528.576.1.045

ЕР КАДАСТРИ ХУДУДЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ҚОНУНИЙ
МЕХАНИЗМИ

т.ф.ф.д., (PhD) Юнусов Бегенч Мавланбердиевич.

Давлат кадастрлари палатаси бош мутахассиси

Аннотация. Ер ҳисобини тўғри замонавий усулларда юритиш ва, ер майдонларини тўлиқ хатловдан ўтказиш ҳамда ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш, ер кадастри қонуниятларининг ҳудудларда иқтисодий барқарорликни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан мақолада кадастр индикаторларининг иқтисодий самарасини ошириш, ҳудудларда иқтисодий ривожлантириш услубларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш юзасидан маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: Кадастр, давлат кадастрлари, давлат кадастрлари ягона тизими, ер ҳисоби, кадастри тизими, ижтимоий-иқтисодий барқарорлик, ҳудуд, самарадорлик.

ЗЕМЕЛЬНЫЙ КАДАСТР, ПРАВОВОЙ МЕХАНИЗМ
ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. Ведение земельного учета правильными современными методами, проведение полного обследования земельных площадей и рациональное использование земельных ресурсов, земельно-кадастровое законодательство имеют важное значение в обеспечении экономической стабильности в регионах. С этой точки зрения в статье представлена информация о повышении экономической эффективности кадастровых показателей, разработке методов экономического развития регионов и их использовании.

Ключевые слова: Кадастр, государственные кадастры, единая система государственных кадастров, земельный учет, кадастровая система, социально-экономическая стабильность, территория, эффективность.

LAND CADASTRE, LEGAL MECHANISM FOR TERRITORIAL
DEVELOPMENT

Annotation Maintaining land records using correct modern methods, conducting a complete survey of land areas and rational use of land resources, land cadastral legislation



2-TOM, 4-SON

are important in ensuring economic stability in the regions. From this point of view, the article provides information on increasing the economic efficiency of cadastral indicators, developing methods for the economic development of regions and their use.

Key words: Cadastre, state cadastres, unified system of state cadastres, land registration, cadastral system, socio-economic stability, territory, efficiency.

Кириш. Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 30 апрелдаги (янги тахрирдаси Кучга кириш санаси 01.07.1998) ер кодексининг 15-моддасига биноан “Давлат ер кадастри ерларнинг табиий, хўжалик ва ҳуқуқий режими, уларнинг тоифалари, сифат кўрсаткичлари ва баҳоси, ер участкаларининг жойлашган манзили ва ўлчамлари, уларни ер эгаларига, ердан фойдаланувчиларга, ижарачиларга ҳамда мулкдорларга тақсимлаш тўғрисидаги зарур, ишончли маълумотлар тизими келтирилган унга кўра давлат ер кадастри Ўзбекистон Республикаси давлат кадастрларининг ягона тизимига кирувчи давлат ва тармоқ табиат ресурслари кадастрларининг асосидир[1]. Давлат ер кадастри ерларининг ҳуқуқий тартиби, уларни эгаллик қилувчиларга, фойдаланувчиларга, ер тоифаларига қараб тақсимлаш тўғрисидаги ерларнинг сифат тавсифи ва халқ хўжалик қиймати тўғрисидаги зарур маълумотлар ва ҳужжатлар тизимидан иборат[2].


Айни дамда ер ресурслари миқдорининг чегараланганлиги сабабли улардак оқилона ва самарали, давлат ва халқ манфаатларига тўла жавоб берадиган тарзда фойдаланиш жуда мураккаб вазифа бўлиб, бу вазифани амалга ошириш аниқ ва изчил ҳуқуқий тартиботни талаб этади. Ҳозирги ижтимоий-иқтисодий тараққиёт, бозор иқтисодиёти талаблари ҳар бир квадрат ердан ўзининг табиий - иқлимий, ҳосилдорлик даражасидан, давлат ва жамоат манфаатларидан келиб чиқиб илмий асосда аниқ мақсад билан оқилона фойдаланишни тақозо этмоқда.

Шуни ҳисобга олиб ер кадастри тизими иқтисодий механизми ернинг ўзига хос хусусиятлари билан ўзаро боғлиқлиги ифодаланган бўлиб, бунда ер кўпмақсадли ва кўпфункционал объект сифатида қаралмоқда ва унинг тўртта қирраси (1–расм), улар “табиий ресурс”, “иқтисодий ресурс-капитал”, “ернинг бозор қиймати” ва “инвестиция ресурслари” сифатидаги хусусиятлари ҳар бири бўйича алоҳида таҳлил қилишни тақозо қилади. Таҳлил натижаларига кўра, улар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик ва ернинг кўпфункционаллик хусусиятлари, ҳудудларда аҳолининг ердан фойдаланиш тенденциясига мос равишда уларга қўшимча томорқа ер ажратиш, ер кадастри тизимининг иқтисодий механизмида ўз аксини топишининг ўзига хос модели сифатида баҳолаш мумкин. Ернинг ҳисобини аниқ юритиш ва самарали



2-TOM, 4-SON

фойдаланиш қишлоқ хўжалиги, тадбиркорлик, ишлаб чиқариш, қурилиш, геология каби кўплаб соҳалар учун жуда муҳим ҳисобланади, шу пайтгача республикада худудий бўлинишлари муммоли туманлар ва маҳалла чегаралари бор (1-жадвал).



1–расм. Ер кадастри тизимининг худудларни ривожлантиришга таъсири қонунияти

Ерлар ҳисобини олиш, Давлат ер кадастри Давлат кадастрлари ягона тизимининг асосий таркибий қисми ҳисобланиб, у ерларнинг табиий, хўжалик, ҳуқуқий режими, тоифалари, сифат хусусиятлари ва қиммати, ер участкаларининг ўрни ва ўлчамлари, уларнинг ер эгалари, ердан фойдаланувчилар, ижарачилар ва мулкдорлар ўртасидаги тақсмоти тўғрисидаги маълумотлар ҳамда ҳужжатлар тизимидан иборатдир. Давлат ер кадастри ер участкаларига бўлган ҳуқуқларнинг давлат рўйхатидан ўтказилишини, ерларнинг миқдори ва сифатининг ҳисобга олинишини, тупроқ бонитировкасини, ерларнинг қиймат баҳосини, шунингдек ер кадастрига доир ахборотлар бир тизимга солиниши, сақланиши ва янгилаб турилишини ўз ичига олади. Ерларнинг миқдори ва сифатини ҳисобга олиш уларнинг ҳақиқий ҳолати ва улардан фойдаланилишига қараб, ер участкалари ва майдонлари, Бекобод тумани, Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилояти бўйича амалга оширилди. Ер участкалари ва ердан фойдаланувчилар бўйича ер миқдорини ҳисобга олиш ер участкаларининг ўлчами, уларнинг қиммати ва талаб қилинадиган ўлчаш



2-TOM, 4-SON

аниқлигига қараб, геодезик ёки картометрик усулларда амалга оширилади, ер майдонлари бўйича ер миқдорини ҳисобга олиш ер участкалари доирасида асосан картометрик усулда амалга оширилади[5].

Давлат ер кадастри юритиш вазифаси юклатилган тегишли органларга ер участкаларининг эгалари, улардан фойдаланувчилар, ер участкаларининг ижарачилари ва мулкдорлари содир бўлган ўзгаришлар тўғрисида бир ой муддатда ахборот беришлари шарт, ерларнинг ўлчами, жойлашган ўрни, майдон турлари ва сифат ҳолатига оид қайд этиладиган маълумотлар ерни ҳисобга олиш ахборотини ташкил этади

1-жадвал

Маҳалланинг чегараларини белгилашда маҳалла ҳудуди чизмасини тайёрлаш бўйича маълумот

№	Туманлар номи	Жами маҳаллалар сони	Маҳаллалар чегараларини белгилаш ишлари бажариладиган жами туман ва маҳаллалар сони		маҳалла чегараларини белгилашда 2023 йилнинг 28-Ноябр ҳолатига амалда бажарилган ишлар		
			Туманлар сони	Маҳаллалар сони	ГИС база	Схема	Тавсифлар
Республика бўйича		2 340	48	2 380	2 316	2 086	1 891
1	Андижон вилояти	224	4	224	224	224	224
2	Бухоро вилояти	316	7	316	316	316	264
3	Фарғона вилояти	125	2	125	119	119	119
4	Жиззах вилояти	91	4	92	92	92	92
5	Наманган вилояти	394	6	394	393	393	250
6	Навоий вилояти	190	4	190	190	190	190
7	Сурхондарё вилояти	449	9	449	451	221	221
8	Тошкент вилояти	438	9	438	379	379	379
9	Тошкент шаҳри	113	3	152	152	152	152

Ер ҳисобини аниқ бажариш учун энг аввало ўша ҳудуднинг чегаралари тўғри билгилаб олиш зарур. Айнан шу мақсадда ҳудудларда чегараларида муоммоси бор вилиятлар аниқланиб камчидликлари бартараф қилиш чоралари кўрилди. Ер кадастри тизими асосий уч йўналишда мукамал тизим ҳолатида ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг ривожланиш цикли бўлади. Унга кўра биринчи йўналишида ер ҳисобини олишда шу пайтга қадар ерларнинг фақат миқдор ҳисобини юритиш амалиёти қўлланган, кўриниб турибдики бунинг ҳудудларда иқтисодий механизмда



2-TOM, 4-SON

Ўз таъсири бўлмаган бизнингча ерларни ҳатлов қилинганда уларнинг миқдор ва сифат ҳисобини олиш зарур, авваллари ерларнинг сифат ҳисоби фақат қишлоқ хўжалиги учун керакли деган ғоя қўлланилган, ер тузиш ва лойиҳалаш ишларида ерларнинг сифат кўрсаткичлари ҳисоби бўлган яни аввал ер тузиш кейин кадастр хизматлари деган собиқ СССР даври назарияси қўлланилган.

Бизнингча ерларнинг миқдор ҳисобини олишда ер участкаларнинг ўлчами, унинг қиймати (бу бозор нарҳи ҳудудларга нисбатан) ва сонини ўз ичига олади. Сифат ҳисобида тупроқ бонитировкаси, ерларни таснифлаш, ерларни агрономик, экалогик, технологик ва шаҳарсозлик белгилари бўйича тавсифлаш ҳамда тупроқни гуруҳларга ажратиш ишларини ўз ичига олади. Юқоридаги жараёнларнинг барчаси бажарилганда кадастр тизимида 8 тоифа ерларини бошқаришда, ерларни тоифаларга бўлишда, турларга ажратишда шунингдек, ерларни иқтисодий баҳолаш, Ерларни капиталга айлантириш, Ерларни хусусийлаштириш, ерларни аукционда реализация қилиш, ер бозори, ер солиғи ва ер ижара ҳаққи ставкаларини аниқлаш режалаштириш ва қайта тақсимлаш орқали ҳудудларни ривожланишини ташкил этиш, Компенсация тўловларни ҳисоблаш каби ўта долзарб масалаларни ечишда асос бўлиб хизмат қилади.

Иккинчи йўналиш бу рўйхатга олиш бунда тизимда амалга ошириладиган ер муносабатларда аввало қонун ҳужжатлага асосланган бўлиши шарт, унга кўра мулк ҳуқуқи, доимий фойдаланиш ҳуқуқи ва ижара ҳуқуқи асосида йўритилади Ер участкаларни белгиланган тартибда ҳар қандай ҳаракатлардан сўнг давлат рўйхатидан ўтказилиш белгилаб қўйилган бу эса ҳудудларда кўчмас мулк савдоси, солиқ тушими, молиявий айланма жараёнларида шаффоф механизм ҳисобланади.

Учинчи йўналишда ерларни баҳолашда биринча ва иккинчи йўналишда белгилаб қўйилга вазифала функционал вазифаларда ишласа ерларни иқтисодий ресурсга айлантириш мумкин. Мамалакатимизда ерларни баҳолашда белгиланган илмий асосланган механизм мавжуд эмас лекин Бизнингча баҳолашда асосан табиий ресурс (*ерларнинг гумуслилик даража, тупроқ меҳаник таркиби, шурланиш, сув билан таъминланганлик даражаси, эрозияга учраганлик ҳолати в.ҳ.к ўзига олиши керак*), капитал–иқтисодий ресурс (*ер миқдори ҳисобига ички ва ташқи ялаи маҳсулот бирлигини ишлаб чиқариш, ҳосил миқдори учун маҳсулотнинг ер сизими, ер қайтими, ернинг асосий капиталдаги улуши кабиларни ўз ичига олиши зарур*), ерларнинг бозор қиймати аукцион, (*ерни хусусийлаштириш, Ер олди-сотди қиймати*), инвестиция ресурслари (*ер ва бошқа табиий ресурслар*) каби тўртда йўналишни эътибога олиш зарур.



2-TOM, 4-SON

Шундай экан кадастр тизими мамлакатимиз иқтисодиётининг барқарор ривожланида асосий манбалардан биттаси деб бўлиб хизмат қилади. Ҳозирги кампютер технологиялари ривожланган даврда тўлиқ интеграциялашган кадастр тизими ерга таалуқли қолган ер тузиш, геодезия, картография, фотограмметрия ва бошқаларни ўз ичида ягона бирлаштирган тизимдир.

Масалан, Хоразм вилоятида ўрганишлар натижасида Қорақалпоiston Республикаси билан 1 026 гектар муоммоли ҳудуди аниқланди ва олиб борилган ишлар натижасида бартараф қилиниб рўйхатдан ўтказилди(2-расм). Хар қандай ер ҳисобини олишнинг якуни маълумотлари ҳудуднинг иқтисодига таъсирини кўрсатади, ер тури, контури, чегараси ва фойдаланувчиси ҳақидаги маълумотлар жамланган ахборот мабалари ер кадастри маълумотларини ташкил этади.

Ҳудудлардаги иқтисодий ўсиш озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва иш ўринларини яратиш қолаверса инвестиция оқимларини кўпайтириш ҳам ерга ва кадастр маълумотларига боғлиқ, бунинг учун энг аввало ҳудудларда ер ҳисоби толиқ олиниши зарур, мамлакатимизда баъзи турдаги кадастрлар тўлиқ шаклланмаган. Масалан, автомобиль йўллари кадастри 23%, маданий мерос объектлари 32%, қувурлар 32%, шаҳарсозлик кадастри 63% га шаклланган, холос.



2-расм. Хоразм вилояти ва Қорақалпоiston Республикаси ўртасидаги муоммоли ҳудуд



2-TOM, 4-SON

Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, олиб борган тадқиқотларимиз натижаларини баҳолаш назарий жиҳатдан, аввало ерни кўпфункционал объект сифатида ифодаловчи “ер ҳисоби”, “рўйхатга олиш” ва “ерларни баҳолаш” шу жумладан “миқдор ва сифат жиҳатдан ер ҳисоби”, “ҳуқуқлар”, “табiiй ресурс”, “иқтисодий ресурс-капитал”, “ерларнинг бозор қиймати” ҳамда “инвестиция ресурслари” тушунчаларининг ўзига хос хусусиятларини тўғри талқин қилиш ва улар орасидаги фарқ ва чегарани аниқ белгилаб олиш зарур. Ундан сўнгра ерларни кредит олиш учун гаров сфатида фойдаланиш, солиқ ставкалари ва солиқ солиш, ер участкаларини хусусийлаштириш, шунингдек бошқа иқтисодий муносабатларни тартибга солиш бўйича иш олиб борган маъқул ҳисобланади.

Дунёнинг ривожланган мамлакатларида ер кадастри тизимининг ижобий жиҳатларини белгилаш, хусусан ер кадастри тизимини бошқариш ва унинг малумотларидан ҳудудларни ривожлантириш, иқтисоди барқарорликни таъминлашнинг ҳуқуқи шартлари асосида амалга оширилиши юзасидан тажрибани Ўзбекистонда ҳам жорий қилиш лозим.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг ер кодекси.
2. Бабажанов Аллаберган Рўзимович Рўзибоев Собир Боймирзаевич Мажитов Баҳром Хамидович.// “Ердан фойдаланиш асослари” ўқув қўлланма. Т–2018.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Инвестиция фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-598-сон қонуни.
4. Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида//Халқ сўзи газетаси–2019. Н.Ф.Ишонқулов. Кўчмас мулкни баҳолаш ҳисоботини экспертизадан ўтказишни такомиллаштириш–Т 2023.
5. Ўзбекистон Республикасининг 15 ноябрь куни қабул қилинган “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш тўғрисида”ги ЎРҚ-728-сон қонуни.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат ер кадастри тўғрисида”ги Қонуни, 1998 йил 28 август.



2-TOM, 4-SON

XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA IQTISODIY
SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI VA UNING NAZARIY
MASALALARI

Raximov Azamat Hamroqulovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Servis" fakulteti tyutori, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada har qanday xo'jalik yuritish shaklining muayyan bir ijtimoiy- iqtisodiy tizimda vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy shartlaridan biri uning samaradorligi darajasi bilan belgilanishi keltirib o'tilgan. Shuningdek, samarali xo'jalik yuritish raqobatli bozor muhitida xo'jalikning yashovchanligi va taraqqiyotini belgilab beruvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanshi va boshqa masalalar sharhi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: natija, samaradorlik ko'rsatkichlari, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, moliyaviy resurslar, rentabellik, moliyaviy ko'rsatkichlar.

Kirish. Ishlab chiqarish samaradorligi - juda murakkab iqtisodiy kategoriya. U obyektiv iqtisodiy qonunlar, ijtimoiy ishlab chiqarishning asosini ifoda etuvchi – natijani, ya'ni oqibatni aks ettiradi. Oqibat yoki natija har qanday faoliyatning maqsadidir. Samara tushunchasi bilan iqtisodiy samara tushunchasini farqlash kerak. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini baholash mezonlaridan biri sifatida iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi qabul qilingan. Ushbu ko'rsatkich muayyan davr mobaynida Real YAIM hajmining o'tgan davrdagiga nisbatan oshishi, to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potentsial ishlab chiqarish darajasini uzoq muddatli ko'payishi tendentsiyasini anglatadi¹.

Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish hamda liberallashtirishga oid belgilangan chora-tadbirlar amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini yanada yuksaltirish, aholi farovonligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Chunonchi, ushbu hujjatda iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy mustaqillikni, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, moliya-bank sohasini tubdan isloh etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga e'tibor qaratilgan².

Tahlil va natijalar. Ishlab chiqarish samaradorligi³ — korxonada miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlarning foydali natijalar berishi, olingan

¹ <https://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/article/download/33/33>

² <http://uzbekistan-geneva.ch/iqtisodiy-samaradorlik-farovonlik-omili.html>

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Ishlab_chiqarish_samaradorligi



2-TOM, 4-SON

iqtisodiy samaraning muayyan qiymatga ega bo'lgan resurslarni qo'llagan holda eng yuqori ishlab chiqarish hajmiga erishishga sabab bo'lgan ishlab chiqarish omillari, resurslar sarflariga nisbati bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi korxonalar faoliyatining yakuniy natijasini ko'rsatadi. Miqdoriy jihatdan ishlab chiqarish samaradorligini mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mehnat miqdori bilan o'lchash mumkin, lekin mehnat sarfini aniq o'lchash ancha qiyin. Shu sababli, ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi; ishlab chiqarish vositalaridan va kapitaldan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi. Korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligining umumlashgan ko'rsatkichi tovar ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi hisoblanadi, undan tashqari puldagi harajatlar birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, balans foydalaning asosiy va aylanma fondlar yigindisiga nisbati, to'la tannarx ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Mehnat unumdorligining o'sishi sur'atlari, mehnatni tejash va mahsulot hajmi o'sishida mehnat unumdorligi hissasi kabi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Ishlab chiqarish samaradorligi texnik samaradorlik (ishlab chiqarish hajmi), iqtisodiy samaradorlik (mehnat unumdorligi, mehnat resurslari, asosiy fondlar, aylanma resurslar), ijtimoiy samaradorlik (moddiy resurslar, foyda) hisobiga shakllanadi. Korxonalar faoliyati rivojlanishning miqdordagi iqtisodiy samaradorligi ko'rsatiladigan xizmatlar miqdori va ularning sifat jihatlarini aks ettiradigan iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi⁴:

- ishlab chiqarish xarajatlar miqdori;
- moddiy-texnik bazaning holati va rivojlanishi;
- moliyaviy-iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari;
- korxonalar faoliyatini rivojlantirish ko'rsatkichlari.

Bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida xo'jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarining yanada iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, ularning moliyaviy holatini mustahkamlashga qaratilishi kerak. Buning uchun iqtisodiy tahlilni fan sifatida doimiy ravishda rivojlantirish, uning metodologiyasini takomillashtirish, kompyuterlarning tahliliy ishlarini amaliyotga keng joriy etish, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning boshqa eng yangi texnik vositalari, iqtisodiy, matematik va boshqa ratsional tadqiqot usullaridan foydalanish talab etiladi. iqtisodiy jarayonlar. Tahliliy ishlarining ilg'or tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish iqtisodiy faoliyatni tahlil qilishning nazariy darajasining oshishiga yordam beradi.

⁴ <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/11541/11185>, Шамсиддинов Баходир Нодирович. (2024). КОРХОНА ФАОЛИЯТИДА ИКТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИК КО'РСАТКИЧЛАРИ ТИЗИМИ. Журнал инноваций нового века, 46 (3), 107–112. Получено с <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/11541>.



2-TOM, 4-SON

Iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish iqtisodiy boshqaruv tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, axborotni yig'ish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi, ya'ni tahlil boshqaruv qarorlaridan oldin, ularni tayyorlab, asoslab beradi. Korxonalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishini samarali, maqbul boshqarish uchun mavjud resurslar va imkoniyatlar, ulardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish haqida ma'lumot kerak. Bunday ma'lumotlar, birinchi navbatda, operativ va joriy (retrospektiv) iqtisodiy tahlil yordamida olinadi. Tahlillar orqali ular rejalarining bajarilishini, korxonaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dinamikasini o'rganadilar, boshqaruv samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni aniqlaydilar va foydalanadilar, agar mavjud bo'lsa, ishdagi kamchiliklarning sabablarini aniqlaydilar va choralar ishlab chiqadilar. ularni bartaraf etish va oldini olish. Shu bilan birga, asosiy e'tibor aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga emas, balki korxonada boshqaruvning yanada oqilona va samarali usullarini ishlab chiqishga qaratiladi⁵

Xulosa. Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga doimiy ravishda ichki va tashqi omillar o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida ichki omillar qatoriga tadbirkorlik qobiliyati, korxonalar personalini, kommunikatsiya samaradorligini, korxonaning tashkiliy tuzilishi, innovatsion faoliyatning bozorga yo'naltirilganligi va innovatsiyalar uchun resurslarning yetarlilik darajasi kabi omillar kiradi. Korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarga esa mamlakatda maslahat va konsalting xizmatlari, moliyaviy yordam, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va qonunchilik kabi omillar inobatga olinishi zarur⁶.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/article/download/33/33>
2. <http://uzbekistan-geneva.ch/iqtisodiy-samaradorlik-farovonlik-omili.html>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ishlab_chiqa_rish_samaradorligi
4. <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/11541/11185>
5. Шамсиддинов Баходир Нодирович. (2024). КОРХОНА ФАОЛИЯТИДА ИКТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИК КО'РСАТКИЧЛАРИ ТИЗИМИ. Журнал инноваций нового века, 46 (3), 107–112. Получено с <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/11541>.
6. <https://kompy.info/kurs-ishi-korxonona-iqtisodiyoti-va-menejmenti-fanidan-mavzu-san.html?page=2>
7. Raxmatillo Avazbek O'G'Li Alijonov, Shoxruxbek Alisher Ogli Solijonov SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQA_RISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI // Scientific progress. 2022. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sanoat-korxonalarida-ishlab-chiqa_rish-samaradorligini-oshirish-mexanizmlari (дата обращения: 16.04.2024).

⁵ <https://kompy.info/kurs-ishi-korxonona-iqtisodiyoti-va-menejmenti-fanidan-mavzu-san.html?page=2>

⁶ Raxmatillo Avazbek O'G'Li Alijonov, Shoxruxbek Alisher Ogli Solijonov SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQA_RISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI // Scientific progress. 2022. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sanoat-korxonalarida-ishlab-chiqa_rish-samaradorligini-oshirish-mexanizmlari (дата обращения: 16.04.2024).



2-ТОМ, 4-СОН

ФУНКЦИОНАЛЬНО-ТЕМАТИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ ЭВФЕМИЗМОВ ДЛЯ
ЗАМЕНЫ ТАБУ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Доктор философии по филологическим наукам (PhD) Термезского университета
экономики и сервиса

Саттарова Елена Анатольевна

Студентка 2 курса направления – Филология и обучение языкам (русский язык)
Термезского университета экономики и сервиса

Хадыева Анна Алексеевна

Аннотация. В данной статье описывается явление речевого поведения языковой системы, как одного из важнейших культурных аспектов существования в обществе с того самого времени, как образовался язык и возникла необходимость замены грубых высказываний наиболее приемлемыми вариантами, является актуальным и по сей день.

Ключевые слова: табу, эвфемизм, эвфемизация, лексика, полемика, эвфемия, этикет.

Введение. В настоящее время как в русском, так и в узбекском языках к такому роду высказываниям, носящих нецензурный характер и не совсем соответствующих речевой норме, стал проявляться интерес и увеличиваться уровень использования.

Основная часть. Культурные слова очень недолговечны, потому что испытывают на себе оценочное явление со сторон социума.

К разряду культуры речи В.П. Москвин относит те эвфемизмы, которые используются при нежелании называть прямым именем что-либо неприятное или физически отвратительное. Например, *обойтись посредством платка* вместо *высморгаться*. Любопытные выражения данного типа использовались в речи цирюльников старой Москвы: *родителей за здравие поминать* вместо *икать*, *душу в покаяние пустить* в значении «вызвать искусственную рвоту» [4, с. 33]. Данные перечисленные выше действия являются некультурными, в некотором роде даже постыдными, и соответственно лишней раз доказывают то, что бытовые табуированные слова могут быть заменены эвфемизмами и тем самым дают возможность завуалировать неприемлемую и отторгающую действительность.

Помимо этого, эвфемизации подлежат данные действия следующими словами, например:



2-TOM, 4-SON

- у людей: рус. эвф. *по нужде пойти, пойти подумать, по маленькому сходить, по большому сходить, пойти помечтать, облегчиться по-маленькому*, заменяют бытовые табу – покакать, пописать, посрать, поссать, пойти в туалет, помочиться или испражниться; узб. эвф. *пешоб, пешоб қилмоқ, захар, захар танг қилмоқ, чой жавоб қилмоқ, ёзилмоқ, бўшамоқ (бўшаб олмоқ), даштламоқ (сходить по-маленькому), хўл қилмоқ (бўлмоқ), таги бўкмоқ (бўкиб қолмоқ), тагини қуруқламоқ, тўшак (кўрпача) алмаштирмоқ, чоптирмоқ, чур ташламоқ, учирмоқ, нам қилмоқ, кичкинасини қилмоқ (помочиться) – вм. сийдиқ, сиймоқ (мочеиспускание), губор чиқармоқ (опорожниться) – вместо табу чичиб қўймоқ (сходить по большому, сиймоқ (пописать), чичмоқ (покакать) и др.;*

- у животных: рус. эвф. *собака оставляет своим женихам адрес под деревьями*, вместо табу собака пометила поп...в; узб. *жойни эслаб қолиши учун ит дарахтни хўллайди (досл. собака мочит дерево для того, чтобы запомнить место);*

- у птиц: рус. эвф. *голубка испачкала белянским следом после себя* вместо табу «птичка накакала»; узб. эвф. *қуш доғ қолдирди* (птица оставила после себя пятно);

- у насекомых: рус. эвф. *пирог, засиженный мухами* вместо «пирог обосранный мухами»; узб. эвф. *чивинлар нонга таширф буюришиди* (хлеб посетили мухи) и др.

Обратив внимание на данные табуированные слова и выражения, замененные эвфемизмами, стоит также упомянуть и следующего не менее известного учреждения: рус. эвф. *ватерклозет, клозет, нужник, удобства, туалет, уборная; куда царь пешком ходит, одно место* вместо слова-табу туалет в значении места общественного пользования – узб. эвф. *бадрабга бормоқ (досл. пойти в ванную), унитазли хонага бормоқ (досл. пойти в комнату с унитазом), кабинетга бормоқ (пойти в кабинет, употребляется в переносном значении); пиёда бориладиган жойга бормоқ (досл. туда можно пойти пешком), ёлғиз бориладиган жойга бормоқ (досл. место, куда ходят в одиночку), бурчакка бормоқ (досл. пойти в угол), ташқарига чиқмоқ (досл. выйти на двор) – вместо табу места общественного пользования, туалет.*

Необходимо отметить то, что Б. А. Ларин определил количество использования бытовых культурных изречений употребительностью «по преимуществу в разговорной речи», а также «кругом представлений из области физиологии и анатомии человека» [3, с. 111]. Бесспорно, данное определение является не совсем распространенным, потому что существуют и другие слова, которые вызывают не совсем приятные чувства и требуют замены словами-синонимами или какими-либо другими описательными оборотами. Например, вместо слов *таракан, клоп* или *блоха* используют *насекомое*, вместо *вошь* – *паразит* или *существо, разносящее микробы*



2-TOM, 4-SON

или заразу и др. При замене функционально-тематических табуированных слов эвфемизмами, видимо, отражают «эстетический фактор эвфемизации речи» [3, с. 112].

Не менее важное значение в русском языке имеет ряд вежливых слов, используемых, по определению Н. С. Араповой, «с целью искажения или маскировки подлинной сущности обозначаемого» [2, с. 13]. Эти вежливые высказывания называются эвфемизмами, которые являются маскирующими, они употребляются в общении для «камуфляжа» табуированной лексики.

Маскирующие эвфемизмы в основном применяются для обозначения темы воровства.

Маскируется также тема безденежья: рус. эвф. *карманная чухотка, ограниченные средства, ограниченное состояние* – в м. табу «нищий, безденежный, бедняк»; *нуждаться в средствах, социально непривилегированные* – в м. табу «бедные, бомжи, нищелюды, бездомные, т.е. те, кто находится на границе общества»; *собирать куски* – в м. «нищенствовать, просить милостыню»; узб. эвф. *маблаз керак (нуждающийся в средствах), чекланган маблазлар* (ограниченные средства) [5, с. 292].

В некоторых случаях маскирующая эвфемизация не просто снимает отрицательный оттенок обозначаемого понятия, но и приписывает ему положительную вуалирующую систему слов, например, *компактная квартира* вместо *маленькая квартира*, или вместо *отправить на пенсию* говорят *проводить на заслуженный отдых* [6, с. 46].

Можно заметить, что бытующее устойчивое выражение *заслуженный отдых (покой)*, употребляя в тандеме с такими глаголами как *уйти или проводить* воспринимаются совсем иначе и носят более лояльный характер особенно, если они сказаны при том человеке, о котором шел разговор (скорее всего, это связано с тем, что человек в некотором роде теряет в себе уверенность и считает себя ненужным звеном в социальной среде).

В числе завуалированных выражений можно обнаружить и среди профессиональных табу [5, с. 293]. К примеру, в авиации вместо *вертолет упал (разбился)*, говорят, что вертолет *совершил жесткую посадку или потерпел крушение, а в узб. вертолет кулади*; для работников некоторых военных ведомств вместо глагола *убить* характерно употребление таких более нейтральных его синонимов, как *убрать, ликвидировать и устранить*, а в узб. *нишон мулжалга тегди, йук килинди*, вместо слова *убийство* – *ликвидация и физическое устранение*; для персонала медицинских учреждений не уместно употребление такого выражения, как



2-TOM, 4-SON

больной умер, вместо этого они говорят потерять больного, а в узб. Аллох сабр берсин, саклаб коллмадик.

Еще один существующий вид табу, замененный эвфемизмами связан с этикетом. В.П. Москвин говорит о том, что этикетные эвфемизмы используются, когда говорящий избегает прямых наименований из боязни обидеть либо собеседника, либо третье лицо [4].

Этикетная лексика эвфемистических замен существует для отрицания.

Так, например, говорят: *имеет косвенное* или *отдалённое отношение* вместо *не имеет отношения*. Табуированию также подвергается отказ: нет, возможно, я подумаю и др. Вместо фразы «Ваше предложение было отвергнуто» говорят *не нашло понимания*, вместо «Ваша статья никуда не годится» – *Из-за недостатка места мы не смогли использовать ваш материал*.

Негативная оценка выступает предметом для смягчения и замены обозначаемого традиционного литературного слова. Так о незаурядном, ничем не примечательном человеке принято говорить *звёзды с неба не хватает, пороха не выдумает, недалёкий, простоватый, простой*. О глупом, недалёком человеке: табу дурак, тупица, тупой рус эвф. *человек ограниченного ума, с ограниченными возможностями* – узб. *ақлсиз (без ума, глупый), айниган (испорченный, в зн. безумный), ақли заиф (умственно отсталый), ақли йуқ (нет ума, безумный, безумец), ақлан кам, ақли кам, ақли паст (мало ума, слабоумный), ақли қуср (умственно отсталый)*.

При общении с лицами, являющиеся по отношению к говорящему намного старше или вовсе не знакомым, использование такого глагола, как *орать* является табуированным как для представителей русской, так и узбекской культуры.

При общении носящий официально-деловой или научный характер важно правильно подбирать слова и словосочетания. К примеру, при проведении диспута, в ходе научной полемики – способность находить формы выражения мыслей, не задевающие самолюбие и достоинство оппонента, – признак высокой культуры её носителя. Такой человек не выскажет своему оппоненту, что он обманывает, хоть это и имеет место быть, а выразится приблизительно в такой форме: *Мой уважаемый оппонент недостаточно корректно излагает факты*. Таким образом к таким табуированным словам относятся *не правда, вранье, ложь, обман*. В документах официально – делового стиля можно заменить их на *не соответствует действительности*. Также при обращении нельзя обращаться на «Ты и по имени».

Этикетная эвфемизация относится к нормам языкового поведения. Стимулом к использованию этикетной эвфемии является правовая система общества и



2-TOM, 4-SON

возможность при необходимости отстаивать свои права в судебном порядке. К скрывающим суть дела средствам прибегают и в тех случаях, когда прямое обозначение объекта, действия, свойства, по мнению говорящего, может вызвать нежелательный эффект или негативную реакцию массового адресата. Таковы, например, словосочетания *либерализация цен, упорядочение цен*, свободные цены в языке современной прессы, в речевой практике экономистов, представителей власти и т.п. В буквальном значении эти сочетания могут прилагаться к любым ценам и любым процессам, происходящим с ними, – понижению, повышению, сохранению на прежнем уровне, приведению их в нужное соответствие. Однако на самом деле эти обороты нередко обозначают более высокие, чем прежде, цены, но обозначают, так сказать, не впрямую, а вуалируя малопривлекательное для большинства людей явление.

Б. А. Ларин также отметил, что «эвфемизмы употребляются как условно-обязательный способ выражения в дипломатии» [3].

Дипломатические эвфемизмы также принято относить к числу политических: *это вызвало неоднозначную реакцию, personanongrata*. В качестве политических могут быть использованы и так называемые экономические эвфемизмы: *избыток импорта, быстрая посадка, отказаться от своей политики нулевых процентных ставок, условная единица, либерализация*. Б. А. Ларин выделил разряд «затуманивающих содержание» эвфемизмов, характерных, по мнению учёного, «для буржуазного общества» – таких, как *состояние* или *достаток* вместо *богатство*, *человек со средствами* вместо *капиталист* [3, с. 34].

Следовательно, первичное значение является основой для зарождения и развития образного значения. Переносное значение – образное представление реального значения «приготовленного» в памяти, сфокусированного на конкретной цели, эмоционально усиленного.

Таким образом, все табуированные слова могут быть заменены на синонимы или описательные обороты, имеющие более положительный характер, т.е. на эвфемизмы. Термин «эвфемия» чаще всего используется как синоним эвфемизации, есть также исследования, в которых эвфемия рассматривается как частный случай (разновидность) синонимии [1, с. 262].

У больных основной группы в общей сложности было выполнено 101 разновидностей основных этапов операции, в что в среднем приходилось на 1 больного по 1,9 этапов. 75 (74,3%) наименований этапов операции приходились на больных пожилого возраста, а 26 (25,7%) наименований – на больных старческого возраста. При этом на 1 больного пожилого возраста приходилось по 2 хирургических этапа, на 1 больного старческого возраста – 1,8 этапа.

Основную долю (32,7%) хирургических этапов при операциях по поводу ОКН у больных пожилого и старческого возраста составили резекции кишечника. Среди них были различные варианты резекции толстого кишечника и комбинированные анастомозы. При этом среди больных старческого возраста они лидировали и составляли почти половину всех этапов операции – 46,2%, тогда как среди больных пожилого возраста – лишь 28,0%. Частичный и тотальный энтеролиз, а также энтеролиз с резекцией кишечника был выполнен в 22,8% случаев. Среди больных пожилого возраста доля таких операция составила 24%, а среди больных старческого возраста – 19,2%. В 19, 8% случаев были наложены различные стомы, причем у больных старческого возраста их было больше (23,1%), чем среди больных пожилого возраста.

У 17,8% больных устранения ущемленных грыж передней брюшной стенки, в том числе и с резекцией петли кишечника. Такие операции были выполнены почти в 3 раза чаще среди больных пожилого возраста (21,3%), чем среди больных старческого возраста (7,7%). У 6,9% больных были выполнены такие этапы операции как расправление заворота кишки и деинвагинация. Такие операции лидировали среди больных пожилого возраста, превышая показатели больных старческого возраста в более чем в 2 раза (8% и 3,8% соответственно).

В послеоперационном периоде у больных основной группы в 11,5% случаев были отмечены осложнения общего характера. Структура общих послеоперационных осложнений была такой же, как и у больных контрольной группы. Среди больных



2-TOM, 4-SON

основной группы с общими послеоперационными осложнениями лидировали случаи развития тяжелого сепсиса и септического шока вследствие развития гнойных осложнений в послеоперационном периоде. Однако удельный вес данного вида осложнений был в 1,7 раз меньше, чем среди больных контрольной группы. Так же в 4,5 раз меньше было отмечено развитие послеоперационной пневмонии, и в 2,0 раза меньше развитие печеночно-почечной недостаточности.

Сравнительная оценка эффективности разработанной нами прогностической программы проводилась на основании ROC-анализа между «M-SAPS» (традиционная) и «PURTAP» (оригинальная).

В дооперационный период и на 1-сутки после операции различие чувствительности прогностического коэффициента было не достоверным ($p > 0,05$). Средний уровень различия приравнивался от 1,1 до 1,2 раза. Однако, начиная с 3-суток послеоперационного периода и до конца проведенного исследования прогностическая чувствительность разработанного нами способа «PURTAP» возрастала ($p < 0,05$) с 1,4 раза до 3,7 раза.

Относительно специфичности оригинального способа прогнозирования развития общих послеоперационных осложнений можно отметить значительный ее прирост уже начиная с дооперационного периода и до конца проведенного исследования ($p < 0,05$).

Таким образом, эффективность разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма, основанного на прогнозировании развития послеоперационных осложнений и проведение конкретных профилактических мероприятий позволило, по сравнению с контрольной группой больных, избежать таких общих осложнений как тромбоэмболия легочной артерии, острый инфаркт миокарда и острые нарушения мозгового кровообращения.

Местные послеоперационные осложнения были отмечены в 38,5% случаев, что было в 2,2 раза меньше, чем среди больных контрольной группы.

Количество случаев нагноения послеоперационной раны среди больных основной группы было почти таким же, как и среди больных контрольной группы.

Уменьшение относительного коэффициента уменьшения составило лишь 1,1 раза. Больше всех (в 8 раз) было достигнуто уменьшение частоты краевого некроза с несостоятельностью швов послеоперационной раны и образование послеоперационных абсцессов брюшной полости (в 2,3 раза). Так же, применения разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма позволило уменьшить удельный вес таких осложнений как перфорация десерозированного участка кишечника (в 1,7 раза) и образование ранней спаечной кишечной непроходимости (в 1,4 раза).

Сравнительная оценка чувствительности разработанной нами прогностической программы относительно развития местных послеоперационных осложнений в



2-TOM, 4-SON

дооперационном показала, что уже в данный срок ее уровень был выше, относительно прототипу, в 1,7 раза.

В последующем на 1-2 сутки послеоперационного периода был отмечен рост различия в 3,2 и в 3,4 раза, что увеличивало долю достоверности нашей разработки ($p < 0,05$). Начиная с 3-суток послеоперационного периода нами был отмечен прирост чувствительности «M-SAPS» относительно развития послеоперационных местных осложнений, что снижало дифференцированное значение относительно методу «PURTAP» до 3 раза. Данная тенденция сохранялась на протяжении последующих сроков исследования, при которой дифференцированная разница между чувствительностью «M-SAPS» и «PURTAP» снижалась до 1,6 раза ($p < 0,05$).

Относительности специфичности разработанной программы можно отметить, что уже в дооперационном периоде дифференцированная разница относительно «M-SAPS» составила 1,5 раза ($p < 0,05$). На 1-2 сутки послеоперационного периода данный показатель повышался до 1,9 раза ($p < 0,01$), а начиная с 3-суток послеоперационного периода прогресс прироста был отмечен на протяжении последующего всего периода до 3 раза на 7-сутки после операции ($p < 0,001$).

Таким образом, эффективность разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма, основанного на прогнозировании развития послеоперационных осложнений и проведение конкретных профилактических мероприятий позволило, по сравнению с контрольной группой больных, избежать таких местных осложнений как эвентрация внутренних органов, несостоятельность анастомоза, некроз колостомы и илеостомы.

Следует отметить, что в результате повышения эффективности методов лечения ОКН у больных пожилого и старческого возраста привело к значительному сокращению сроков лечения и нахождения больных на стационарном лечении. Так, в контрольной группе больных средний срок койко-дней приравнялся $18,9 \pm 4,5$ дней, тогда как в основной группе она уменьшилась до $12,6 \pm 2,1$ дней ($p < 0,05$).

Летальность среди больных основной группы была отмечена нами у 5 больных в хронологическом порядке она распределилась следующим образом.

Первый случай летального исхода был отмечен нами на 2-сутки после операции, когда умер 1 больной с сопутствующим циррозом печени и диабетической нефропатией, в результате прогрессирования острой печеночной и почечной недостаточности. Еще 1 больной умер на 3 сутки послеоперационного периода, вследствие развития септического шока, в результате массивного излияния каловых масс из перфорированного десерозированного участка толстого кишечника. Подобный характер осложнений был отмечен нами у 2 больных, которые умерли на 4 сутки послеоперационного периода. Еще 1 больной умер на 5 сутки после операции в результате прогрессирования послеоперационной пневмонии.

Чувствительность разработанного способа прогнозирования летальности у больных основной группы в среднем составила $86,6 \pm 2,9\%$, тогда при



2-TOM, 4-SON

прогнозировании по способу «M-SAPS» среднее значение приравнялось $56,0 \pm 6,5\%$ ($p < 0,01$). Максимальный (в 2 раза) пик дифференцированной значимости приходился на 2 сутки послеоперационного периода.

Что касается специфичности разработанного способа прогнозирования летальности у больных основной группы, то она в среднем $90,4 \pm 4,1\%$, тогда при прогнозировании по способу «M-SAPS» среднее значение приравнялось лишь $31,0 \pm 8,1\%$ ($p < 0,001$). Максимальный (в 3,3 раза) пик дифференцированной значимости приходился на 7-сутки послеоперационного периода.

В целом, применение разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма, основанного на прогнозировании и профилактики послеоперационных осложнений ОКН у больных пожилого и старческого возраста, позволило значительно уменьшить случаи летальных исходов, в особенности от различных патологий, связанных с повышенным тромбообразованием и в первую очередь от тромбоза легочной артерии.

Таким образом, сравнительная оценка эффективности разработанных методов прогнозирования и профилактики послеоперационных осложнений острой кишечной непроходимости у больных пожилого и старческого возраста позволили в основной группе больных, по сравнению с контрольной, уменьшить частоту общих послеоперационных осложнений в 4,2 раза, частоту местных послеоперационных осложнений в 2,2 раза, летальность с 28,3% до 9,6% и среднее количество койко-дней с $18,9 \pm 4,5$ дней до $12,6 \pm 2,1$ дней, то есть в 1,5 раза. Все это свидетельствует о достижении цели улучшения результатов лечения острой кишечной непроходимости у больных пожилого и старческого возраста.

Литература

1. Землянский И.Л. К вопросу профилактики, диагностики и лечения спаечной болезни брюшной полости // Здоровье населения и качество жизни : электронный сборник материалов VIII Всероссийской с международным участием заочной научно-практической конференции, Санкт-Петербург, 30 марта 2021 года. Том Часть 1. – Санкт-Петербург: Северо-Западный государственный медицинский университет имени И.И. Мечникова, 2021. – С. 203-210.
2. Зенков Н.К., Меньщикова Е.Б., Реутов В.П. NO-синтазы в норме и при патологии различного генеза // Вестник РАМН. 2020. - №4. - С. 30-34.
3. Какубава М.Р. Роль внутрибрюшной гипертензии в развитии осложнений при кишечной непроходимости у геронтологических больных: дисс. канд. мед. наук. М., 2012. 116 с.
4. Косинец В.А. Коррекция биоэнергетических процессов в тонкой кишке при экспериментальном распространенном гнойном перитоните. Экспериментальная и клиническая фармакология. 2022;75(8):39-43.



2-TOM, 4-SON

5. Курбонов К.М., Назирбоев К.Р., Даминова Н.М. Интубация тонкой кишки как компонент лечения острой странгуляционной тонкокишечной непроходимости // Вестник Авиценны. – 2018. – Т. 20, № 4. – С. 436-441.
6. Лабезник Л. Б. Практическая гериатрия (избранные клинические и организационные аспекты). М., 2022. С. 14-22.
7. Лазебник Л. Б., Дроздов В. Н. Заболевания органов пищеварения у пожилых. М.:Анахарсис, 2023. С. 3-18.
8. Khamdamov I.B. Improving tactical approaches in the treatment of hernias of the anterior abdominal wall in women of fertile age // Tibbiyotda Yangi kun. Bukhoro, 2022.-№10(48)- pp. 338-342.
9. Khamdamov I.B. Morphofunctional features of the abdominal press in women of reproductive age // Tibbiyotda Yangi kun. Bukhoro, 2022.-№3(41)- pp. 223-227..
10. Милюков В.Е., Шарифова Х.М. Полиорганные проявления печеночной недостаточности при острой тонкокишечной непроходимости // Хирургия. Журнал им. Н.И. Пирогова. – 2019. – № 9. – С. 73-79.
11. Острая кишечная непроходимость / Под редакцией академика Российской академии наук И.И. Затевахина // Клинические рекомендации общероссийской общественной организации «Российское общество хирургов» – 2021.- 52 стр.
12. Хамдамова М.Т., Жалолдинова М.М.,Хамдамов И.Б. Состояние оксида азота в сыворотке крови у больных кожным лейшманиозом // Тиббиётда янги кун. - Бухоро, 2023. - № 5 (55). - С. 638-643.
13. Хамдамова М.Т., Жалолдинова М.М.,Хамдамов И.Б. Значение церулоплазмينا и меди в сыворотки крови у женщин носящих медьсодержащих внутриматочной спирали // Тиббиётда янги кун. - Бухоро, 2023. - № 6 (56). - С. 2-7.
14. Basilisco G., Marchi M., Coletta M. Chronic intestinal pseudo-obstruction in adults: A practical guide to identify patient subgroups that are suitable for more specific treatments. Neurogastroenterol Motil. 2024 Jan;36(1):e14715.
15. Coagulation parameters in patients with intestinal necrosis. What is primary? / D. Bassini, C. Montana, D. Curara, A. Dominica // Collection of proceedings of the international conference on diseases of the digestive system // New Zealand, 2019. P.143-145.
16. Хамдамов Б.З. Comparative evaluation of methods of amputation related to tidiotarus with severe forms of diadetic foot syndrome. European Science Review. Austria, Vienna 2014 Septemba-October №9-10. - С. 58-60.
17. Хамдамов Б.З. Диабетик товон синдромида бажариладиган юкори ампутациялардан сунг беморларнинг хаёт кечирिश сифатидаги узгаришлар тахлили. Самарканд. Биология ва тиббиёт муаммолари. №1, 2019., (107) - С. 115-117.



2-TOM, 4-SON

17. Хамдамов Б.З. Комплексное лечение синдрома диабетической стопы с критической ишемией нижних конечностей. Журнал биомедицины и практики. Ташкент 2020, Специальный выпуск. 5 часть. – С. 801-814.

18. Хамдамов Б.З. Метод лазерной фотодинамической терапии в лечении раневой инфекции при синдроме диабетической стопы. Биология ва тиббиёт муаммолари №1 (116) 2020. – С. 142-148

19. Хамдамов Б.З. Морфологические изменения при применении фотодинамической терапии в лечении раневой инфекции в эксперименте. Журнал Морфология. Санкт-Петербург. 2020. Том 157 (2-3). –С. 223-224.

20. Хамдамов Б.З. Оптимизация методов местного лечения гнойно-некротических поражений стопы при сахарном диабете. Журнал. Тиббиётда янги кун. 2018, №4 (24) - С. 112-115.

21. Khamdamov B. Z., Akhmedov R. M., Khamdamov A. B. The use of laser photodynamic therapy in the prevention of purulent-necrotic complications after high amputations of the lower limbs at the level of the lower leg in patients with diabetes mellitus. Scopus Preview. International journal of Pharmaceutical Research. Volume 11, Issue 3, July-Sept, 2019

22. Khamdamov B. Z., Nuraliev N.A. Pathogenetic approach in complex treatment of diabetic foot syndrome with critical lower limb ischemia. American Journal of Medicine and Medical Sciences, 2020 10 (1) 17-24 DOI: 10.5923/j.20201001.05.

23. Khamdamov B.Z. Indicators of immunocytocine status in purulent-necrotic lesions of the lower extremities in patients with diabetes mellitus. American Journal of Medicine and Medical Sciences, 2020 10 (7): 473-478 DOI: 10.5923/j.20201001.08

24. Khamdamov, B., & Dekhkonov, A. (2022). Clinical and laboratory parameters of the wound process complicated by the systemic inflammatory response syndrome in patients with diabetes mellitus. Journal of education and scientific medicine, 2(3), 25-29. Retrieved from <https://journals.tma.uz/index.php/jesm/article/view/349>

25. Khamdamov I.B., Khamdamov A.B. Fertil yoshdagi ayollarda endovideo surgeon hernioplasty // Tibbiyotda yangi kun. Bukhoro, 2021.-№6 (38/1) -S. 25-26.Хамдамова М.Т., Хасанова М.Т. Различные механизмы патогенез гиперплазии эндометрия у женщин постменопаузального периода (обзор литературы) // Тиббиётда янги кун. - Бухоро, 2023. - № 8 (58). - С. 103-107.

27. Khamdamova M. T., Khasanova Makhfuza Toyqulovna, Umidova Nigora Nabievna The role of genetic determinants in the occurrence of hyperplastic processes of the reproductive system of women's menopausal age // Journal of Advanced Zoology ISSN: 0253-7214 Volume 44 Issue Special Issue-2 Year 2023 Page 3724:3730



2-TOM, 4-SON

SURXONDARYODAGI TURIZM SALOHIYATI

Eshquvvatov Jamshid Abdumajid o`g`li

Gmail: jamshideshquvvatov00@gmail.com

Telefon raqami: +998941168110

Nematova Umida Yo`ldosh qizi

Gmail: uu3805206@gmail.com

Telefon raqami: +998 446 15 05

Qudratov Ramziddin Abilfoyoz o`g`li

Gmail: qudratovramziddin005@gmail.com

Telefon raqami: +998915737405

Xidirov Abdulhat Abdurashid o`g`li

Telefon raqami: +998915742205

Gmail: abdulahatxidirov@gmail.com

Hafizov Sarvar Boborajab o`g`li

Gmail: shafizov@dpi.uz

Telefon raqami: +998911655452

Annotatsiya: Surxondaryoda turizm sohasini yanada takomillashtirish, mehmonxonalar sonini ko'paytirish, turistlarga avtotransport vositalari bilan taminlanishini oshirish, turistlarni yanada ko'proq jalb etish, turistik hududlarning reklamasini oshirish

Kalit so`zi: Boysun, Sariosiyo, Sangardak, Termez, Imom Buxoriy, Termizey, mehmonxonalar, infratuzulma.

Kirish qism: Turizm hozirgi davrda eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biri. Bu soha iqtisodiy sohadan keyingi o`rindagi eng muhim darajaga kotarilayapti va ko`plab ishchi o`rinlarini yaratib kelmoqda. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, O`zbekistonda ham bu soha o`zining samardorligini ko`rsatmoqda. Statistika ko`ra, 1 yilda o`rtacha O`zbekiston Respublikasiga tashrif buyuruvchilar soni 5.12 million (2022-y. Yanvar- Dekabr). Bu maqola Surxondaryo viloyatidagi turizm zonalari haqida ma`lumot beradi.

2017-yilda Surxondaryo viloyatida joylashgan 48ta turistik obyektlari mavjud bo`lgan bo`lsa, hozirgi vaqtga kelib bu obyektlar soni 116taga yetdi. Eng ko`p turizm obyektlari Termiz va Boysun shaharlarida mavjud. Viloyatimizning Buyuk Ipak yo`li chorrahasida joylashgan turli obidalar: Xususan, Zarautsoy, Kampirtepa, Jarqo`ton,



2-TOM, 4-SON

Sopollitepa, Dalvarzintepa kabi obidalar; Boysun tog` tizmasidagi Teshiktosh g`ori, Sangardak chashmasi, Xo`jamayxona, Omonxona kabi turistlarni jalb etadigan shifobaxsh buloqlari va boshqa ko`plab moddiy va nomoddiy boyliklarga to`la. Bu kabi turistik zonalar turistlarni o`zining bahavo tabiatidan bahramand bo`lishga undaydi. Yana bir ahamiyatga sazovor jihati shuki, Teshiktosh g`origa o`xshash obidalar hattoki o`rta paleolit davridan beri mavjudligini bildirib, unga bo`lgan qiziqishning ortib borishiga sabab bo`lib kelmoqda. Aniq sonlarga yuzlansak, 2022-yil yakuniga ko`ra Surxondaryo viloyatiga 1,1 mln nafar, shundan, Tojikiston Respublikasidan o`sha yilning o`zida 256 ming nafar, boshqa xorijiy mamlakatlardan (85ta davlatdan) 10 ming nafar sayyohlar, hamda qariyb 694 ming nafar mahalliy sayyohlarning ham tashrifi kuzatilgan. Bu esa viloyatga tashrif buyuruvchilar sonining 13 barobarga ortganini ko`rsatadi va 2018-yilda turistlar sarflagan pul mablag`i 1,7 mln dollarni tashkil etgan bo`lsa, 2022-yilga kelib bu ko`rsatkich 7 barobarga ortib 12 mln dollarni tashkil etdi. Shu o`rinda Surxondaryo viloyatidagi turizm tarmoqlari haqida gaplashamz:

Viloyatimizda tog`li zonalarning ko`pligi bizga ekoturizm sohasida faoliyat olib borishga imkoniyat yaratib kelmoqda: Boysun, Denov, Sariosiyo va Sherobod tumanlarida bu soha jadal suratlarda rivojlanmoqda. Xususan, Sariosiyo tumanidagi " To`palang" suv omborida ekoturizm markazi tashkil etilgan. Sherobod tumanidagi tog` oldi mahallalarida ekoturizmni rivojlantirish uchun sayyohlarga qulay sharoit yaratish maqsadida 5 ta mehmonxona, 22 ta mehmon uylari, 10 ta o`tov (qora uy), 4ta hunarmand markazi, 1ta turizm xizmat markazi, 1ta sport turizmi va sayr xizmat majmuasi, 11ta ovqatlanish shoxobchasi hamda 8ta transport, texnik-servis xizmatlari tashkil etilgan. Boysun tumanidagi "Inkobod" mahallasi Omonxona qishlog`ida hozigi paytda 1ta sog`lomlashtirish markazi, 2ta mehmonxona, 1ta xostel va 20 dan ortiq oilaviy mehmon uylari mavjud. Shuningdek, Termiz tumanida "Eko turizm" maskani ham tashkil etilgan.

Surxondaryo viloyati o`zining ko`pgina tabiiy ,turistlarni o`ziga jalb qiladigan maskanlari bilan mashxurdir. Bunga Sariosiyo tumanida joylashgan Sangardak sharsharasini misol qilib ko`rsatish mumkin. Sangardak sharsharasi bir vaqtning o`zida dam olish maskani bo`libgina qolmay ,mahalliy aholi uchun ziyorat maskani hamdir. Sangardak sharsharasi asosan 1991-yildan keyin respublika bo`ylab tanila boshlagan. Shu vaqtdan boshlab turistlarga xizmat ko`rsatish boshlangan .2017-2018-yillarda Prof –Gfoup MCHJ qurulish tashkiloti ish boshlab yangi ko`priklar qurilib turistlar uchun qulayliklar yaratildi. Bugungi kunda sharsharaga 700-800 nafar turist tashrif buyuradi .Hozirgi kunda sharsharada 2ta yirik jahon standartlariga javob beradigan mehmonxonalar faoliyati yo`lga qo`yilgan .Yana shuni aytish mumkinki Surxondaryo tog`lari bilan ham mashxurdir



2-TOM, 4-SON

„Bobotog‘ tog‘lari ham bugungi kunda ko‘pgina mahalliy aholi uchun dam olish maskaniga aylangan. Prezident SHavkat Mirziyoyev joriy yilning 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida vohamizning turizm salohiyatidan samarali foydalanib, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga alohida e‘tibor qaratgan edi. Shunga ko‘ra viloyatning turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora tadbirlari dasturi qabul qilinib, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijiy turistlarga sifatli xizmatlar ko‘rsatish kabi muhim masalalarga ahamiyat berildi bu esa viloyatda islom olami uchun ziyorat turizimiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Undan tashqari Surxondaryo viloyatida nafaqat O‘zbekistonda balki Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Arxeologiya muzeyiga ega. Aynan shu jihatdan ham Surxon vohasi o‘ziga ko‘pgina turistlarni jalb qila oladi. Muzey prezidentimizning 1998-yil 12-yanvardagi „Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risidagi „gi farmoni asosida barpo etilgan. Muzeyda qadimiy davrlardan qolgan yodgorliklar, Budaviylik meroslari, Kushoniylardan qolgan tarixiy buyumlar joy olgan. Aytish joiski Surxon vohasi o‘zining Kushoniylardan qolgan boy tarixi bilan ham mashhurdir. Kushoniylar hukunronligi davrida Budaviylik dinining kirib kelganligi ham hozirgi budaviy dini vakillarini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Termez shahrida joylashgan diqatga sazovor joylardan yana biri Termez Hayvonot bog‘idir. Bog‘ 1938-yil 1-sentyabrda Termez shahrida 35 gektar maydonda tashkil etilgan unda hayvonot olamining 140 turi [umumiy sonda 434 ta] mavjud. Bog‘dagi hayvonot olami vakillaridan 18turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan. Hayvonot bog‘i ham hozirda kuniga 200-300 turistga xizmat ko‘rsatadi. Har bir viloyat singari Surxon vohasi ham ulug‘ va yetuk din arboblari bilan ham dunyoga mashhurdir. Muhammad ibn Ali Abdulloh Al-Hakim at-Termiziy [824-892]so‘fiylik davrining mutaffakkiri hisoblangan, hadisshunoslik va huquqshunoslikni yaxshi o‘zlashtirgan yetuk olim bo‘lgan. Malumot o‘rnida aytib o‘tish joiski Al-Hakim at-Termiziyning 400 dan ortiq asari mavjud bo‘lgan ammo bu asarlardan bizga 50 tasigina yetib kelgan. Ayniqsa uning „Navro‘znoma „asari juda mashhur. Surxondaryoda turizmni rivojlantirish uchun mehmonxonalar salmog‘ini oshirish, turistik yodgorliklarni asrab avaylash, turistik reklama salmog‘ini oshirish lozim.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Surxondaryo viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi ma`lumoti.
2. Туризм и туристские ресурсы в России. 2004: Стат.сб. / Росстат. – М.,
3. 2004. – С. 267.
4. 3. Управление развитием туризма в регионе. Опыт реализации Стратегии
5. Республики Карелии / Институт экономики КарНЦ РАН, Под общей ред.



2-TOM, 4-SON

6. Ю.В. Савельева, О.В. Толстогузова. –Петрозаводск:Изд-воКарельского
научного
7. центра РАН, 2008. – С. 141.
8. 4. Хазова Д.С. Квалитативное моделирование развития туризма в
9. Республике Алтай: сравнение однокритериальной и многокритериальной
10. моделей / Д.С. Хазова // Финансовая аналитика: проблемы и решения. –
2014. –
11. № 35 (221) – 2014 сентябрь. – С. 59–67.
12. 5. Халиков М.И. Управление и менеджмент: теоретико-
методологический
13. анализ: монография / М.И. Халиков. – М.: Флинта, 2013. – С. 104.



2-TOM, 4-SON

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA HAYVON NOMLARI QATNASHGAN
IBORALARNING O'ZARO TAHLILI

Sharipova Sarvinoz

SamDChTI ingliz tili o'qituvchisi

Ihomova Ruhshona

SamDChTI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilidagi frazeologik birliklar va iboralar haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Hamda, ingliz va o'zbek tillaridagi hayvon nomlari ishtirokidagi iboralarning tarjimalari berilib, ular o'zaro solishtirilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ibora, frazeologizm, frazema, frazeologik birikma, frazeologiya, tarjima.

Nutq jarayonida fikrimizni faqatgina so'zlar yordamida emas balki, ikki yoki undan ortiq bo'lgan so'zlarning bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yoki nutqqa tayyor holda kirib kelgan birliklardan ham ko'p foydalanamiz[1]. Bunday birliklar ibora yoki frazeologizmlar deb ataladi. Iboralar tilning, asosan, badiiy va so'zlashuv uslubida keng va ko'proq qo'llaniladi, nutqni ta'sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Iboralar tilshunoslikda bir nechta nomlar bilan yuritiladi, bular: frazema, frazeologizm, frazeologik birikma. Iboralarni o'rganuvchi bo'lim tilning mustaqil birligi sifatida XX asrning yarmidan boshlab o'rganilib kelinmoqda[2].

Frazeologiyani o'rganish masalasi o'tgan asrning 20-40 yillardagi o'quv adabiyotlarda – Ye.D.Polivanov, S.Abukamov, L.A.Bulaxovskiy asarlarida ko'rib chiqilgan. G'arbiy amerika tilshunosligida frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida o'rganilmaydi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologizmlarning lingivistik mohiyati masalasi hali hanuzgacha tortishuvlar ostida qolmoqda. SH.Balli frazeologiyaning asosiy belgisi uning o'rnini o'sha iboraning ma'nosiga to'g'ri keladigan so'z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi deb tahlil qilgan bo'lsa, B.A.Larin esa uning asosiy belgisi frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi alohida so'zlarning ma'nosidan o'sha birliklarning umumiy ma'nosi kelib chiqmasligidadir, deb hisoblashgan.

Yana bir olim, U.Fiks frazeologizmlarni erkin gap bilan taqqoslaganda fe'llar ma'nosining mos kelishi yoki kelmasligiga ko'ra ikki turini farqlagan.Frazemada so'z yasaliqidagi kabi alohida affikslar mavjud emas[3]. Demak, tilshunos olimlar



2-TOM, 4-SON

frazologizmlarni turli xil jihatlarni o'rganishga urinishgan va hanuzgacha ham o'rganib kelmoqda.

Frazeologizmlar barcha tillarda juda qiziqarli chunki ularni so'zma-so'z yoki to'g'ri tushunish qiyin va ba'zi iboralar ko'chma ma'noda ham qo'llaniladi. Iboralar paydo bo'lishi va rivojlanishi asosan mamlakat tarixiga va madaniyatiga, dunyoqarashi, urf-odatlar, kasbi, turmush tarzi hamda voqelikka munosabati bilan uzviy ravishda bog'liq. Frazeologizmlar tilni, uning mazmun-mohiyatini boyituvchi xazina hisoblanadi, bular qo'llanish doirasiga ko'ra turli xil mavzularga oid bo'lishi mumkin.

Kill two birds with one stone - bir o'q bilan ikki quyovni o'ldirmoq [4].

Whenever I jog, I like listening to English rap music. Which I mean that, "I kill two birds with one stone; I stay fit whilst I improve my English language skills". Ingliz tilini yaxshilash bilan birga, sog'lom qolaman.

Ushbu iborada bir hayvonning boshqa bir hayvonga qiyoslangan holatini ingliz ham o'zbek tilida uchratamiz, ya'ni quyovni ham qushni ham tutish juda qiyin, shu sababli ikki hayvon bir-biriga o'xshatilgan va bu frazema orqali, o'z ishiga puxta, so'zni birovga bermaydigan, ustasi farang inson xususiyatlari nazarda tutilgan.

Like herding cats [5] - igna bilan quduq qazgandek.

Managing a political party is a lot like herding cats. Siyosiy partiyaning boshqarish xuddi igna bilan quduq qazgandek mushkuldir.

Bu iborada katta ko'lamdagi ishlarni tashkil qilish yoki hech bo'lmaganda katta kuch va sabr toqatini talab qilmasdan amalga oshirilmasligini ta'kidlash uchun ishlatilishi mumkin.

It is raining cats and dogs – chelak-chelak yomg'ir quymoq.

It is raining cats and dogs, I am worried about how my kids will reach home. Sharros yomg'ir quymoqda, men esa bolalarim qanday uyga yetib kelishidan xavotirdaman.

Bu iboraning ildizi o'rta asrlar xurofotlar so'zi yoki Britaniya ko'chalarida bo'ronli suvlar tomonidan olib ketilgan o'lik hayvonlardan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. O'sha kuchli yomg'irdan keyin Jonatan Swif "Shahar yomg'iri" [City shower] nomli she'rida suv toshqini tufayli ko'chalarda ko'plab it va mushuklarning o'lik tanasi qolib ketganini aytadi.

Have a cow - tepa sochi tikka bo'lmoq [6].

Our teacher had a cow when nobody prepared for the lesson. Hech birimiz darsga tayyor emasligimizni bilgach o'qituvchimizning tepa sochi tikka bo'ldi.

Ushbu iborada "had a cow" birikmasi biror narsadan g'azablanish, xafa bo'lish yoki hayajonlanishni anglatadi. XX asrning boshlarida va o'rtalarida Qo'shma shtatlarda paydo bo'lgan hamda bu ibora insonlarga nisbatan ishlatiladi. "Tepa sochi tikka bo'ldi" iborasi



2-TOM, 4-SON

o'zbek tilida ko'chma ma'noga xos bo'lib o'z ma'nosida "jahli chiqdi" degan ma'noni beradi.

Quiet as a mouse-qo'y og'zidan chop olmagan.

My twins couldn't be mote different; one is a gregarious cheerleader and the other is quiet as a mouse. Mening egizaklarim boshqacha bo'lishi mumkin emas edi; biri quvnoq, ikkinchisi esa qo'y og'zidan cho'p olmagan.

Bu iborada ingliz tilida "sichqon" o'zbek tilida esa "qo'y" hayvonlari orqali yuvosh, nihoyatda beozor insonlar nazarda tutilayabdi. Bunga misol qilib, juda ham ko'p nutqimizda ishlatadigan birikmalarimizdan biri "qo'ydek yuvosh" iborasidir.

Ingliz va o'zbek tilida bunga o'xshash frazeologik birikmalar juda ko'p va ular quyidagilar:

1. Every dog is a lion at home - Har kim o'z uyida sher.
2. Ride the high horse – Otdan tushsa ham egardan tushmaydi.
3. A snake in the grass - Qo'ynida ilon asramoq.
4. As cunning as a fox - Tulkidek ayyor.
5. Let the cat out of the bag - Dardini ochmoq.
6. A clever dog - Ko'ngli bo'sh.
7. To kill like a dog - Itdek otib tashlash.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, biz nutqimizda turli xil yaxshilikka undovchi iboralardan foydalanamiz, hayvon nomlari ishtirokidagi iboralar ijodkorlik, hazil yoki kinoyani ko'rsatadi va ular so'zlovchilarning hayoti, ongi va ba'zan kechinmalari haqida tushuncha beradi. [Qo'yni - yuvosh insonga, tulkini -ayyor, mug'ombir insonga o'xshatilishi kabi].Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, hayvon nomlari bilan kelgan frazeologik birliklar o'ziga xosligi, emotsionallikni ifodalashiga ko'ra boshqa iboralardan farqlanadi. Iboralar ko'p foydalanadigan kishilarining so'z boyligi, fikrlashi bilan boshqalardan farqlanib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatov.F., Tilolova.G.[2013]. Chet tilini o'qitishda xorij tarjibasi va grantlardan foydalanish.Chet tilini o'qitishda metodika, malaka va tarjiba,259-261
2. Rahimova.M, Muhammadqodirova.F [2022] "O'zbek tilida million xarakter bilan bog'liq ishlarning lingvokulturologik tadqiq".
3. Qosimova.N "Frazeologiya va olimlarning qilgan tadqiqotlari".
4. SH.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022 B: 194



2-TOM, 4-SON

5. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).
6. Ergashevna, S. N. Pedagogical Aspects of Improving the System of Distance Training of Public Education Workers. JournalNX, 107-110.
7. Alavutdinova, N., & Ergasheva, L. (2024). COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE. Science and innovation, 3(B1), 29-34.
8. CAMBRIDGE International Dictionary of Idioms. Cambridge University Press 1998.
9. <https://www.theidioms.com/privacy-policy/>.
10. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. Solution of social problems in management and economy, 2(13), 5-12.



2-TOM, 4-SON

**BANK KARTALARIDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ FIRIBGARLIK
JINOYATLARIDA DASTLABKI VA KEYINGI TERGOV HARAKATLARINI
O'TKAZISH TAKTIKASI**

Amirxon Nosirov Bahodir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti” soha mutaxassisligi magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishda dastlabki va keyingi tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi bayon etilgan. Unda bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatida so'roq qilish, jinoyat izlari va ashyoviy dalillarni qidirib topish, qayd etish hamda olish, ko'zdan kechirish kabi tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: dastlabki tergov, so'roq qilish, jinoyat izlari, ko'zdan kechirish tergov harakati, raqamli dalillar.

Ma'lumki, firibgarlikning sodir etilishi usullarini yaxshi bilish tergovni muvaffaqiyatli olib borishga imkon beradi. Xususan, tergov organlari tomonidan shu asnoda u yoki bu tergov harakatlarini o'tkazish rejalashtiriladi, tergov harakatlarini o'tkazishning ketma-ketligi, taktikasi aniqlanadi hamda tezkor qidiruv tadbirlari belgilanadi.

Jinoyat sodir etilganda, bir qator tezkor qidiruv harakatlarini amalga oshirish, jinoyatni tezkor fosh etilishiga yordam beradi. Bunday turdagi jinoyatlarni ochishda, avvalambor tergov harakatlarining tezkor sur'atlarda olib borilishi, surishtiruvchi, tergovchi va tezkor qidiruv xodimlarining o'zaro faol hamkorliklari, shuningdek, bank va to'lov tizimi tashkilotlaridagi keng qamrovli hamda tergov uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, mavjud ma'lumotlarni tergov organlari va bank xavsizlik xodimlari o'rtasida tezkor almashinuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki tergov bosqichining muhim jihatlardan biri bu jabrlanuvchini to'g'ri so'roq qilishir. Agar tergov jarayonining boshlanishida firibgarning shaxsi aniqlanmasa, dastlabki tergov harakatlarida quyidagilar amalga oshiriladi: jabrlanuvchini so'roq qilish, ko'zdan kechirish, gumon qilinuvchini ushlab, tintuv qilish, so'roq qilish. Jabrlanuvchini so'roq qilishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak.

1) firibgarlik qachon va qayerda sodir etilganligi;



2-TOM, 4-SON

- 2) firibgarlar necha kishi bulgani, telefon orqali gaplashgan bo'lsa ovozi (yo'g'on yoki ingichka, yosh qari erkak ayol);
- 3) jinoyatchi firibgarlikning qaysi usulidan foydalangan;
- 4) texnik qurilma (telefon, planshet, kompyuter) va bank karta rekvizitlarini, maxfiy sms kodlarni kimga berganligi;
- 5) sodir etilgan jinoyat to'g'risida jabrlanuvchi kimga xabar berganligini;

Jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni qidirib topish, qayd etish va olish maqsadida, ko'zdan kechirish tergov harakatlari olib boriladi. Jabrlanuvchi firibgar bilan qanday bog'langan, qaysi texnik yoki raqamli qurilma ya'ni, telefon, planshet, kompyuter qurilmasi topshirilishi bilanoq darhol ko'zdan kechirilishi lozim, bu o'z navbatida jinoyatchi shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va jinoyat izlarini topish imkoniyatini beradi.

Jabrlanuvchi tomonidan topshirilgan texnik yoki raqamli qurilma ya'ni, telefon, planshet, kompyuterda saqlanayotgan jinoyat izlari ya'ni IP-adreslar, foydalanuvchilarning akkaunt ma'lumotlari, log-fayllar, brauzer tarixi, DNS-serverlar bilan bog'liq izlar, xosting-provayderlardagi izlar, reklama veb-sahifalari izlari, jabrlanuvchining raqamli qurilmasidagi saqlanib qolgan yozishmalar, qabul qilingan buyurtmalar izlari, bank karta hisob raqamlari, hisob raqamlardagi pul tushumi va chiqimi bilan bog'liq izlarni ekspert kriminalist diqqat bilan o'rganishi kerak. Aksariyat hollarda jinoyatchilar o'z izlarini turli xil dasturlar orqali o'chirishga, soxta va boshqa kishilarni nomiga ochilgan IP adreslar orqali tergovni chalkashtirishga, VPN va virtual mashinalar orqali o'z manzillarini o'zgartirishga harakat qilib tergov jarayonini qiyinlashtirishga muvaffaq bo'lishadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ommaboplik xususiyatidan kelib chiqib, insoniyat kundalik hayotining ajralmas bir qismi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu qurilmalarda saqlanayotgan raqamli axborotlardan fuqarolik, ma'muriy, iqtisoiy va jinoyat protsessining isbotlash jarayonida foydalanish ehtiyoji ortib bormoqda. Raqamli dalillarning huquqiy maqomi, ularni to'plash, tekshirish, saqlash, transportirovka qilish va baholash tartibiga oid normalar protsessual qonunchiligimizda ham belgilanmagan.

Raqamli dalillar – raqamli qurilma va tarmoqda saqlangan yoki ular orqali uzatilishi bilan inson omili yoxud kiberjarayon natijasida yuzaga kelgan ish uchun ahamiyatli, qiymatlangan axborotdir. Ularning tasvirlanishi turli ko'rinishda (infrastruktura, tizim, kod, tarmoq ma'lumotlari, tasvir, vektor va raster tasvirlar, foto, video, dastur, o'yin, axborot, jurnal, veb kontentlari, joylashuv va boshqalar) bo'lishidan qat'iy nazar, raqamlar orqali



2-TOM, 4-SON

ifodalanadi¹. Aynan shu xususiyati uchun ham ular raqamli dalillar deb ataladi. Moddiy dalillardan farqlovchi asosiy xususiyati ham uning raqamlarda ifodalanishidir.

Raqamli dalillar bo'yicha ekspert ko'rsatuvlarini tekshirish va baholash tartibiga oid qoidalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjud emas. Shu bois, ekspertiza amaliyotida muayyan protsessual va uslubiy xatoliklar yuzaga kelmoqda. Qoida tariqasida, ekspert raqamli dalillarni to'plash, tekshirish va baholash natijalari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa beradi. Sud muhokamasida o'tkazilgan tadqiqotning xususiyatlari, metodlari hamda vositalari bo'yicha ilmiy asoslangan tushuntirishlar beradi. Bunda ekspert (mutaxassis) dalillarni to'plash, tahlil qilish va baholash jarayonida o'zining barcha xatti-harakatlarini bosqichma-bosqich hujjatlashtirishi, dalillarni olish va tekshirish usullari hamda vositalari ko'rsatilishi, baholash mezonlarini va qiymatlash masalalari batafsil izohlab beriladi. Shu bilan birga, ekspert (mutaxassis) natijalar (jarayon)ni amalda qayta bajarib ko'rsatib berishi shart.

Dastlabki tergovni olib borish bilan bir vaqtda jinoyatchini qidirib topish maqsadida tezkor qidiruv tadbirlari ham olib boriladi. Jinoyatchini ushlab vaqtida daliliy ashyolarni saqlab qolish maqsadida, avvalo uning asosiy vosita bo'lmish raqamli qurilmasidan ya'ni jinoyat sodir etish vositasidan iloji boricha uzoqlashtirish zarur. Sababi aksariyat jinoyatchilar javobgarlikdan qutulib qolish maqsadida o'z raqamli qurilmalaridagi barcha malumotlarini soniyalar ichida yo'q qilib yuborishi mumkin. Ular kompyuter xotirasidagi raqamli izlardan tezda qutulish uchun "killer fleshka" lardan foydalanishadi. Ushbu maxsus fleshka har qanday kompyuter qurilmasidagi ma'lumotlarni soniyalar ichida ishdan chiqarishi, qayta tiklanishi qiyin darajada o'chirib yuborishi va bu o'z navbatida ekspert, mutaxassis ishini yanada qiyinlashtirishi mumkin.

Firibgarni shaxsini aniqlash juda mushkul vazifalardan biri bo'lib, yetarlicha dalil va ma'lumotlarsiz bu ishni amalga oshirib bo'lmaydi. Elektr energiyasidan foydalanadigan deyarli har qanday qurilmada hozirda raqamli saqlashning biron bir shakli mavjuddir. Simli yoki simsiz tarmoqlar kundalik hayotimizda foydalanadigan ko'plab qurilmalarni birlashtirdi. Bu narsa, o'z navbatida ko'plab tarmoq va veb-xizmatlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi, shu jumladan bulutli hisoblash. Ushbu xizmatlarning ba'zilari, masalan, Facebook, Twitter, Instagram, Telegram va h.k.lar odamlarning o'zaro munosabatlarini o'zgartirmoqdalar. Ushbu o'zgarishlar raqamli dalillarning to'planishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Elektron pochta allaqachon axborotni boshqarish muammolari, raqamli

¹ *Topildieva D. Circumstances to be determined when investigating intentional killing // TSUL Legal Report International electronic scientific journal. – 2020. – 1 (1). Available at: <https://legalreport.tsul.uz/index.php/journal/article/view/18> (Accessed: 14 December 2020).*



2-TOM, 4-SON

kriminalistika va foydali ma'lumotlarning asosiy manbai aylandi². Xozirda davrda raqamli kriminalistika to'plamlari, xususan **EnCase** va **FTK lar** tarmoq va tijorat muhitiga o'tdilar. Ular korporativ xavfsizlik va elektron kashfiyot maqsadida korxonalarda istiqbolli tarzda joylashtirilmoqda.

Ushbu turdagi firibgarlik sodir etilganligi haqida ma'lumot mavjud bo'lganda quyidagi tergov harakatlar amalga oshiriladi:

- jinoyat izlarini topish va tadqiq maqsadida transaksiya sodir etilgan qurilmani ko'zdan kechirish;

- bank kartasi egasini muammoli tansaksiya to'g'risida so'roq qilish;

- bank kartasi egasi bilan aloqada bo'lgan shaxslarni so'roq qilish;

- bank plastik kartasi tegishli bo'lgan bank xodimlarini so'roq qilish

- karta rekvizitlarini aniqlash va undagi jinoyat izlarini aniqlash maqsadida bank kartasini ko'zdan kechirish maqsadida egasidan olib qo'yish;

- bank va bank kartasi egasi o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek, muayyan transaksiya operatsiyalari amalga oshirilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar yoxut qurilmalarni olib qo'yish.

Agarda bankomatlar videokuzatuv tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, u holda videoyozuvni tergovchiga talab qilingan muddatga taqdim etish to'g'risida bankka so'rov yuboriladi³.

Videoyozuv taqdim etilgandan so'ng xolislar ishtirokida ko'zdan kechirish o'tkaziladi va jinoyat ishi materiallariga ilova qilinadi.

1) firibgarlik sodir etilgan kuni ishlagan xodimlar, kassirlar va qo'riqchilarni so'roq qilish;

2) emitent banklardan, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalaridan va ekvayring banklaridan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish faktlarini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo'yish;

3) savdo do'konlari va unga tutash binolar videokuzatuv tizimlari bilan jihozlangan bo'lsa, video yozuvlarni olib qo'yish;

4) olib qo'yilgan videoyozuvlar va hujjat va qurilmalarni keyinchalik jinoyat ishi materiallariga ilova qilgan holda ko'zdan kechirish;

Olib qo'yish tergov harakati natijasida jinoyat ishi materiallariga quyidagilar ilova qilinadi:

² E. Iwata, *Enron case could be the largest corporate investigation*, USA Today, February 18, 2002.

³ Васюков С.В. *Предупреждение преступлений, совершаемых в сфере проведения безналичных расчетов, проводимых с использованием банковских карт. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. юр. наук. М., 2013. С. 8.*



2-TOM, 4-SON

- banklarning ta'sis hujjatlarini, bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga egalik litsenziyalarni, shuningdek xalqaro to'lov tizimlarining banklar, o'z navbatida savdo tashkilotlari bilan shartnoma munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlari nusxalari;
- protsessing markazlari, banklar o'rtasida ulanish va protsessing xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalarni;
- uskunalarni qabul qilish va topshirish aktlarini (imprinterlar, ROE-terminallar);
- bank kartalari egalari uchun xizmat ko'rsatish shartnomalari;
- xalqaro bank kartalari bilan ishlash qoidalari.

Bundan tashqari, tashkilotlarga jinoyatchilarning online tijorat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bilan internet aloqalarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi materiallarni taqdim etish talabi bilan so'rovlar yuborilishi kerak. Agar kerak bo'lsa, tashkilotlarning vakillari so'roq qilinadi⁴.

Guvohlarni so'roq qilish: ushbu jinoyatlarda ham barcha jinoyatlar kabi firibgarlar jinoyatni iloji boricha guvohlarsiz sodir etishga intilishadi. Lekin ayrim hollarda mazkur ish bo'yicha ham kerakli bo'lgan ko'rsatmalarni beradigan va ayblanuvchining shaxsi to'g'risida yoki uning qarindosh, o'rtoqlari, hamkasblari to'g'risida axborot beradigan guvohlar topiladi.

Bunday guvohlarni so'roq qilish davrida quyidagi ma'lumotlar aniqlanadi:

- gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining tashqi ko'rinishi, hayot tarzi, qayrda ishlagani;
- gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi aloqa doirasi qanaqa, kim bilan do'stlashib yurgan, tanishlari kimlar, qaysi soha vakillari hamda bo'sh vaqtini qanday o'tkazgan, tanishlari ichida avval sudlanganlar bormi;

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishda dastlabki va keyingi tergov harakatini jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga rioya qilgan holda o'tkazilishi kelgusida ish uchun ahamiyatli bo'lgan dalillarni qo'lga kiritilishi hamda olingan dalillarning maqbul bo'lishiga xizmat qilib, jinoyatlarni tez va to'la ochish hamda jinoyat sodir etgan har bir shaxsni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga, eng asosiysi haqiqatni aniqlanishiga erishish mumkin bo'ladi.

⁴ Вертузаев М.С., Котляревский А.И., Юрченко А.М. Способы посягательства на имущество банков и их вкладчиков с использованием кредитных карточек // Безопасность информации. 1997. № 1. С. 28 - 41.



2-TOM, 4-SON

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Topildieva D. Circumstances to be determined when investigating intentional killing // TSUL Legal Report International electronic scientific journal.
2. Васюков С.В. Предупреждение преступлений, совершаемых в сфере проведения безналичных расчетов, проводимых с использованием банковских карт. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. юр. наук. М., 2013. С. 8.
3. Вертузаев М.С., Котляревский А.И., Юрченко А.М. Способы посягательств на имущество банков и их вкладчиков с использованием кредитных карточек // Безопасность информации. 1997. № 1. С. 28 - 41.
4. E. Iwata, Enron case could be the largest corporate investigation, USA Today, February 18, 2002.



2-TOM, 4-SON

BUYUK IPAK YO'LI VA UNDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
AHAMIYATI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Qilichev Sayyidmurtozaxon G'ulomxon o'g'li

bekqilichev8@gmail.com

Ro'zimov Bobomurod Farxod o'g'li

rozimovbobomurod1@gmail.com

Xidirov Abdilohat Abdurashit o'g'li

abdulohatxidirov@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Hafizov Sarvar Boborajab o'g'li

shafizov@dpi.uz

[https:// https://orcid.org/0009-0000-1299-205X](https://orcid.org/0009-0000-1299-205X)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk Ipak Yo'li Osiyo mamlakatlari uchun turizm sohasi rivojida nechog'liq ahamiyatli ekanligi yoritilgan. Shuningdek mamlakatimizning Buyuk Ipak Yo'lida joylashgan so'lim go'shalari haqida ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar : Buyuk Ipak Yo'li, Smarqand, transport, bozor infratuzilma, xorijiy turistlar, ASEAN, BTT

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohaslaridan biri xususan turizm sohasiga e'tibor kuchayib bormoqda. Insonlar borgan sari o'zlarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga, dam olishga, sog'lig'ini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf odatlarini, qadriyatlarini bilishga intilmoqda. Bundan tashqari, insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. O'tgan 2004 yilda dunyo aholisining har to'rtinchisi sayohat qilganlar. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda. Shunisi qiziqki, turizm rivojlanishi bilan bir qatorda transport, bozor infratuzilmasi, savdo sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik hamda boshqa xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanib ketadi. Respublikamiz xalqaro turizmni rivojlantirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Bularga "Buyuk Ipak Yo'li"ning shoh tomiri respublikamizdan o'tganligi, butun dunyoga mashhur tarixiy va madaniy shaharlarimiz



2-TOM, 4-SON

XVIII asrga kelib Britaniyada bolalar soni oshishi natijasida ular uchun kitob chop etish yangi tijoriy tus oldi. O'quv kitoblari bilan birga bolalarni qiziqtiradigan yangi turdagi kitoblarga ham ehtiyoj tug'ila boshladi. Aynan kichik yoshli kitobxonlar doirasiga mo'ljallangan qiziqarli kitoblarning yo'qligi sabab, bolalar kattalar uchun yozilgan asarlarni o'qishga majbur edilar. "Daniel Defoning 1719-yilda chop etilgan "Robinson Kruzoning sarguzashtlari" va Jonatan Sviftning 1726-yilda chop etilgan "Gulliverning sayohatlari"



2-TOM, 4-SON

asarlari kattalardan ko‘ra sarguzashtga ishtiyoqmand bolalar orasida katta muvaffaqiyatga erishdi” [10, 242].

Angliyada bolalar uchun kitob nashr qilish ilk bor 1744-yilda Jon Nyuberining “A little pretty pocket-book” (“Ajoyib kichkina cho‘ntak-kitob”) nomli kitobi nashri bilan yangicha tus oldi. Kitob bosh sahifasida ishlatilgan "Delectando Momenus: Instruction with Delight" (“Shodlik ila ta’lim”) shiori kitobning ingliz faylasufi Jon Lokkning “Ta’limga oid ba’zi mulohazalar” essesi ta’sirida yozilganidan dalolat beradi. Jon Lokk unda “Foydali va qiziqarli – shu ikki xususiyatni birlashtirishga muvaffaq bo‘lingandagina o‘quvchiga ham ta’lim, ham zavq berishga erishish mumkin. O‘qishga ilhomlantirish uchun bolaga qobiliyatiga mos, oson va qiziqarli kitob berish kerak” degan fikrlarni ilgari surgan. Shuningdek, bolalar ertakdan ko‘ra masal o‘qishsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki har qanday masalda qissadan hissa borligi sabab u tarbiyaviy maqsadni ham amalga oshirishga yordam berishini aytadi. Ayniqsa, Ezop masallarini o‘qishni maslahat berib, agar masallar rasmlar bilan bezatilgan bo‘lsa, bolalarni yanada qiziqtirishini yozadi. Nyuberi Lokk nazariyasini amalda qo‘llab, asarni rasmi alifbo, tanlangan maqollar va rasm bilan bezatilgan bir nechta Ezop masallaridan iborat to‘plam shaklida chop ettiradi [11, 179]. Tavnsend Nyuberigacha chop etilgan barcha kitoblar va nashrlarni “bolalar adabiyotining tarixgacha bo‘lgan davri” deb ataydi. Bunday kitoblar sirasiga xalq ertaklari va Robin Gud haqidagi afsonalarni kiritish mumkin, ular garchi bolalarga mo‘ljallanmagan bo‘lsa-da, yosh kitobxonlar tomonidan sevib o‘qilgan. Ammo Nyuberining kitobi Angliyada aynan bolalar uchun kitob chop etadigan nashriyotlarning paydo bo‘lishiga va bolalar kitoblariga yangicha qiziqishning uyg‘onishiga turtki bo‘ldi.

Bolalar adabiyoti rivojlanib borgani sari uning sof badiiyat unsurlarini egallashga intilishi va umumadabiyot taraqqiyot tamoyillari bilan hamkorligi ham ko‘zga tashlanadi. Buni ingliz bolalar adabiyotining oltin davri hisoblangan Viktoriya davri adabiyoti misolida ko‘rishimiz mumkin. XIX asr o‘rtalariga kelib axloqiy-tarbiyaviy ruhdagi kitoblar o‘rmini hajviyaga boy, qahramoni bolalar bo‘lgan va ularning xayolotiga asoslangan asarlar egalladi. Bolalar adabiyoti janr va mavzu jihatdan o‘zgardi. Shuni hisobga olgan holda, “Lyuis Roberts Viktoriya davri bolalar adabiyotini quyidagi kategoriyalarga bo‘ladi:

- 1) ertak va adabiy ertak janridagi asarlar;
- 2) tarbiyaviy-axloqiy va diniy asarlar;
- 3) maktab hayotidan hikoya qiluvchi va sarguzasht asarlar;
- 4) uy va oila hayotidan hikoya qiluvchi asarlar” [14, 357].

Viktoriya davrida xalq ertaklarning boy merosiga ega sanalib, bu ertaklar o‘rta asrlardan buyon avloddan avlodga o‘tib kelgan. Shunga qaramay, 1823-yilda Angliyada



2-TOM, 4-SON

aka-uka Grimm ertaklarining tarjima qilinishi, chop etilishi ertaklarning, ayniqsa, bolalar ichida ommalashuviga sabab bo'ldi. Qadimdan shakllanib kelgan xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan ertak endi adabiy ertak ko'inishida yozuvchilar tomonidan aynan bolalarga atab yozila boshlandi. Ertaklarning yanada ommalashuviga sabab, ularda bolalarni qiziqtiradigan sarguzashtlar bilan bir qatorda, ularning ongiga sezdirmay kirib boruvchi yaxshilik g'oyalari singdirilganidadir. Xalqimizda "Ertaklar yaxshilikka yetaklar" degan maqol bor. Mashhur ingliz adibi, bolalarga atab bir necha asarlar yozgan Charlz Dikens ham aynan ertaklar bolalarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishi xususida quyidagilarni yozgan:

"Uning (ertakning) ko'rinmas yo'llari orqali bizgacha yetib kelgan rahm va shafqat tuyg'ularining hisobiga yetish qiyin. Sabr, xushmuomalalik, kambag'allar va qariyalarga nisbatan mehr, hayvonlarga yaxshi munosabat, tabiatni sevish, jaholat va shafqatsizlikka nisbatan nafrat va shunga o'xshash ko'pgina yashi xislatlar bolaning yuragiga ilk bor shu kuchli yordamchi ta'sirida jo bo'ladi" [15, 358].

Jon Raskinning "The king of golden river" ("Oltin daryo qiroli", 1850) asari ingliz adabiyotida yaratilgan birinchi adabiy ertak hisoblanadi. Tez orada bu janr yozuvchilar o'rtasida ommaviylashib, ular ham Raskinning an'alarini davom ettirishdi. Jorj Krukshenkning "Fairy library" ("Sehrlil kutubxona", 1853-1854), Uilyam Tekkereyning "The rose and the ring" ("Atirgul va uzuk", 1855), Frensis Braunning "Granny's wonderful chair" ("Buvining g'aroyib kursisi", 1857), Oskar Uayldning "Baxtli shaxzoda" (1888), Jozef Jekobning "English fairytales" ("Ingliz ertaklari", 1890) va bu kabi boshqa asarlar o'sha davrda adabiy ertak janrining rivojlanganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, butun dunyo bolalari hozirga qadar sevib o'qiydigan, bir necha bor ekranlashtirilgan "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asari ham shu davrda (1865) yaratildi. Lyuis Kerrollning "Alisa"si fentezi janrining bolalar adabiyotiga kirib kelishini hamda Angliyada bolalar adabiyotining oltin davrini boshlab berdi. "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asari bolalar adabiyotining o'tmishi va bugunini farqlovchi burilish nuqtasi bo'lib, unda sof fantaziya va tasavvur bolalar asarlaridan ortiqcha didaktik unsurlarni surib chiqardi va natijada bolalar adabiyoti kattalar adabiyoti singari mukammallikka erishib, adabiy ahamiyat kasb eta boshladi.

XIX asrning 60-yillarida fentezi janrida yozilgan yana bir mashhur asar Charlz Kingslining "The water-babies, a fairytale for land baby" ("Suv bolalari, yer bolasi uchun ertaklar") asari o'z davrida Angliyada juda mashhur bo'lgan va hozirda Britaniya bolalar adabiyotining mumtoz asalaridan biri hisoblanadi.

Tomaz Hyuzning 1857-yilda chop etilgan "Tom Brown's school days" ("Tom Braunning o'quvchilik kunlari") asari ingliz bolalar adabiyotida o'quvchilar hayotiga oid



2-TOM, 4-SON

yangi yoʻnalishning asosi boʻldi. “Hyuz oʻz asarida maktab sporti va oʻqituvchi-oʻquvchi munosabatlarini tasvirlash orqali insonning hayotda oʻz oʻrnini topishida axloqiy hamda jamiyat oldidagi burchlarini anglashi muhimligini koʻrsatadi. Hyuzgacha maktab hayotidan hikoya qiluvchi bir necha asarlar yaratilgan boʻlsa-da, ularning hech biri “Tom Braun” erishgan muvaffaqiyatga erisha olmadi” [9, 364].

Viktoriya davri bolalar adabiyotining oʻziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, maktab va sarguzasht asarlarining koʻpchiligida Britaniya imperial tuzumini bolalar ongiga singdirishga urinishlar mavjud edi. Shuningdek, xuddi mana shu davrda bolalar adabiyotida ham kitobxonlar oʻrtasida boʻlinish vujudga keldi. Maktab hayotidan hikoya qiluvchi va sarguzasht asarlar koʻproq oʻgʻil bolalar auditoriyasiga qaratilgan boʻlsa, uy va oila hayotidan hikoya qiluvchi asarlar asosan qiz bolalarga moʻljallab yozila boshlandi, bunday asarlarning mualliflarini ham ayol yozuvchilar tashkil etardi. Toʻgʻri, qiz bolalar boshqa janrdagi asarlarni ham maroq bilan oʻqishgan boʻlishsalar-da, ular oʻqiydigan kitoblarning asosiylari aynan qiz bola oʻquvchilarga atab yozilgan, oila va unda sodir boʻladigan turli voqea-xodisalar xususidagi asarlarni tashkil etar edi.

Realistik tamoyillarning rivojlanishi, ruhiyatshunoslikning chuqurlashishi bilan bolalar adabiyotida keng qamrovli, koʻp qirrali bolalik obrazi mustahkamlandi. Bunda yozuvchilar insoniyat rivojlanishining ibtidolarini, yosh inson xarakterining tub-tubiga yetib, bola ichki dunyosining murakkabliklariga asta-sekinlik bilan kirib borib, uning mutanosiblikda va ziddiyatlarda, hayotning yorqin hamda qorongʻu ham qaygʻuli onlarining kurashlarida shaxs sifatida shakllanishini ochib berishdi.

Ingliz va jahon adabiyoti tanqidiy realizmining eng yetuk namoyondalaridan biri boʻlgan Charlz Dikkensning “Oliver Tvistning sarguzashtlari” asari 1837-yilda chop etilib, nafaqat bolalar, balki katta yoshli kitobxonlarning ham qalbidan joy oldi. Asarda Oliver va u kabi yetim-daydi va qashshoqlikdan tinkasi qurigan bolalar hayoti tasvirlangan. “Yozuvchi Oliver timsoli orqali tashlandiq bolalarning xatarli, achinarli va dahshatli hayotini, yashash zaruriyati tufayli bilib-bilmay boshi berk koʻchaga kirib qolishlarini koʻrsatib beradi” [6, 76]. Roman bola obrazi bosh qahramon boʻlgan birinchi ingliz asari hisoblanadi. Dikkensning bolalar hayotini real ranglarda ochib berishi, bolalarning qandaydir xayoliy sarguzashtlarga emas, balki haqiqiy hayotning qiyinchiliklari-yu sinovlariga duch kelishlari, hayotning bunday oʻnqir-choʻnqir yoʻllarida oʻzligini, hayotiy qarashlarini yoʻqotmagan bola obrazi ingliz bolalar adabiyotida realistik qahramonlar yaratila boshlanganidan dalolat beradi.

1880-yillarga kelib bolalar adabiyotida sarguzasht janri kitobxon bolalar tomonidan eng koʻp oʻqiladigan janrga aylanib, bu janrdagi asarlar kitobxon bolalar orasida koʻproq



2-TOM, 4-SON

muvaffaqiyatga erishdi. Bunday turdagi asarlarning ko'pchiligi Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" romanidan ruhlanib yozilgan edi. Luis Stivensonning "Xazinalar oroli" (1883) va "Merosxo'r" (1886), Redyard Kiplingning "O'rmon kitobi" (1894-1895) va "Kim" (1901) asarlari ingliz bolalarining sevimli sarguzasht kitoblariga aylandi.

XX asr o'zining inqiloblari, urushlari, keskin ijtimoiy muammolari, o'tkir ziddiyatlari, siyosiy qarashlari bilan Britaniya bolalar adabiyotini ham o'zgartirib yubordi. Dunyoning dahshatlari kichik kitobxon asari sahifalariga kirib bordi. Ularning qahramonlari – ijtimoiy jonzotlar, ular o'z holicha insonga nisbatan qilingan vahshiylikka qarshi borishadi, o'zlarining do'stlikka, muhabbatga bo'lgan huquqlarini talab qilishadi hamda kattalarni ularni tushunishlariga chaqirishadi. Zamon muammolari nafaqat realistik asarlarga, balki ertaklarga ham kirib bordi. Ular janriy xususiyatlaridan ozgina chekingan bo'lsalar-da, hamon yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga umid bog'lashadi va shu yo'lda tinimsiz ma'naviy kurashlar olib borishadi.

Britaniyada bolalar adabiyotining oltin davri birinchi jahon urushi arafasida o'z nihoyasiga yetdi va ikkinchi jahon urushi yillarida adabiyot rivoji ma'lum ma'noda sekinlashdi. Shunday bo'lishiga qaramay, adiblar bolalar uchun kitob yozishdan to'xtashmadi. 1926-yilda A.Milnning "Vinni Puh" va 1937-yilda J.R.Tolkinning "Hobbit" asarlari dunyo yuzini ko'rdi. Angliyadagi *Puffin Books* nashriyoti past bahoda kitoblar chiqarib, ikkinchi jahon urushi yillarida ingliz bolalarining kitob dunyosidan uzilib qolmasliklariga o'z hissasini qo'shdi.

XX asrning 50-yillariga kelib, urush ta'siridan o'zini biroz bo'lsa ham o'nglab olgan Britaniyada bolalar uchun kitob nashri yana keng yo'lga qo'yilib, bir necha mashhur asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Ularga Klayv Steypls Lyuisning "The chronicles of Narnia" ("Narniya saltanati", 1950-yillar), Dodi Smitning "The hundred and one dalmatians" ("Bir yuz bir dalmatin", 1956), Roald Dalning "James and the giant peach" ("Jeyms va bahaybat shaftoli", 1961) hamda "Charlie and the chocolate factory" ("Charli va shokolad fabrikasi", 1964) kabi asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Xuddi mana shu asarlar asosida keyinchalik bolalar uchun filmlar ham suratga olindi.

XX asr oxirida, ya'ni 1997-yilda Joan Rouling o'zining "Garri Potter va falsafa toshi" asarini chop ettirdi va tez orada bir necha tillarga ham tarjima qilinib, nafaqat ingliz balki, butun dunyo bolalarining sevimli kitoblari qatoridan joy oldi. Asarning muvaffaqiyati kitoblar hali hanuz ingliz bolalarning eng yaqin do'stlari ekanligidan darak beradi.

Shunday qilib, Angliya bolalar adabiyotining XVII-XVIII asrdan to hozirgi davrgacha bo'lgan tarixi o'rganilganda, uning hech qachon bir nuqtada to'xtab qolmay, doimiy taraqqiy qilganiga guvoh bo'lish mumkin.



2-TOM, 4-SON

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A Companion to the Victorian novel //ed. Brantlinger, Patrick and Thesing, William B. U.K., Blackwell Publishing Ltd., 2002. – 513 p.
2. Agarwal, N., Agarwal, Ch. Friends and Foes of Harry Potter: Names Decoded. Texas World Publishing, 2005. – 160 p.
3. Bilton, Ch., Cummings, S. Handbook of Management and Creativity. EdwardElgar Publishing, 2014. – 424 p.
4. Bilton, Ch., Cummings, S. Handbook of Management and Creativity. EdwardElgar Publishing, 2014. – 424 p.
5. Bobulová I., Pokrivčáková S., Preložníková E., Přibylová I. Children's and Juvenile Literature / (Written in English). Nitra: Univerzita Konštantína Filozofa, 2003. – 190 p.
6. Boynazarov Fayzulla. Jahon adabiyoti. T.: “Musiq” nashriyoti, 2006. –159 b.
7. D’amma, Don. Encyclopedia of Fantasy and Horror Fiction. – New York: Facts on File, 2006. – 498 p.
8. Darton, Harvey. Children's Books in England: Five Centuries of Social Life. Cambridge University Press, 2011. – 394 p.
9. Fenske, Claudia. Muggles, Monsters and Magicians: A Literary Analysis of the Harry Potter Series. Frankfurt: Peter Lang Publishing, 2008.–471 p.
10. Granjer, John. Harry Potter’s Bookshelf: The Great Books Behind the Hogwarts Adventures. – New York: Berkley Publishing Group, 2009. –336 p.
11. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. – 1024b.
12. Sandner, David. The Fantastic Sublime: Romanticism and Transcendence in Nineteenth-Century Children’s Fantasy Literature. – New York: Greenwood Press, 1996. – 168 p.
13. Shavit, Zohar. [Poetics of Children's Literature](#). [University of Georgia Press](#), 2009. – 216 p.
14. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. Т.: 1980. –442 б.
15. Детская литература // Под ред. Зубарева Е. – М.: Просвещение, 1989. – 399 с.



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI SAQLASH USULLARI

G`oziyeva Aziza Abdusalomovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

1-son davolash fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqil Respublikamizda yildan-yilga sabzavot va mevalar etishtirish ortib bormoqda. Sabzavot va mevalarning sifati, bir tomondan, ularning turi va naviga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ularni terish va uzish muddatlari hamda ularni saralash, tovar holatiga keltirish, joylash, tashish, saqlash usullariga to'liq rioya qilib borishga ham bog'liqdir. Bu ishlar o'z vaqtida va a'lo bajarilganda mahsulotning sifati va ta'mi yanada ortadi.

Tadqiqot materiallari va metodlar. Mahsulotni qayta ishlash darajasi turlicha, ya'ni dastlabki qayta ishlash yoki chuqur qayta ishlash bo'lishi mumkin. Dastlabki qayta ishlashga quritish kabi oddiy amaliyotlar kirsa, chuqur qayta ishlash mahsulotga bir necha bosqichlarda ishlov berish, ya'ni konsyervatsiya qilish, sharbat olish, qadoqlash kabi amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Masalan chuqur usulda mevani qurutishni oladigan bo'lsak bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat: O'rik (turshak) quritish. O'rikni quyidagi navlari turshakbop hisoblanadi: Yubileyniy Navoiy, Ko'rsodiq, Komsomolskiy, Isfarak, Xandon, Gulongi bodom, Turshak tayyorlash texnikasi. Turshak danagi bilan quritilgari o'rikdir. Olib kelingan mevalar olchamiga qarab navlarga ajratiladi (saralanadi). Shu maqsadda har xil kalibrlash mashinalaridan foydalaniladi. Dudlash uchun 1 kg mahsulotga 2-2,5 gram oltingugurt va 1,5 soat vaqt kerak boladi. Dudlangan mevalar ochiq joyda 3-4 kun quritiladi. Oradan 2 kun olgach mevalar ag'darib qo'yiladi. Hammasi bolib quritish kun davom etadi. Mevalar bir tekis qurib po'sti ajralmaydigan bolganda quritish tugallanadi. Narni 16 foizga keltiriladi, mahsulotlar kilogramm sig'imli karton qutilarda yoki kraft qoplarga joylashtiriladi. Mahsulot harorati 0-10 °S, nisbiy namligi 60-65 foizli omborlar saqlanadi.

Natijalar. O'rik mevasidan (qaysa) tayyorlash texnologiyasi. Qaysa - danagi olib quritilgan o'rikdir. Qaysa yirik o'rik mevalaridan tayyorlanadi. Qaysa tayyorlanish taxnikasi turshak tayyorlashdan deyarli farq qilmaydi. Masalan: pataislarda dudlangan mevalar quritish maydoniga qo'yiladi va ular bir-ikki kunda bir oz soligandan keyin bandi tomonidagi kesigidan danagi olib tashlanadi va yana patnislarga terib ochiq maydonga qo'yiladi. Bir ikki kundan keyin mevalar soyada quritiladi. Keyingi ishlar turshak tayyorlashdan farq qilmaydi. Qaysa 8-13 kunda yetilib, xomashyodan 20-27 foiz quruq mahsulot olinadi.



2-TOM, 4-SON

O'rik mevasidan (quraga) tayyorlash texnologiyasi. Quraga ikkiga yorib daaagi olib tashlanib quritilgan o'rikdir, u yirik mevalardan tayyorlanadi. Meva ikki pallaga kesilgandan keyin qaynoq suvda 45-60 soniya tutiladi, ichki tomoni yuqoriga qaratib patnislarga teriladi va oltingugurt bilan dudlanadi. Har bir kilogramm mevaga 1,5-2 gramm oltingugurt ishlatiladi. Dudlash 45-60 daqiqa davom etadi. Dudlangan meva patnisi bilan birga so'kchaklarga olib quritiladi. Namning 2-2/3 qismi qochgandan so'ng o'rik pallachalari ag'darilib qo'yiladi.

Xulosa. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga alohida e'tibor berib kelishgan. Mintaqamizda ob-havo yil va bir kecha-kunduzda o'zgaruvchan bo'lganligi sababli go'sht, yog', sut, baliq, tuxum kabi mahsulotlar issiqda tez ayniydi, juda qattiq sovuqda esa sabzavot va mevalar muzlab qoladi. mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning eng qadimgi usullaridan ko'mib yoki ilib saqlash, qoqi olishda quritish kabilar keng qo'llanilgan. Mahsulot saqlashda sabzavot, don, meva, go'sht, qazi va tuxumni ko'mib, poliz mahsulotlarini osib saqlash, turli meva, qovun, pomildorilardan qoqi olish, uzum, rayxon, kashnich, jambil va qizil qalampirni quritishni amalda keng qo'llanilishi shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Государственная программа развития сельского хозяйства и регулирования рынков сельскохозяйственной продукции, сырья и продовольствия на 2013–2020 годы [Электронный ресурс]. – Постановление от 14.07.2012 – № 717. – Режим доступа: <http://government.ru/programs/208/events/>. (10.05.2017).

2. Ткачев А.Н. Результаты реализации в 2016 году государственной программы развития сельского хозяйства [Электронный ресурс]. – Доклад на заседании Правительства РФ от 27.04.2017 – №12. – Режим доступа: <http://government.ru/meetings/27449/stenograms/#tkachev>. (10.05.2017).

3. Сельское хозяйство, агропромышленный и рыбохозяйственный комплекс: некоторые важные результаты и показатели 2016г. [Электронный ресурс]. – Отчет Правительства РФ от 19.04.2017. – Режим доступа: <http://government.ru/info/27222/>. (10.05.2017).



2-TOM, 3-SON

KALSIY ELEMENTINING INSON ORGANIZMIDAGI AHAMIYATI

Nazirova Dinora Sodiq qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot fakulteti talabasi.

Kalsiy inson organizmidagi eng ko'p uchraydigan mineral.U quyidagilar uchun muhim:

- suyak salomatligini qo'llab-quvvatlash;
- tomirlar qisqarishi va kengayishi;
- nerv impulsi uzatilish;
- gormonlar sekretsiyasi.

Kalsiy ichakda o'zlashtiriladi:hujayralarga tushib,ular orqali qonga chiqarib yuboriladi.

Kalsiy yetishmovchiligi organizmda tayanch-harakat tizimi , asab,holsizlik, soch to'kilishi, ishtaha pasayishi ,ko'p terlash, yurak-qon tomir xastaliklarini keltirib chiqaradi.Shu bilan birgalikda tish va tirnoqlarlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kalsiy homiladorlik paytida va tug'ruqdan so'ng ayollarda sut ishlab chiqarishning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Kalsiy moddalar almashinuvda muhim ahamiyatga ega. Olimlar uning ayollar menstrual oldi sindromi simptomlarini kamaytirishdagi ishtirokini ta'kidlaydilar.U ko'krak bezi raki rivojlanishini kamaytirishi mumkin.Bu xastaliklarni bartaraf etish uchun esa Kalsiy elementiga boy bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish lozim.



2-TOM, 3-SON



1-rasm. Kalsiyga boy mahsulotlar.

Sut mahsulotlari, dengiz mahsulotlari, turli meva-savzavot ekinlari, bodom, karam, yalpiz, tuxum, anjir, sariyog', baliq, kashtan, kunjut, makkajo'xori, guruch, arpa, pomidor, sabzi, piyoz, ismaloq, uzum bargi, gulkaram, banan, olma, qovun, tarvuz, qulupnay, anor, o'rik, olxo'ri, shaftoli, uzum, zaytun. shu kabi mahsulotlarda kalsiy elementi ko'p uchraydi. Bu mahsulotlar ko'p iste'mol qilinsa organizmda kalsiy miqdori meyorlashadi.

Kalsiyga boy mahsulotlar miqdori

100 g Tuxum po'chog'ida	40 g
100 g kunjutda	975 mg
100 g bodomda	216 mg
100 sarimsoqda	181mg
100 g petrushkada	138 mg
100 g sutda	120 mg
100 g soyada	114mg
100 g funduk yong'og'ida	114 mg

1-jadval. Kalsiy elementining mahsulotlardagi miqdori.

Kaltsiyni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish, kaltsiy etishmovchiligiga qaraganda kamroq tarqalgan bo'lsa ham, salomatlik uchun jiddiy xavf tug'diradi. Kalsiy elementining foydali xususiyatlari bilan birgalikda salbiy ta'siri ham bor. Kalsiyning me'yordan oshib ketishi gepirkalsimiya deyiladi va uning oqibatida buyrakda tosh hosil bo'lishi, ko'p miqdorda suv ichish, tez-tez siyish, ich qotishi, holsizlik, yurak ritming buzilishi va



2-TOM, 3-SON

tushkunlik va boshqalar kelib chiqadi. Suyak zichligini sezilarli darajada yoki sinishning oldini olmaydi, buning o'rniga kalsiy konlari arteriyalarda to'planib yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi. Siydikdagi kalsiyning yuqori darajasi kalsiy oksalat yoki kalsiy fosfat kristallarining shakllanishiga olib kelishi mumkin, ular buyraklar yoki siydik yo'llarida toshlar hosil qilish uchun to'planadi. Kalsiy qo'shimchalarini surunkali iste'mol qilish, ayniqsa, buyrak toshlari tarixi yoki ba'zi metabolik kasalliklar kabi predispozitsiya qiluvchi omillarga ega bo'lgan shaxslarda bu xavfni kuchaytirish mumkin. Inson tanasi minerallarning muvozanatini saqlaydi va kalsiyning ortiqcha iste'mol qilish bu muvozanatni buzadi. Kalsiyning ko'p iste'mol qilish, ayniqsa magniy, fosfor va D vitamini yetarli bo'lmaganda boshqa minerallarning so'rilishiga xalaqit qilishi mumkin. Kalsiyning ortiqcha iste'mol qilish temir, rux va magniy kabi boshqa muhim minerallarning so'rilishiga xalaqit berishi mumkin. Bu aralashish organizmdagi turli fiziologik jarayonlar uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu ozuqa moddalarining etishmasligiga olib kelishi mumkin. Magniy va D vitamini kabi suyakni qo'llab-quvvatlovchi boshqa oziq moddalarni etarli darajada iste'mol qilmasdan kalsiyning ortiqcha iste'mol qilish suyaklardagi minerallar muvozanatini buzishi mumkin, bu esa vaqt o'tishi bilan suyak zichligi va mustahkamligi bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin. Ba'zi tadqiqotlar kalsiyning yuqori iste'mol qilish va prostata saratoni kabi ba'zi saraton kasalliklari xavfi o'rtasidagi potentsial bog'liqlikni taklif qilgan bo'lsa-da, dalillar noaniqligicha qolmoqda va bu bog'lanishni aniqlashtirish uchun ko'proq tadqiqotlar talab etiladi antibiotiklar va qalqonsimon gormonlar kabi ba'zi dori-darmonlarni so'rilishiga xalaqit berishi mumkin va ularning samaradorligini pasaytiradi

Ushbu aralashuv potentsial salbiy ta'sirlarni yumshatish uchun moderatsiya va ehtiyotkor qo'shimchaning muhimligini ta'kidlaydi. Oshqozon-ichak traktining buzilishi va so'rilishi bilan bog'liq muammolar:



2-TOM, 3-SON

Haddan tashqari kaltsiy qo'shimchasi oshqozon-ichak traktining buzilishida, jumladan, shishiradi, ich qotishi va qorin bo'shlig'idagi noqulaylik bilan namoyon bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak kaltsiy elementini me'yorda iste'mol qilishimiz lozim. Aholi orasida kaltsiy kamayib ketibdi deb kaltsiy ichishadi, meyoridan ko'p kaltsiy ichib yuborilsa, chaqaloqlarda vaqtdan oldin liqildoqlarining tez bitib ketishi va bolalarda bosh miya gipertenziyasi rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shu holatlarni oldini olish maqsadida biz bu maqola orqali Kaltsiy elementi istemolini foydali va zararli tomonlarini, kunlik ehtiyoj qancha bo'lishi kerakligi haqida ma'lumot berishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.A. Sobirova, O.A. Abrorov.F.X. Inoyatova, A.N.Aripov Biologik kimyo.
2. <https://ods.od.nih.gov/factsheets/KalsiyIcium-Consumer/>
3. Y.F Mahmudov.Tabobatda kimyo va biologiya.



TARKIBLI DISKRETLOVCHI BARABANCHANING PARAMETRLARINI HISOBLASH

PhD. dotsent., Urakov Nuriddin Abramovich

Talaba. Jumanazarova Sitara Shonazar qizi

Termiz muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: Maqolada tasmali uzotma xarakati bilan aylanadigan diskretlovchi barabanchaning mexanik xarakteristikalari nazariy jixatdan bayon etilgan. Qurilgan dinamik modelga mos kelgan mashina agregati harakatini ifodalovchi diffirensial tenglamalar sistemasini Lagranjning II tur tenglamasidan foydalanib hosil qilindi.


Kalit so'zlar: agregat, barabancha, garnitura, vtulka, tish, koeffitsiyent, ko'rsatkich, deformatsiya, tasma, qayishqoq, ko'ndalang, element, kesim, ishqalanish, tayanch, val.

Tavsiya etilgan diskretlovchi barabancha tishli garnaturalari qayishqoq vtulka orqali uning valiga o'rnatilgan. Bunda tishli garnitura 3ta bir xil qismlarga bo'lingandir. Buning natijasida har bir tishli garnitura piltalari bilan ta'sirlashganda ham aylanma, ham vertikal yo'nalishlarda tebranadi. Ushbu tebranishlar aylanishlar amplitudalari juda kichik bo'lsa ham, tolalar to'g'rilanadi va parallellashiga olib keladi. Shuning uchun diskretlovchi barabanchalarni vertikal tebranishlarini tahlili muhim hisoblanadi [1]. Tarkibli diskretlovchi barabanchada uning asosiga, ya'ni vali bilan tishli garnaturalari orasida rezinali vtulkalar o'rnatilgan. Bunda rezinali vtulka har uchchala tishli garnitura uchun umumiy qilib olinishi mumkin. Shu bilan birga, har bir tishli garnitura qismi uchun alohida individual rezinali vtulkalar o'rnatilishi mumkin. Ushbu variantda individual rezinali vtulkalar bikrlilari har hil qilib olinishi qayd etiladi. Chunki diskretlovchi baraban ish jarayonida asosiy yuklanish uning o'rta qismiga to'g'ri keladi. Shuning uchun o'rta qismdagi tishli garnitura o'rnatilgan rezinali vtulka bikrligini kattaroq qilib olish maqsadga muvofiqdir [2].

Diskretlovchi-tituvchi barabancha garnaturalari pnevmomexanik yigiruv mashinalarida eng asosiy ishchi organ xisoblanadi. Bunda mashina agregatida har bir tishli garniturani alohida massa qilib olindi. Yuqoridagilarni inobatga olib mashina agregati dinamik modeli qurildi. U 1 -rasmda keltirilgan.



2-TOM, 3-SON



1- rasm. Diskretlovchi-tituvchi barabancha mexanizmlı mashina agregati dinamik modeli.

Mashina agregati dinamik modeliga asosan, sistema besh massali hisoblanadi: 1 massa - elektr yuritgich rotori; 2 massa – diskretlovchi barabancha vali massasi; 3,4,5-massalar – tishli garnaturalar massalari.

Pnevмомеханик yigirish mashinasida elektr yuritgich diskretlovchi-tituvchi barabanchalar uchun mexanik xarakteristika bilan inobatga olingan.

Uning asosiy mexanik xarakteristika [3] ga asosan quyidagi ifodalar orqali keltirilgan va unda ilmiy tahlil qilingan:

$$\begin{aligned} \dot{M}_{\text{Ю}} - (\omega_c - p\dot{\varphi}_{\text{Ю}})\psi + \frac{M_{\text{Ю}}}{T_{\text{э}}} &= 0; \\ \psi - \frac{2M_{\text{к}}}{T_{\text{э}}} + \frac{\psi}{T_{\text{э}}} p\dot{\varphi}_{\text{Ю}} + \omega_c + M_{\text{Ю}} &= 0; \\ T_{\text{э}} &= \frac{1}{S_{\text{к}} \omega_c}; \quad \psi = \frac{S_{\text{к}}}{S^I} (M_{\text{Ю}} + T_{\text{э}} \dot{M}_{\text{Ю}}) \end{aligned} \quad (1)$$

bu yerda, $\dot{\varphi}_{\text{Ю}}$ – pneuмомеханик yigiruv mashinasidagi elektr yuritgich rotori burchak tezligi; $S, S_{\text{к}}$ – pneuмомеханик yigiruv mashinasidagi elektr yuritgich rotori va statorini o‘zara sirpanishi, kritik qiymati; r – yuritgich juft qutblari soni; $M_{\text{yu}}, M_{\text{k}}$ – pneuмомеханик yigiruv mashinasidagi elektr yuritgich rotaridagi yurituvchi moment va uning kritik qiymati; ψ – yordamchi o‘zgaruvchi koeffitsint; ω_s – pneuмомеханик yigiruv mashinasidagi elektr



2-TOM, 3-SON

ta'minlagichning aylanma chastotasi, T_e – pnevmomexanik yigiruv mashinasidagi elektr yuritgichning o'zgarish vaqt ko'rsatkichlari.

Pnevmomexanik yigiruv mashinasidagi diskretlash zonasiga harakatni uzatuvchi tasmali uzatmani va tituvchi barabancha vali hamda tishli garnaturalar orasidagi rezinali vtulkaning bikrlilik va dissipatsiya koeffitsiyentlari mavjud [4] ga asosan hisoblanadi:

$$C = \frac{e^2 a E F}{e_T}; \quad \epsilon = \frac{\psi_I \cdot c}{\kappa_I \frac{2\pi}{T}}; \quad (2)$$

bu yerda, g –pnevmomexanik yigiruv mashinasidagi harakatni uzatuvchi g'ildirak radiusi; a – mavjudburchak bo'yicha deformatsiyani ifodalovchi xisobiy koeffitsiyent (uning diskretizatsiya normal ishlash muhiti uchun $a=2,0$); F – tekis tasma yoki qayishqoq (rezina) element ko'ndalang kesimining yuzasi; YE – diskretlovchi barabanchaning garniturasini ostidagi qayishqoq elementning elastiklik moduli; e_t – tekis tasmani yoki qayishqoq(rezina) elementning ishchi uzunligi; ψ_I –uzatmaning hisobiy koeffitsiyenti; T – tarkibli diskretlovchi barabanchaning tebranish davri; κ_I – chegarviy sonli proparsionallik koeffitsiyenti, $\kappa_I = 6,28$ (bunda $\psi_I < 0,6$); $\pi = 3,14$.

Nazariy tajribalar orkali xosil bo'lgan harakat tenglamalari quyidagicha ifodaga ega bo'ldi:

$$\begin{aligned} \frac{1}{\kappa_{10}} M_{10} - \epsilon_{106} \Delta \dot{\varphi}_{106} - C_{106} \Delta \varphi_{106} &= J_{10} \ddot{\varphi}_{10}; \\ U_{106} (\epsilon_{106} \Delta \dot{\varphi}_{106} + C_{\kappa 6} \Delta \varphi_{106}) - \epsilon_{11} \Delta \dot{\varphi}_{61} - C_{11} \Delta \varphi_{61} - \epsilon_{22} \Delta \dot{\varphi}_{62} - C_{22} \Delta \varphi_{62} - \\ &\epsilon_{33} \Delta \dot{\varphi}_{63} - C_{33} \Delta \varphi_{63} - M_{uuu} = J_{\epsilon} \ddot{\varphi}_{\epsilon}; \\ U_{61} (\epsilon_{101} \Delta \dot{\varphi}_{101} + C_{61} \Delta \varphi_{61}) - M_{q1} &= J_1 \ddot{\varphi}_1; \\ U_{62} (\epsilon_{102} \Delta \dot{\varphi}_{102} + C_{62} \Delta \varphi_{62}) - M_{q2} &= J_2 \ddot{\varphi}_2; \\ U_{63} (\epsilon_{103} \Delta \dot{\varphi}_{103} + C_{63} \Delta \varphi_{63}) - M_{q3} &= J_2 \ddot{\varphi}_3; \end{aligned} \quad (3)$$

Bu yerda keltirilgan xarakat tenglamalaridagi, $\varphi_{\epsilon}, \varphi_1, \varphi_2, \varphi_3$ – mos ravishda diskretlovchi-tituvchi barabancha vali va tishli garnaturalarni buralishdagi siljishlari; $\epsilon_{106}, \epsilon_{101}, \epsilon_{102}, \epsilon_{103}$ – mos ravishda tekis tasmali uzatma va tishli garnaturalar rezinali vtulkalari dissipativ koeffitsiyentlari; C_{106}, C_1, C_2, C_3 – tekis tasmali uzatma va tishli garnaturalar rezinali vtulkalarni aylanishdagi bikrlilik koeffitsiyentlari; $U_{106}, U_{61}, U_{62}, U_{63}$ – pnevmomexanik yigiruv mashinasidagi uzatmalarni uzatishlar nisbati; M_{ish} – diskretlovchi barabanchaning validagi tayanchlar ishqalanish kuchining momenti; M_{q1}, M_{q2}, M_{q3} – tishli



2-TOM, 3-SON

garnituralarga pilta tolalaridan kelayotgan qarshilik kuchlarining momentlari; κ_{yu} – tekis tasmali uzatma orqali harakat bir vaqtda uzatilayotgan diskretlovchi-tituvchi barabanchalar soni. Tajribalar va nazariy tadqiqotlar natijasida diskretlovchi barabancha har uchchala tishli garnituralarning burchak tezliklarini o'zgarish qonuniyatlari aniqlandi va qiyosiy taxlil qilindi. Bunda tolali pilta zichligi va undan kelayotgan texnologik qarshiliklari o'rtadagi tishli garniturada ikki chetdagi tishli garnituralarga nisbatan 1,2 marta kattoroqli inobatga olingan [5].

Xulosa: Tarkibli diskretlovchi-tituvchi barabancha tishli garnituralari, yuritgich mexanik xarakteristikasi, qayishqoq – dissipativ xususiyatlarini, texnologik qarshiliklarini inobatga olgan holda mashina agregatining dinamik va matematik modelari olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O.A.Mirzayev, SH.SH.Shuxratov, N.A.Urakov. Izucheniye xarakteristiki radialnogo nagrujeniya pitayushego silindra s uprugoy vtulkoy // Vestnik TASHGTU. Tashkent, 2017. №2. S.100-105.
2. A.Djurayev, O.A.Mirzayev, N.A.Urakov, K.I.Axmedov. Razrabotka novoy konstruksii pitayushego stolika pryadilnoy mashini // Vestnik TASHGTU. Tashkent, 2018. №1. S.115-118.
3. N.A.Urakov, A.Dj.Djurayev, O.A.Mirzayev. Optimizatsiya zapravochnix parametrov zoni diskretizatsii pnevmomexanicheskix pryadilnix mashin // Vestnik TASHGTU. Tashkent, 2019. №2. S.140-145.
4. Mirzaev Otabek Abdukarimovich Urakov Nuriddin Abramovich,. "FORCED VIBRATIONS OF A COMPOSITE CHEVRON-TYPE FEED CYLINDER WITH TORSIONAL RESISTANCE." *Journal of Modern Educational Achievements* 11.11 (2023): 230-239.
5. Juraevich, Juraev Anvar, and Urakov Nuriddin Abramovich. "DEVELOPMENT OF DESIGNS AND JUSTIFICATION OF THE PARAMETERS OF A SCRETTING DRUM WITH A DAMPER OF A SPINNING MACHINE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.5 (2022): 1093-1101.



2-TOM, 4-SON

OMBORXONALARDA IOT TEXNALOGIYALARINI QOLLASH VA MOBILE KONTROL

Po'latov Ziyohiddin Axunjon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti

Intellectual muhandislik tizimlari yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Hozirda ombor sanoatida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Joylardan tortib inventarlarni saqlashgacha, ular butun ta'minot zanjiri samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydigan samarali vositalarga aylandi.

Kalit so'zlar: *IoT, aqlli tizimlar, sun'iy intellekt, AI, Avtomatlashtirilgan.*

Kirish:

Logistika olamida Internet of Things (IoT) texnologiyalarini joriy etish ombor iqlim nazorati va mobil boshqaruvni inqilob qildi. 2024 Zebra Technologies Warehousing Vision Study ma'lumotlariga ko'ra, qaror qabul qiluvchilarning 77 foizi xodimlarni texnologiya bilan ko'paytirish omborda avtomatlashtirishni kuchaytirishning eng yaxshi usuli va talab qilinadigan iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni saqlab qolishning yagona yo'li ekanligini tan olishadi. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, 2024 yilga borib IoT qurilmalarini saqlashda qo'llash ularni almashtirish emas, balki ishchilarning ish faoliyatini yaxshilaydi. Inventarizatsiya jarayonlarining bir qismi texnologiya vositalari bilan avtomatlashtirilgan omborlar aqlli omborlar deb ataladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

IOT sensorlari harorat, namlik va havo sifatini real vaqt rejimida kuzatib boradi, bu esa tovarlarni saqlash uchun maqbul sharoitlarni ta'minlaydi va buzilishlarni kamaytiradi.

Aqlli iqlim nazorati tizimlari sozlamalarni avtomatik ravishda sozlaydi va ideal sharoitlarni saqlab, energiyani tejaydi.

1. Haqiqiy vaqtda monitoring.
 - Iqlim ma'lumotlarining doimiy monitoringi har qanday qoidabuzarliklarga darhol javob berishni ta'minlaydi.
2. Avtomatlashtirilgan sozlashlar.
 - Tizimlar real vaqtda sozlashlarni amalga oshiradi, vaqtni tejaydi va inson xatosi xavfini kamaytiradi.
3. Energiya samaradorligi.
 - Aqlli tizimlar energiyadan foydalanishni optimallashtiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradi.

Natijalar:



2-TOM, 4-SON

IOT qurilmalari real vaqt rejimida inventarizatsiyani kuzatish imkonini beradi, menejrlarga ongli qarorlar qabul qilish va ombor operatsiyalarini optimallashtirish imkonini beradi.

Mobil ilovalar ombor ma'lumotlariga masofadan kirishni ta'minlaydi, bu esa menejrlarga har doim aloqada bo'lish va nazorat qilish imkonini beradi.

Haqiqiy vaqtda inventarni kuzatish

Optimallashtirilgan qaror qabul qilish

Ma'lumotlarga masofadan kirish

Kengaytirilgan operatsion nazorat

IOT texnologiyalari mavjud omborlarni boshqarish tizimlari bilan muammosiz birlashtirilishi mumkin, bu esa muammosiz o'tishni ta'minlaydi[1].

Sozlanishi mumkin bo'lgan asboblar paneli va hisobotlar ombor jarayonlarini doimiy takomillashtirish uchun chuqur tahlillarni taqdim etadi.

1. Uzluksiz integratsiya:

➤ Kundalik operatsiyalarni buzmasdan IoT qurilmalarini mavjud tizimlar bilan ulang.

➤ Turli xil dasturiy ta'minot va apparat variantlari bilan muvofiqligi amalga oshirishda moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

2. Kengaytirilgan tahlil

➤ Haqiqiy vaqtda ma'lumotlar tahlili strategik qarorlar qabul qilish va jarayonni optimallashtirish uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

➤ Sozlanishi mumkin bo'lgan asboblar paneli muhim ombor ishlash ko'rsatkichlarini bir qarashda ko'rish imkonini beradi.

3. Kengaytirilgan ma'lumotlar xavfsizligi



2-TOM, 4-SON

➤ Nozik ombor va inventar ma'lumotlarini kiber tahdidlardan himoya qilish uchun mustahkam xavfsizlik protokollarini joriy qiling.

➤ Shifrlash va ko'p faktorli autentifikatsiya ma'lumotlarning yaxlitligi va maxfiylikni ta'minlaydi.

Operatsion xarajatlarning kamayishi, inventarizatsiyaning aniqligi va ish samaradorligining oshishi investitsiyalarning sezilarli daromadlilikiga (ROI) yordam beradi.

Haqiqiy vaqtda ma'lumotlar ma'lumotlari proaktiv texnik xizmat ko'rsatish, uskunaning ishlashini optimallashtirish va ishlamay qolish vaqtini kamaytirish imkonini beradi.

1. Xarajatlarni tejash: Energiya iste'moli va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish.

2. Inventarizatsiyaning aniqligi: Zaxiralarni minimallashtirish va real vaqtda kuzatish orqali haddan tashqari stok holatlari.

3. Operatsion samaradorlik: Jarayonlarni soddalashtirish va resurslarni taqsimlashni yaxshilash.

Ulanish muammolari va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar kabi amalga oshirish muammolari bo'lishi mumkin IOTni joylashtirishda eng yaxshi amaliyotlarga rioya qilish orqali hal qilinishi kerak[2].

Xodimlarni muntazam ravishda o'qitish va malakasini oshirish samarali foydalanishni ta'minlaydi va IoT-ni qo'llab-quvvatlaydigan tizimlarni boshqarish.

1. Ulanish muammolari: Potensial tarmoq cheklovlarini mustahkam ulanish echimlari bilan hal qiling va ortiqchalar.

2. Ma'lumotlar xavfsizligi: Noziklarni himoya qilish uchun qat'iy xavfsizlik choralarini va muntazam tekshiruvlarni amalga oshirish ma'lumotlar va aktivlar.

3. Xodimlarni tayyorlash: Xodimlarni jihozlash uchun keng qamrovli o'quv dasturlarini taqdim eting IoT afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun bilim va ko'nikmalar.

Muhokama:

IoT texnologiyasidagi davom etayotgan yutuqlar bashorat qilish kabi yangiliklarni olib kelishi kutilmoqda omborlarda analitik va avtonom inventar boshqaruvi.

Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish bilan integratsiya samaradorlikni yanada oshiradi va ombor operatsiyalari bo'yicha razvedka.

1. Bashoratli tahlil: Ta'mirlashni taxmin qiling ehtiyojlar, talab shakllari va operatsion tushunchalar proaktiv qarorlar qabul qilish uchun.



2-TOM, 4-SON

2. Avtonom inventarizatsiya - Boshqaruv: Avtomatlashtirilgan inventarizatsiya kuzatish va to'ldirish tizimlari uzluksiz ishlash uchun samaradorlik.

3. AI va mashina - O'rganish: Intellektual tizimlar o'rganishga qodir va optimallashtirish uchun moslashish ombor jarayonlari.

IoT texnologiyalarini muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun har tomonlama baholashni o'tkazish kerak ombor muhitining o'ziga xos ehtiyojlari va muammolari[3].

Tajribali IoT xizmat ko'rsatuvchi provayderlar bilan hamkorlik loyihalashtirish va amalga oshirish uchun juda muhimdir optimal samaradorlik uchun moslashtirilgan echimlar.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda baholash va rejalashtirishni har tomonlama baholashni o'tkazing omborga qo'yiladigan talablar va potentsial hududlar yaxshilash uchun. Bosqichlar uchun batafsil rejani ishlab chiqing IoT texnologiyalarini joriy etish buzilishlarni minimallashtirish. Ekspert maslahati IoT xizmati provayderlari bilan aloqada bo'ling ishlab chiqishda tasdiqlangan tajriba va ombor echimlarini amalga oshirish. Moslashtirilgan, moslashtirilgan yechimlarni qidiring muayyan ehtiyojlari va muammolari ombor muhitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Олифер В. Компьютерные сети. Принципы, технологии, протоколы / В. Олифер, Н. Олифер. – СПб.: Питер, 2021. – 1008 с.
2. Рентюк В. Развитие «Интернета вещей»: проблемы и их решения / В. Рентюк // Беспроводные технологии. – 2019. – № 1. – С. 38–44.
3. Inventarizatsiya va uning asoslari. Toshkent. 1999-224 bet.
4. "Inventory Management and Production Planning and Scheduling" - Edward A. Silver, David F. Pike, Rayne Peterson
5. "Inventory Control and Management" - Donald Waters



BILDUNGSSYSTEM DEUTSCHLANDS

Jizzakh-Zweigstelle der Nationalen Universität Usbekistans,
benannt nach Mirzo Ulugbek

Die Fakultät für Psychologie, Abteilung für Fremdsprachen
Phylogie und Fremdsprachen

Betreuerin: **Axmedova Sevara Rahmonqulovna**

axmedovas@jbnuu.uz

Schülerin der Gruppe 403-22: **Isoqova Rayxona Abdullayevna**

isoqovarayxona43@gmail.com

Artikelannotation: In diesem Artikel wird einen umfassenden Überblick über das Bildungssystem Deutschlands gegeben. Es wird die Struktur von der frühen Bildung bis zur Hochschulbildung erläutert, wobei besondere Merkmale wie Chancengleichheit, Bildungsföderalismus und Berufsorientierung hervorgehoben werden. Zusätzlich werden wichtige Themen wie Integration und Inklusion, Digitalisierung und Bildungstechnologie sowie Lehrerausbildung und Professionalisierung behandelt. Der Artikel betont die kontinuierlichen Reformen und die internationale Zusammenarbeit im deutschen Bildungswesen. Diese Zusammenstellung bietet Lesern einen fundierten Einblick in die Funktionsweise und Herausforderungen des deutschen Bildungssystems und illustriert die Bemühungen, die Bildung für alle Schüler zugänglich und effektiv zu gestalten.

Schlüsselwörter: Bildungssystem, Deutschland, Kindergarten, Grundschule, Sekundarstufe, Abitur, Berufsausbildung, Studium, Chancengleichheit, Bildungsföderalismus, Berufsorientierung, Integration, Inklusion, Digitalisierung, Bildungstechnologie, Lehrerausbildung, Internationaler Austausch.

Das Bildungssystem Deutschlands: Eine Übersicht

Das Bildungssystem Deutschlands ist bekannt für seine Vielfalt und Qualität, das sowohl traditionelle Werte als auch innovative Ansätze vereint. Es ist in verschiedene Stufen unterteilt und legt großen Wert auf Chancengleichheit und lebenslanges Lernen.

Struktur des Bildungssystems

1. Frühe Bildung (Kindergarten):

- Kinder ab dem Alter von drei Jahren können einen Kindergarten oder eine Vorschule besuchen.



2-TOM, 4-SON

- Frühe Bildung legt den Grundstein für das spätere Lernen und fördert soziale Fähigkeiten.

2. Grundschule:

- Die Grundschule dauert in der Regel vier Jahre (Klassenstufen 1 bis 4).
- Hier werden grundlegende Fähigkeiten in Lesen, Schreiben, Mathematik und anderen Fächern vermittelt.

3. Sekundarstufe I (weiterführende Schule):

- Nach der Grundschule beginnt die Sekundarstufe I, die sich in Deutschland je nach Bundesland unterscheiden kann.

- Sie umfasst die Klassenstufen 5 bis 10 oder 6 bis 10.

4. Sekundarstufe II (Abitur):

- Nach der Sekundarstufe I folgt die Sekundarstufe II, die mit dem Abitur abschließt.
- Hier bereiten sich die Schüler auf das Studium oder eine berufliche Ausbildung vor.

5. Berufsausbildung und Studium:

- Deutschland bietet eine breite Palette an beruflichen Ausbildungsmöglichkeiten und Studiengängen.

- Duale Ausbildungsprogramme sind weit verbreitet, bei denen theoretischer Unterricht mit praktischer Arbeit in einem Unternehmen kombiniert wird.

Besondere Merkmale des deutschen Bildungssystems

- Chancengleichheit: Das deutsche Bildungssystem legt großen Wert auf Chancengleichheit. Es gibt staatliche Schulen, die für alle zugänglich sind, und private Schulen, die zusätzliche Bildungsoptionen bieten.

- Bildungsföderalismus: Bildungsfragen werden größtenteils von den Bundesländern geregelt, was zu regionalen Unterschieden führen kann.

- Berufsorientierung: Das Bildungssystem in Deutschland legt einen starken Fokus auf die Berufsorientierung. Schüler erhalten frühzeitig Einblicke in verschiedene Berufe und Ausbildungsmöglichkeiten.

- Hochschulbildung: Deutschland ist bekannt für seine renommierten Universitäten und Fachhochschulen, die eine breite Palette von Studienmöglichkeiten in verschiedenen Fachbereichen bieten.

Herausforderungen und Zukunftsausblick

Trotz seiner Stärken stehen dem deutschen Bildungssystem auch Herausforderungen gegenüber. Dazu gehören Fragen der Integration, der Digitalisierung und der



Lehrerausbildung. Die Zukunft wird durch Innovationen geprägt sein, die die Bildung noch effektiver und inklusiver gestalten sollen.

Insgesamt spiegelt das Bildungssystem Deutschlands eine ausgewogene Mischung aus Tradition und Modernität wider. Es ist darauf ausgerichtet, junge Menschen auf die Anforderungen der globalen Gesellschaft vorzubereiten und gleichzeitig die individuellen Talente und Fähigkeiten zu fördern.

Integration und Inklusion

Das deutsche Bildungssystem setzt sich aktiv für die Integration von Schülern mit Migrationshintergrund und für die Inklusion von Kindern mit besonderen Bedürfnissen ein. Es gibt spezielle Programme und Ressourcen, um sicherzustellen, dass alle Schüler die bestmögliche Bildung erhalten und ihre Potenziale entfalten können.

Digitalisierung und Bildungstechnologie

Die Digitalisierung spielt eine immer größere Rolle im deutschen Bildungssystem. Schulen und Hochschulen setzen vermehrt auf digitale Lehrmittel, interaktive Lernplattformen und Online-Kurse. Dieser Wandel soll die Lernergebnisse verbessern und die Schüler auf die Anforderungen einer digitalen Welt vorbereiten.

Lehrerausbildung und Professionalisierung

Die Ausbildung und Fortbildung von Lehrern ist ein wichtiger Bestandteil der Bildungsreformen in Deutschland. Es wird verstärkt darauf geachtet, Lehrkräfte optimal zu qualifizieren und sie mit den neuesten pädagogischen Methoden und Technologien vertraut zu machen.

Internationaler Austausch und Kooperation

Deutsche Bildungseinrichtungen pflegen eine enge Zusammenarbeit mit internationalen Partnern. Es gibt zahlreiche Austauschprogramme für Schüler und Studierende sowie Kooperationen mit ausländischen Universitäten und Forschungseinrichtungen. Diese internationalen Verbindungen tragen zur Vielfalt und Exzellenz des Bildungssystems bei.

Das deutsche Bildungssystem befindet sich in einem kontinuierlichen Entwicklungsprozess, um den sich verändernden Anforderungen der Gesellschaft gerecht zu werden und den Schülern optimale Bildungschancen zu bieten.



REFERENZEN

1. Bundesministerium für Bildung und Forschung (BMBF). (o.J.). Das deutsche Bildungssystem. Verfügbar unter: <https://www.bmbf.de/de/das-deutsche-bildungssystem-1267.html>
2. Deutscher Bildungsserver. (o.J.). Informationen zum deutschen Bildungssystem. Verfügbar unter: <https://www.bildungsserver.de/Startseite-1559.html>
3. Deutscher Akademischer Austauschdienst (DAAD). (o.J.). Studying and Research in Germany. Verfügbar unter: <https://www.daad.de/en/>
4. Kultusministerkonferenz (KMK). (o.J.). Bildungssystem in Deutschland. Verfügbar unter: <https://www.kmk.org/themen/bildungssystem.html>
5. Statistisches Bundesamt (Destatis). (o.J.). Bildung und Kultur - Schule und Bildung. Verfügbar unter: <https://www.destatis.de/DE/Themen/Gesellschaft-Umwelt/Bildung-Forschung-Kultur/Schulen/Schulen.html>
6. Stiftung Mercator. (2019). Bildung in Deutschland - Ein Überblick. Verfügbar unter: <https://www.stiftung-mercator.de/de/publikationen/publikationen/publikation/news/detail/News/bildung-in-deutschland-ein-ueberblick/>
7. Universität Hamburg. (o.J.). Deutsches Bildungssystem. Verfügbar unter: <https://www.uni-hamburg.de/campuscenter/studium/studienorganisation/auslandssemester/ueberblick-deutsches-bildungssystem.html>
8. World Education Services (WES). (o.J.). Education System in Germany. Verfügbar unter: <https://www.wes.org/advisor-blog/education-system-in-germany/>
9. Ахмедова С. Р. Таълим ва тарбия жараёнлари узвийлигининг самарадорлиги //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 369-373.
10. Ахмедова С. Р. и др. Инновацион технологияларни таълим жараёнларига татбиқ этиш йўллари //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 492-496.
